
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

Xalilova Ruxsora Raupovna

ONA TILI O'QITISH METODIKASI

O'QUV QO'LLANMA

BUXORO – 2022
"FAN VA TA'LIM" NASHRIYOTI

74.268.10'zb

37.016:811.512.133(075.8)

X 21

Xalilova, Ruxsora Raupovna.

Ona tili o'qitish metodikasi [Matn] : o'quv qo'llanma / R.R. Xalilova.- Buxoro: Fan va ta'lim, 2022.-136 bet.

KBK 74.268.10'zb

UO'K 37.016:811.512.133(075.8)

MA'SUL MUHARRIR:

M. Ro'ziyeva – f.f.f.d., dotsent.

TAQRIZCHILAR:

B.Y. Axmedov – p.f.d., professor.

N.G. Dilova – p.f.f.d., professor.

Ushbu o'quv qo'llanma 5111700–boshlang'ich ta'lim yo'nalishi talabalari uchun mo'ljallangan bo'lib, unda boshlang'ich sinflarda sintaksis va punktuatsiya elementlarini o'rganish, nutq o'stirish metodikasi, kichik yoshdagi o'quvchilar nutqini o'stirish yo'llari va vazifalari, ona tili va o'qish savodxonligi fanining o'qitish jarayonida zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalardan foydalanishning o'ziga xos xususiyatlari o'z ifodasini topgan.

O'quv qo'llanma Buxoro davlat universiteti kengashining 2022-yil 4-iyuldagi 11- yig'ilish bayonnomasiga asosan nashrga tavsiya etilgan

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi 2022 – yil 25 – noyabrdagi “388” – sonli buyrug'iga asosan o'quv qo'llanma sifatida tavsiya etilgan. Ro'yxatga olish raqami 388 - 111

ISBN 978-9943-8986-9-1

© Xalilova Ruxsora Raupovna

Kirish

Mamlakatimizda ta'lim sohasida olib borilayotgan yangilanish, modernizatsiya jarayoni uzluksiz ta'lim tizimining barcha bo'g'inlari, jumladan, oliy ta'limda ham zamon talablariga javob bera oladigan yetuk mutaxassislarni tayyorlash, ularda yangi bilim va ko'nikmalarini shakllantirishni, o'z ustida ishlash, zamonaviy texnologiya yutuqlaridan maqsadli foydalana olish mahoratini oshirishni taqozo etmoqda. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini hozirgi kun talablari asosida tayyorlashda "Ona tili o'qitish metodikasi" fani ham ustuvor vazifalarni bajarishda salmoqli o'rinni egallaydi. Zamonaviy ta'limda ta'lim muassasalaridagi o'qitish sifatini ta'minlashga qaratilgan tizimli islohotlar zahirida bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy mahorati, ularning zamonaviy ta'lim va innovatsion texnologiyalar, ilg'or xorijiy tajribalarni o'zlashtirish borasidagi zamonaviy bilim, ko'nikma va malakalarini rivojlantirish dolzarb vazifalardan sanaladi. Mamlakatimizda pedagog kadrlarni tayyorlash jarayonini modernizatsiyalash, sohadagi zamonaviy rivojlanish tendensiyalari, ilg'or xorijiy tajribalar va innovatsion yondashuvlar asosida ta'lim mazmuni va o'qitish sifatini takomillashtirish davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan.

Bo'lajak pedagog mutaxassislarni zamon talablari asosida aqliy, axloqiy, intellektual, estetik va jismoniy jihatdan komil inson sifatida tarbiyalash "Ona tili o'qitish metodikasi" fanining ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi. Mazkur fan orqali bo'lajak mutaxassislar ta'lim jarayonini samarali tashkil etish, yosh avlodda yuksak ma'naviy-axloqiy sifatlarni tarkib toptirishga doir ilmiy-nazariy, amaliy-metodik bilimlar, zarur ko'nikma va malakalar hajmini, o'qituvchi shaxsida namoyon bo'lishi lozim bo'lgan umumkasbiy va shaxsiy fazilatlarini muvaffaqiyatli egallashi kerak.

O'quv qo'llanmada ona tili o'qitish metodikasining umumiy asoslari, darslarda integratsion yondashuv, mashg'ulotlar jarayonida xorijiy ta'lim tizimida foydalanish, shuningdek boshlang'ich sinf ona tili va o'qitish darslarida axborot texnologiyalari hamda ta'lim jarayonida innovatsiyalar va interfaol usullardan foydalanishning yo'l va usullari ko'rsatib berilgan.

7-MODUL. BOSHLANG‘ICH SINFLARDA SINTAKSIS VA PUNKTUATSIYA ELEMENTLARINI O‘RGANISH

15-MAVZU. BOSHLANG‘ICH SINFLARDA SINTAKTIK TUSHUNCHALAR USTIDA ISHLASH METODIKASI

Tayanch so‘z va iboralar: *sintaksis, punktuatsiya, bog‘lovchi, darak gap, so‘roq gap, buyruq gap, his-hayajon gap, sodda gap, qo‘shma gap, gap bo‘laklari, kesim, ega, gapning uyushiq bo‘laklari, undalma, imlo, imloviy malaka, imloviy mashqlar, ko‘chirib yozuv, diktant, ta‘limiy diktant, tekshiruv diktant, grammatik-orfografik tahlil, leksik-orfografik tahlil, kompleks mashqlar, bayon, insho, ijodiy, mustaqil ishlar, test, so‘z yasalishi, lug‘at, imlo qoidalari, imlo tamoyillari*

15.1. Boshlang‘ich sinflarda punktuatsiya elementlarini o‘rganish metodikasi

Boshlang‘ich sinflarda sintaksis yuzasidan beriladigan bilimlar:

- 1) amaliy o‘rganiladigan;
- 2) nazariy o‘rganiladigan turlarga bo‘linadi.

Sintaksis bilimlarni amaliy o‘rganish savod o‘rgatish davridayoq boshlanadi va to‘rtinchi sinfda ham davom ettiriladi. Boshlang‘ich sinfda «Bog‘lovchi», «Gap», «Darak gap», «So‘poq gap», «Buyruq gap», «His-hayajon gap», «Sodda gap», «Qo‘shma gap», «Gap bo‘laklari», «Gapning uyushiq bo‘laklari», «Undalma» mavzulari nazariy o‘rganiladi. Bu mavzular yuzasidai turli mashqlar bajariladi.

Boshlang‘ich sinflarda ona tili darslarining muhim vazifalaridan biri fikrni ifodalashda gapdan ongli foydalanish ko‘nikmasini shakllantirish hisoblanadi.

Morfologiya va leksika, fonetika va orfografiya sintaksis asosida o'zlashtirilgani uchun tilni o'rganishda gap ustida ishlash markaziy o'rin egallaydi. Gap nutqning asosiy birligi bo'lib, boshlang'ich sinf o'quvchilari ot, sifat, son, olmosh, fe'l, ularning muhim kategoriyalarining tilimizdagi rolini gap asosida bilib oladi. O'quvchilar ona tili leksikasini ham gap negizida egallaydi. So'zning leksik ma'nosi va uning qo'llanish xususiyatlari so'z birikmasi yoki gapda ma'lum bo'ladi.

So'z gapda bir ma'noli bo'ladi (gapdan tashqari bir necha ma'no ifodalash mumkin).

Metodist olimi T. G. Ramzayeva boshlang'ich sinflarda gap ustida ishlashni shartli ravishda besh yo'nalishga bo'ladi:

1. Gap haqidagi grammatik tushunchani shakllantirish (til birligi bo'lgan gapning muhim belgilarini o'rgatish).
2. Gap strukturasini o'rgatish (so'z birikmasida so'zlarning bog'lanishi ustida ishlash, gapning grammatik asosini, bosh va ikkinchi darajali bo'laklarning xususiyatlari, yoyiq va yig'iq gaplar ustida ishlash).
3. O'quvchilarning nutqida gapning maqsadga va ohangga ko'ra turlaridan foydalanish ko'nikmasini shakllantirish.
4. Gapda so'zlarni aniq qo'llash ko'nikmasini o'stirish.
5. Yozma nutqda gapni to'g'ri tuzib yozish (uni bosh harf bilan boshlash, tinish belgilarini qo'yish) ko'nikmasini shakllantirish.

Ishning bu besh yo'nalishi bir-biriga o'zaro ta'sir etadi va gapning ayrim tomonlarini o'rganish maqsadidagina ularning har biri mustaqil muhokama qilinadi.

Gapni o'rganish va nutqda undan foydalanish ko'nikmasini shakllantirish o'quvchilarning aniq bilimlarini doimiy kengaytirib, boyitib borishga asoslanadi.

O'quvchi qanday yangilikni bilsa, unda bu yangilik haqida xabar berish ehtiyoji tug'iladi. U o'z fikrini ifodalash uchun qulayroq shakl qidiradi. Demak, aloqa qilish talabidan gapni mukammalroq egallash zaruriyati kelib chiqadi.

“Gap” mavzusi boshlang’ich ta’limning barcha sinfdan o’rganiladi. Gapning belgilari haqidagi bilimlar chuqurlashtirib boriladi. O’quvchilar fikr ifodalovchi nutq birligi –gap haqidagi elementar tasavvurdan gapning bosh va ikkinchi darajali bo‘laklari, gapda so‘zlarning bog‘lanishi, gapning uyushiq bo‘laklarini o’rganishga o’tadilar.

Gap ustida ishlashning boshlang’ich bosqichi savod o’rgatish davriga to‘g‘ri keladi. Bu davrda o’quvchilar gapning muhim xususiyati (tugallangan ohang bilan aytilishi) bilan tanishadi. Gapning bu xususiyatini bilmasdan turib, so‘zlardan gap tuzib bo‘lmaydi. O’quvchilar gapning bosh bo‘laklarini ajrata olmasa, gap nutqning yaxlit birligi ekanini bilmaydi. Ega va kesim gapning qurilishi va mazmunining asosini tashkil etadi.

Shuning uchun ham savod o’rgatish davrida gapning bosh bo‘laklari ustida kuzatish o’tkazish ma’qul. Gapning bosh bo‘laklarini kuzatish bilan o’quvchilar o‘z fikrlarini aniq ifodalashga o’rganadi, ularda nutqdan gapni ajratish ko‘nikmasi shakllanadi. Gapni o’rganish me’yoriga qarab uning tarkibiy qismlari, xususan so‘z birikmasi haqidagi tasavvur aniqlanadi.

Boshlang’ich sinflarda o’rganiladigan sintaktik material kam bo‘lsa ham, butun o’quv yili davomida, boshqa mavzularga singdirilgan holda gap ustida ishlab boriladi.

Dasturga ko‘ra 1- sinfdan o’quvchilarga gap haqida elementar tushunchalar beriladi. Gap tugallangan fikr bildirishi, so‘zlardan tashkil topishi, uning oxiriga ma’lum tinish belgilari qo‘yilishi haqida amaliy ma’lumotlar beriladi.

2- sinfdan esa o’quvchilar gap haqida nazariy tushunchalar oladi. Ular gapdan shu gap kim yoki nima haqida aytilganini va u haqda nima deyilganini bildirgan so‘zni ajratishga o’rganadi. Aslida gapning grammatik asosi ustida ishlash mana shundan boshlanadi va bu bosh bo‘laklarni o’rganishga muqaddima bo‘ladi.

3- sinf gap ustida ishlashning yangi bosqichidir. O’quvchilar gapni amaliy o’rganishdan tushuncha sifatida o’rganishga o’tadi. Ular gapning muhim belgilarni

bilib oladi. Bosh va ikkinchi darajali bo‘laklarning ta’rifi, ega va kesim terminlari kiritiladi.

Bu sinfda gapda so‘zlarning bog‘lanishiga katta e’tibor beriladi. O‘quvchilar gapning asosi (ega va kesim)ni ajratadi, ikkinchi darajali bo‘laklarni farqlaydi va gapdagi ikki so‘z (hokim va tobe so‘z)ni, so‘zlarning grammatik jihatdan, ya’ni qo‘shimchalar orqali bog‘lanishini bilib oladi.

4- sinfda gapning uyushiq bo‘laklarini o‘rganish bilan gap bo‘laklari haqidagi bilim kengaytiriladi.

Shunday qilib, o‘quvchilarda gap bo‘laklari haqidagi tasavvurni o‘stirish gapni o‘zlashtirishda yetakchi hisoblanadi. Birinchidan, boshlang‘ich sinf o‘quvchilari gap bo‘laklarini ikkita katta guruhga (bosh va ikkinchi darajali bo‘laklar)ga bo‘linishini o‘zlashtiradilar. Bu sinflarda ikkinchi darajali bo‘laklar turlarga ajratilmaydi. Gapni o‘zlashtirish uchun bosh va ikkinchi darajali bo‘laklarning mohiyati ochiladi: bosh bo‘laklar gapning grammatik asosini tashkil qiladi, fikr asosan gapning grammatik asosi orqali ifodalanadi; ikkinchi darajali bo‘laklar esa bosh bo‘laklarni aniqlash va to‘ldirish vazifasini bajaradi.

Ikkinchi darajali bo‘laklarning mohiyatini ochish uchun o‘quvchilar gapni tahlil qiladi va ular qaysi gap bo‘lagiga bog‘lanib, uni izohlab kelayotganini aniqlaydi. Ikkinchi darajali bo‘laklarning xususiyatlari gapni yoyish (yig‘iq gapni yoyiq gapga aylantirish) jarayonida yaqqol ko‘rinadi. Masalan, o‘quvchilar *Qaldirg‘ochlar uchib keldi* gapini yozadi. Fikrni ifodalash uchun gapga qayerga? va qachon? so‘roqlariga javob bo‘lgan so‘zlarni qo‘yish topshiriladi. O‘quvchilar bu vazifani bajarib, qaysi gap bo‘lagi (ikkinchi darajali bo‘lak) fikrni yana aniqroq ifodalaganiga ishonch hosil qiladi.

O‘quvchilarda gapda so‘zlarning bog‘lanishini aniqlash ko‘nikmasini shakllantirish muhim sintaktik va nutqiy ko‘nikmalar qatoriga kiradi. So‘z birikmasi gap qismi sifatida ajratiladi va boshlang‘ich sinflarni uning muhim belgilari idrok qilinadi. «So‘z birikmasi» atamasi darsliklarga kiritilmagan, ta’rifi

berilmaydi. Ammo kichik yoshdagi o'quvchilar uning quyidagi muhim belgilarini amaliy bilib olishlari zarur:

1. So'z birikmasi mazmun va grammatik tomondan bog'langan ikki so'z. Masalan, *Dunyo xalqlari tinchlik uchun kurashadi* gapida ikki so'z birikmasi bor:

1) *dunyo xalqlari*; 2) *tinchlik uchun kurashadi*.

2. So'z birikmasida bir so'z hokim, ikkinchi so'z tobe bo'ladi. Hokim so'zdan tobe so'zga so'roq beriladi, tobe so'z shu so'roqqa javob bo'lgan so'zdir. Masalan, (qanday?) *iqtidorli o'quvchilar* (qayepira?) to'garakka a'zo bo'ldi. Ega va kesim so'z birikmasi emas, ular gapning asosini tashkil qiladi.

Gap tarkibidagi so'z birikmalarni ajratish ko'nikmasi uzoq mashq davomida shakllantirib boriladi. Buning uchun o'quvchilarning so'z birikmasidan bir so'zning boshqa so'zga tobeligini tushunishga qaratilgan mashqlar tizimidan foydalaniladi.

1. Gaplarni yoyish. Buning uchun gapning qaysi bo'lagi yoyishni talab qilishini aniqlash. Masalan, *Daraxtlar gullabdi* gapini tahlil qilish uchun berilgan *ega va kesim* (gapning asosi) ajratiladi, *daraxtlar qachon gullashini* aytish uchun gapga qanday so'zni qo'shish kerak? Bu so'z gapning qaysi bo'lagi bo'ladi? (Ikkinchi darajali bo'lak). U gapning qaysi bo'lagiga bog'lanadi? (tobelanadi?) (Kesimga bog'lanadi) Qachon gullaydi? (bahorda gullaydi) Gapga egani izohlaydigan yana bitta so'z qo'ying. Qanday gap hosil bo'ldi? (Mevali daraxtlar bahorda gullaydi).

2. So'zlar aralash berilgan gapni qayta tiklash. Avval gapning asoslari (*ega va kesim*) tiklanadi (aniqlanadi), so'ng co'poqlap yordamida ikkinchi darajali bo'laklar (so'z birikmalari) «topiladi», tiklanadi. Masalan, *Mashinada terimchi, teradi, paxtani*.

– Gap kim haqida aytilgan? (Terimchi haqida, Kim? terimchi)

U haqda nima deyilgan? (Teradi. Terimchi teradi - bosh bo'laklar).

- So'roqlar yordamida so'z birikmasini toping. Nimani teradi? (Paxtani teradi) Nimada teradi? (Mashinada teradi).

Keyin gapda soʻzlarning qulay tartibi aniqlanadi. (Terimchi paxtani mashinada teradi). Gap ohangi ustida ishlanadi.

3. Uzluksiz (tinish belgilarisiz) matndan gaplarni ajratish. Mashqning bu turi ongli boʻlishi uchun har bir gapniig bosh boʻlaklarini va soʻz birikmalarini ajratish lozim.

4. Gapni tahlil qilish va sxemasini tuzish. Gap tahlil qilinayotganda dastlab uning asosi ajratiladi, keyin egani izohlovchi ikkinchi darajali boʻlak, kesimni izohlovchi ikkinchi darajali boʻlak, boshqa ikkinchi darajali boʻlakni izohlovchi ikkinchi darajali boʻlak ajratiladi. Shunday qilib, asta-sekin soʻz birikmalari aniqlana boradi.

5. Oʻqituvchi bergan sxema yoki soʻroqlar asosida gap tuzish: kim? kimlarni? nima qiladi? (Shifokor kasallarni davolaydi).

Soʻz birikmasi ikki yoʻnalishda olib boriladi:

1) Soʻz birikmasiga gap ichida gapning tarkibiy qismi sifatida qaraladi;

2) Soʻz birikmasiga predmetning yoyiq nomi sifatida qaraladi, masalan, soat - soʻz, oltin soat, qoʻl soat, osma soat, elektron soat - soʻz birikmalari.

Mavzu: GAP (274-276-mashqlar)

Darsning texnologik xaritasi

Oʻquv jarayonini amalga oshirish texnologiyasi:	Metod:suhbat, tushuntirish, savol-javob metodi,”Rasmi boshqotirma”, “Eng vijdonli oʻquvchi” oʻyinlari. Shakl: jamoa, guruhda ishlash, hamma oʻzi uchun. Jihoz: darslik, rangli koʻrgazmalar, harakatli koʻrgazmalar, tarqatma testlar, plakatlar. Nazorat: Oʻquvchilarning darsda faolligi kuzatilib, hisobga olib boriladi. Baholash: Oʻquvchilar bilimi reyting mezonlari asosida baholanib, dars oxirida eʼlon qilinadi.
Darsning maqsad va vazifalari	Oʻquvchi shaxsini fikrlashga, oʻzgalar fikrini anglashga, oʻz fikrini ogʻzaki hamda yozma shaklda savodli bayon qila olishga qaratilgan nutqiy kompetensiyani rivojlantirish; oʻquvchilarda grammatikaga oid bilimlarni (fonetika, leksikologiya, soʻzning tarkibi, soʻz yasalihi, morfologiya, sintaksis,

	yozuv va imlo, tinish belgilari, nutq uslublariga oid tushunchalarni) shakllantirish va rivojlantirish hamda ona tilining keng imkoniyatlaridan unumli foydalangan holda fikrini to'g'ri va ravon bayon eta olish ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan lingvistik kompetensiyalarni shakllantirishdan iborat.
Tayanch kompetensiyalar:	K-1:Ko'rgan lavhalaridan ma'lumotlar yig'ish; televizor, telefondan to'g'ri foydalanish. K-2:O'quv fanlarini o'rganish va bir-biridan farqlash; kun tartibiga amal qilish va badantarbiya bilan shug'ullanish. K-3:Ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi:davlat ramzlarini bilish; sinfda va oilasida o'z o'rniga ega bo'lish; o'zidan kattalarga, o'rtoqlariga va o'zidan kichiklarga yordam berish. K-4:Orasta kiyinish; ozodalikka rioya qilish; milliy bayramlarni bilish; K-5: Maktabga kelib ketadigan vaqtni bilish; kundalik faoliyatida turli chizmalarni chiza olish; tejamkorlikka rioya qilish.
Fanga oid kompetensiyalar	Adabiy - nutqiy kompetensiya elementlari(tinglab tushunish, fikrni og'zaki bayon qilish, o'qish, fikrni yozma bayon qilish.) hikmatli gap, hikoya, she'r va ixcham audio matnlarni tinglab tushuna oladi; ularni ongli, ifodali to'g'ri o'qiy oladi, o'zbek tilida nutq tovushlarini to'g'ri qo'llay oladi, talaffuz me'yorlariga rioya qila oladi, bo'g'in ko'chirish qoidalariga rioya qila oladi, o'zlashtirgan leksik birliklarni matnda qo'llay oladi, tinish belgilarini to'g'ri qo'llay oladi.

Dars jarayoni va texnologiyasi

<i>T/r</i>	<i>Dars bosqichlari</i>	<i>Bajariladigan ish mazmuni</i>	<i>Bajariladigan ish shakli</i>	<i>Ajratilgan vaqt</i>
1	Tashkiliy qism	O'quvchilarni darsga tayyorlash. Navbatchi axboroti.	Suhbat.	3 daqiqa
2	O'tilgan mavzuni takrorlash	O'tilgan mavzuni takrorlash. Savol va topshiriqlar berib, xulosalash.	Savol- javob.	10 daqiqa
3	Yangi mavzu ustida ishlash	Gap va so'z	Ko'rgazmalilik.	20 daqiqa

4	Yangi mavzuni mustahkamlash	Yozuv daftari bilan ishlash	Daftar bilan ishlash	10 daqiqa
5	Darsni yakunlash va o'quvchilarni rag'batlantirish	Uyga vazifani tushuntirish	Rag'batlantirish.	2 daqiqa

Maqsadlar:

Ta'limiy: Nutq va gap. Ona tilining fonetik tizimi: nutq tovushlari va harflar, unli tovush va harflar, undosh tovush va harflar, jarangli va jarangsiz undoshlar, alifbo, bosh va kichik harflar, tutuq belgisi (fonetik tahlil);bo'g'in va bo'g'in tuzilishi, so'zlarni bo'g'inlab ko'chirish. So'z va so'z ma'nolari haqida bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish.

Tarbiyaviy maqsad: o'quvchilarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ona tili faniga muhabbat uyg'otish, oila va uning a'zolariga hurmat bilan munosabatda bo'lishga o'rgatish;

Rivojlantiruvchi maqsad: o'quvchilarning so'z boyligini o'stirish, fikrlash, xulosa chiqarishga o'rgatish.

Nutqiy kompetensiya (tinglab tushunish, so'zlash, o'qish, yozish):O'qituvchi nutqini, video va audio (multimedia ilovalari) matnlarni va topshiriqlarni tinglab tushuna oladi; rasmlar asosida va o'qib eshittirilgan matn yuzasidan suhbatga kirisha oladi, nutq jarayonida o'zlashtirgan yangi so'zlarni og'zaki nutqda qo'llay oladi; mashq matnidagi so'zlarni qo'shib o'qiy oladi, gap ohangiga rioya qilgan holda ravon va ifodali o'qiy oladi, harflar birikmasi ishtirok etgan so'zlarni o'qiy oladi; so'zda nechta tovush bo'lsa, shuncha bo'g'in bo'lishini bir unli tovush bo'g'in hosil qilishini, ya'ni *o-na*, *u-ka*, *a-ka* kabi bo'g'inga bo'la oladi, harflar birikmalari ishtirok etgan so'zlarni bo'g'inga bo'la oladi, *x* va *h* tovushli so'zlarni to'g'ri yoza oladi, bir mavzu doirasidagi savollarga javob yoza oladi, *mash'al*, *ma'qul*, *ta'lim*, *Jur'-at*, *ta'-zim* kabi tutuq belgili so'zlarni bo'g'inga bo'lib yoza oladi, lug'at, izohli, eshituv, yoddan yozuv, rasm diktant yoza oladi hamda gaplarni rasmlar tartibida ko'chira oladi.

Lingvistik kompetensiya: o‘zbek tilidagi nutq tovushlarining talaffuzida talaffuz me‘yorlariga rioya qila oladi, bo‘g‘in ko‘chirish qoidasiga rioya qila oladi, mavzuga oid so‘zlarni og‘zaki va yozma nutqda qo‘llay oladi, tinish belgilarini to‘g‘ri qo‘llay oladi.

I.Tashkiliyqism: Salomlashish, yo‘qlamaqilish, o‘quvchilarni darsga tayyorgarliklarini tekshirish.

II.O‘tilgan mavzuni takrorlash:

1. O‘quvchilar daftari ko‘rib chiqiladi.
2. Suhbat yordamida uy vazifasi qanday bajarilganligi aniqlanadi.

III.Yangi mavzu bayoni:

274-mashq. Kim haqida aytilganini bildirgan mazmunga mos so‘zni qo‘yib, gap tuzing va yozing.

(Kim?) ... bolalarni o‘qitadi.

(Kim?) ... bino quradi.

(Kim?) ... kiyim tikadi.

(Kim?) ... maktabda o‘qiydi

o‘quvchi, o‘qituvchi, binokor, tikuvchi

Gap kim haqida aytilganini bildirgan so‘zlarning tagiga bitta chiziq chizing.

Gaplarda *o‘qituvchi, binokor, tikuvchi, o‘quvch* haqida nima deyilganini bildirgan so‘zlarni toping

Shu so‘zlarning tagiga ikkita chiziq chizing.

275-mashq. **O‘qing.**

Go‘zalning tug‘ilgan kuniga dugonalari ke - lishdi. Lobar she‘r o‘qidi.
Gulshod raqsga tushdi. Hammalari birgalashib qo‘shiq aytishdi.

Gaplarni ko‘chiring. Har bir gap kim yoki kimlar haqida aytilganini bildirgan so‘zlarni aniqlang va belgilang.

276-mashq. So‘roq gaplarga uchta namuna yozing.

IV.Yangi mavzuni mustahkamlash:

V.Uyga vazifa:

Boshlang'ich sinf o'quvchilari ona tili darslarida tinish belgilariga ko'p duch keladi.

Punktuatsiya so'zi grekcha bo'lib "Nuqtalar ilmi" degan ma'noni anglatadi.

Ma'lumki, **punktuatsiya** tinish belgilarini ishlatilishi haqidagi qoidalar yig'indisi. Punktuatsiya ham yozuv kabi, kishilar orasidagi aloqaning muhim vositalaridan biri sanaladi. Boshlang'ich sinflarda to'rtta tinish belgisi gap oxirida nuqta, so'roq belgisi, undov belgisi hamda uyushiq bo'lakli gaplarda vergulning ishlatilishi haqidagi qoidalar o'rgatiladi. Boshlang'ich sinflarda o'rgatiladigan tinish belgilari kam bo'lishiga qaramay, o'qituvchi har bir sinfda punktuatsiya ustida muntazam ish olib borishi zarur, chunki tinish belgilari fikrni aniq va tez o'qib olishga hamda o'zgalarga uqtirishga yordam beradi.

Kichik yoshdagi o'quvchilarni tinish belgilari bilan tanishtirishda o'qituvchi, avvalo, ularning yozma nutq to'g'ri, boshqalarga tushunarli qilib ifodalash uchun muhim ekanini tushuntiradi.

Masalan, nuqtaning roli bilan elementar tarzda tanishtirish uchun gaplarga ajratilmagan yaxlit matn o'qitiladi; o'quvchilar bunday matnni o'qish va mazmuniga tushunish qiyin ekanligiga ishonch hosil qiladi.

Punktuatsiya semantik, sintaktik va intonatsion qoidaga asoslanadi. Bu uch asos bir-biriga o'zaro ta'sir etadi. Xat yozuvchi tinish belgisini qo'yishda, avvalo, bayon etadigai fikrining mazmuniga asoslanadi.

1-sinf o'quvchilariga savod o'rgatish davridayoq nuqta, so'roq belgisi va undov belgisi bilan amaliy tanishtiriladi. Bolalar hali "Alifbe" o'qimasa ham, rasmga qarab gap tuzadi.

O'qituvchi ularga talaffuzda bir gap boshqasidan to'xtam (pauza) bilan ajratilishini, gapning oxirida pasayishini tushuntiradi.

Bolalar, o'qituvchi topshirig'iga ko'ra, 3–5 gapli kichik matnli gaplarga ajratadi va ular o'rtasidagi to'xtam (pauza) qilish hikoya mazmunini yaxshi tushunishga yordam berishiga ishonch hosil qiladi. Ular gapni to'g'ri talaffuz qilishni o'rgana boshlaydi. Bu gap oxiriga nuqta qo'yilishi bilan tanishtirish uchun

mazmuniy va intonatsion asos yaratadi. Bolalarni gapni o‘qishga oldindan tayyorlash uchun grafik sxemadan foydalaniladi. Masalan, bolalar gap tuzadi, undagi so‘zlarni sanaydi va o‘qituvchi rahbarligida chiziqcha bilan belgilaydi: Biz ertakni sevamiz (). Yana boshqa gap tuzib, uni ham chiziqcha bilan belgilaydi:

Qovun pishdi ().

O‘qituvchi quyidagi mazmunda tushuntiradi: Og‘zaki nutqda bir gapni ikkinchisidan pauza bilan ajratamiz (Har bir gapni talaffuz qilib ko‘rsatadi).

Kitoblarda, gazetalarda gapning tugaganini, ovozni pasaytirish va pauza qilish kerakligini ko‘rsatish uchun alohida belgi–nuqta ishlatiladi.

Bir necha darsdan so‘ng o‘quvchilar gaplarni o‘qishni boshlaydi. Ular nuqta pasaytirish, pauza qilish belgisi ekanini tushunadi. Kesma harflardan gap tuzishda, albatta, nuqtali kartochkadan foydalaniladi. O‘quvchilar gapni yozganda, o‘qituvchi nuqta qo‘yishni eslatadi, ishni tekshiradi. Gapning oxiriga nuqta qo‘yilmasa, xato hisoblanadi. O‘quvchilar o‘qituvchi yordamida nima uchun nuqta qo‘yish lozimligini tushuntiradi. Shunday yo‘l bilan gapning oxiriga nuqta qo‘yish ko‘nikmasi shakllantiriladi.

So‘roq va undov belgilari bilan ham savod o‘rgatish davrida tanishtiriladi. Bolalar so‘rash mazmunini bildirgan gaplarni o‘qiydi. O‘quvchilar bunday gaplarni ohangga rioya qilgan holda, ya‘ni gapning oxirida ovozni ko‘tarish bilan o‘qishga o‘rgatiladi.

Gapning mazmuni va ohangi so‘roq belgisini qo‘yishni talab etadi.

Undov belgisini qo‘yishni o‘quvchilar gapning his-hayajon ifodalashi va alohida ohangda o‘qilishi bilan bog‘laydi.

O‘quvchilar II sinfda “Gap” bo‘limi mavzularini o‘rganish jarayonida nuqta, so‘roq belgisi va undov belgisi haqida nazariy tushunchalar oladi.

III sinfda esa tinish belgilari haqidagi nazariy tushunchalar chuqurlashtiriladi. Shu vaqtdan boshlab o‘quvchilar gap oxiriga tinish belgilari sintaktik asosda qo‘yilishini anglay boshlaydi.

“Darak gap” mavzusini o‘rganish bilan bog‘liq holda nuqta qo‘yilishi, «So‘roq gap» mavzusi bilan bog‘liq holda so‘roq belgisi va «Undov gap» mavzusini o‘rganish bilan bog‘liq holda undov belgisining qo‘yilishi o‘rgatiladi.

IV sinfda o‘quvchilar «Gapning uyushiq bo‘laklari» mavzusi o‘rganilganda sanash ohangi bilan bog‘langan bo‘laklarda vergulning vazifasi bilan tanishadi. O‘qituvchi ikki gapni o‘qib taqqoslash bilan nuqta va vergulda ohangning qanday berilishini ko‘rsatadi. Masalan, biz o‘z ona tilimizni sevib o‘rganamiz.

(Gap oxirida ovoz pasayadi. Pauza qilinadi.) Toza, tiniq, kumush suv orom berar barchaga (Toza, tiniq so‘zlaridan so‘ng ovoz bir oz pasayadi, xabarning davom etishi seziladi).

Boshlang‘ich sinflarda o‘quvchilar har xil mashqlarni ishlash orqali tire va ikki nuqtaning ishlatilishi bilan amaliy tanishadi. Savod o‘rgatish davridayoq o‘qituvchi o‘quvchilar e‘tiborini vergul, tire, ikki nuqtaning ishlatilishiga qaratadi, matnni o‘qiganda bu tinish belgilariga rioya qilishni o‘rgatadi. Masalan, olma, olcha, nok – meva. Kitob - bilim bulog‘i, o‘quvchining o‘rtog‘i.

Ona tili darslarida so‘zlarni guruhlash mashqlarini bajarganda, o‘qituvchi I sinf o‘quvchilarini tire va ikki nuqtaning qo‘yilishi bilan amaliy tanishtiradi. O‘qituvchi aniq misollar bilan sanab ko‘rsatilgan so‘zlardan oldin ikki nuqta qo‘yilishini har bir so‘zning vergul bilan ajratilishini ko‘rsatadi. Bunda o‘quvchilar tinish belgisining nomini aytadi, o‘qituvchi eslatmasa ham, ulardan asta-sekin foydalana boshlaydi. Matnni yozishdan oldin punktuatsion xatoning ham oldi olinadi. Shunday qilib, o‘qituvchi o‘quvchilarda punktuatsion ziyraklikni o‘stirib boradi.

Dasturga ko‘ra bu sinfda o‘quvchilar qo‘shma gap bilan ham tanishtiriladi, elementar o‘rgatiladi. Buning uchun sodda gap bilan qo‘shma gap taqqoslanadi va bolalar qo‘shma gapning ayrim xususiyatlari, xususan, bunday gaplarda ikki qism mavjudligi bilan tanishadi: 1) qo‘shma gap ikki mustaqil qism (sodda gap) dan tuziladi: Ish ishtaha ochar, dangasa ishdan qochar. (maqol) Tong hali yorishmagan, lekin yulduzlar ancha siyraklashgan edi. (Oybek); 2) Qo‘shma gapda bir qism

ikkinchisiga ergashadi (tobelanadi): Hamma ahil bo‘lib ishladi, shuning uchun ish tez bitdi.

O‘quvchilar qo‘shma gap tarkibidagi har bir gapning ega va kesimini topadilar hamda qo‘shma gap ikki gapdan tuzilishiga ishonch hosil qiladilar. O‘quvchilarga qo‘shma gapni o‘rgatish bilan bog‘liq holda, ammo, lekin, biroq bog‘lovchilari yordamida tuzilgan qo‘shma gaplarda, shuning uchun bog‘lovchisi yordamida bog‘lovchisiz qo‘shma gaplarda (atamalar berilmaydi) vergulning ishlatilishi tushuntiriladi.

O‘quvchilarga punktuatsion qoidalarni to‘la singdirish, ularni tinish belgilarini o‘z o‘rnida ongli ishlatishga o‘rgatish maqsadida sintaktik, punktuatsion tahlil, tinish belgilari tushirib berilgan matnning tegishli tinish belgilarini qo‘yish, ta’kidiy eslatish diktanti, bayon va inshoda tinish belgilarining ishlatilishini izohlash kabi mashqlardan foydalaniladi.

Ona tili darslarini o‘qish darslari bilan bog‘lash sintaksis va punktuatsiya elementlari ustida ishlashning muhim shartlaridan biri hisoblanadi. O‘quvchilar bu darslarda sintaksis sohasidagi bilimlariga asoslangan holda ifodali o‘qish, so‘zni aniq ishlatish, o‘z fikrlarini grammatik to‘g‘ri shakllantirishga o‘rganadi. Shunday qilib, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining gap haqidagi elementar bilimlari og‘zaki va yozma nutqda gapdan ongli foydalanishni ta’minlaydi.

15.2. Orfografiyani o‘rganish metodikasi

O‘qituvchi orfografik malakaning psixologik tabiatidan kelib chiqib, kichik yoshdagi o‘quvchilarda imloga oid malakani shakllantirish ustida ishlash metodikasini belgilaydi.

Orfografik malaka maxsus nutq malakasidir. To‘g‘ri yozuv – maxsus nutq faoliyati; yozuvning har bir akti murakkab harakat bo‘lib, uning asosida nutq yotadi. Orfografik malaka nutq faoliyatining komponenti sifatida gapni sintaktik tomondan to‘g‘ri tuzish, so‘zni uslubiy aniq qo‘llashni ham o‘z ichiga oladi. Orfografik malaka murakkab malaka bo‘lib, uzoq davom etadigan mashqlar jarayonida yaratiladi va so‘zni fonetik tomondan tahlil qilish, uning morfemik

tarkibini aniqlash ko'nikmasi kabilarga asoslanadi. Psixologiya malakani avtomatik harakat, ya'ni mashqlar natijasida asta-sekin avtomatlashgan ongli harakat deb belgilaydi. Avtomatlashish o'rganilgan orfografik qoidaning oson-qiyinligiga bog'liq. Orfografik malaka o'z tabiatiga ko'ra avtomatik hisoblanmaydi. Malaka asosiga qo'yilgan ko'nikma mustahkamlanadi, takomillashadi, yaxshilanadi (harakat tezlashadi, aniq-to'g'ri bo'la boshlaydi, ishonarli va tejamli bajariladi); shuning bilan birga, faoliyatning strukturasi qayta quriladi: mayda birlik bilan ishlash kengroq, butun, qo'shilgan birliklar bilan ishlashga o'tadi (masalan, so'zni harflab ko'chirish, bo'g'inlab ko'chirish bilan, keyin so'zni yaxlit ko'chirish bilan, so'ngra u gapni ko'chirish bilan almashadi), bir imlo malakasi avtomatlashadi, imloga oid boshqa hodisa o'rganiladi va asta-sekin so'zni to'g'ri yozish malakasi hosil bo'ladi. Umuman olganda, yozuv murakkab harakat sifatida ongli jarayonligicha qoladi.

To'g'ri yozuv malakasining shakllanishi uchun o'quvchidan fikrlash faoliyati talab etiladi. Biror to'g'ri yozuv hodisasini o'zlashtirish uchun o'quv va yodda saqlashgina emas, balki analiz va sintez ham tatbiq etiladi. Bunda grammatik va orfografik hodisalarning o'xshash va farqli tomonlarini aniqlash uchun taqqoslash usulidan foydalanish hamda so'z va so'z shakllarini ma'lum grammatik yoki grafik guruhlariga ajratish, muayyan sistemaga solish, tushuntirish va isbotlash mashqlaridan foydalanish muhim rol o'ynaydi.

Shunday qilib, orfografiyani o'rgatishda, grammatikani o'rgatish kabi, o'quvchilarning analitik-sintetik faoliyatini asta takomillashtira borish talab etiladi. O'quvchilarda to'g'ri yozuv malakasini shakllantirish grammatik nazariyani va imlo qoidasini o'zlashtirishga asoslanadi. Imlo qoidalari bir so'znigina emas balki umumiylik mavjud bo'lgan butun so'zlar guruhining yozilishini tartibga soladi. Bu xususiyati bilan qoida xat yozuvchini har bir so'zni yodda saqlash, xotirlashdan qutqaradi va qoidaga amal qilib, belgilangan qoidaga muvofiq, butun so'zlar guruhini yozish imkonini yaratadi. Imlo qoidasi grammatik umumiylik asosida birlashgan so'zlarning yozilishini bir xillashtiradi. Bu yozma ravishdagi aloqani

yengilashtiradi va imlo qoidalarining ijtimoiy ahamiyatini ta’kidlaydi. Imlo qoidalarini grammatik, fonetik, so‘z yasalishiga oid materiallarini ma’lum darajada bilmasdan turib o‘zlashtirish mumkin emas. Grammatik nazariya imlo qoidalari uchun poydevor hisoblanadi. Shuning uchun boshlang‘ich sinflarda imlo qoidasi shu qoidaga asos bo‘ladigan grammatik nazariyaga bog‘liq holda o‘rganiladi. Masalan, shakl yasovchi qo‘shimchalarning yozilishi haqidagi qoidalar “Ot”, “Sifat”, “Son”, “Kishilik olmoshlari”, “Fe’l” mavzulari ichiga kiritilgan. Materialning bunday joylashtirilishi grammatika va orfografiyani bir-biriga bog‘liq holda o‘rganishni ta’minlaydi. Imlo qoidasi bevosita grammatik nazariya elementlaridan so‘ng o‘rganiladi. Masalan, otlarning kelishiklar bilan turlanishi o‘rganilgach, kelishik qo‘shimchalarining yozilishi haqidagi ko‘nikma shakllantiriladi. “Sifat” mavzusini o‘rganish -roq, qo‘shimchasining va qip-qizil, yum-yumaloq kabi sifatlarning yozilishiga, “Fe’l” mavzusini o‘rganish bo‘lishsizlik (-ma) va o‘tgan zamon(-di) qo‘shimchalarining yozilishiga zamin yaratadi. Imlo qoidalarini o‘rgatishga bunday yondashish boshlang‘ich sinflarda barcha orfografik materiallarni o‘rganishda tipik hisoblanadi.

Imlo qoidalari ustida ishlash. Imlo qoidalari ustida ishlash – murakkab jarayon, qoidaning mohiyatini ochish, o‘quvchilarning qoida ifodasini o‘rganib olishlari, qoidaning yozuv tajribasiga tatbiq etish uning asosiy komponentlari hisoblanadi.

Qoida ifodasi ustida darslik bo‘yicha ishlanadi. Bunda o‘quvchilarning qoida strukturasini anglab yetishlari ahamiyatlidir. Shuning uchun darslikdagi qoida qismlarga bo‘linadi (Aslida o‘quvchilar bu vazifani mashq jarayonidayoq bajarib qo‘yadilar). O‘quvchilar o‘rganilgan qoidaga misol aytish va xilma-xil mashqlarni bajarish yo‘li bilan uni yangi til materialiga, ya’ni yozuv tajribasiga tatbiq etadilar.

Qoida ustida ishlash metodikasi shu qoidaning xarakteriga qarab tanlanadi. Masalan, bo‘lishsizlik qo‘shimchasi (-ma)ning yozilishini deduktiv yo‘l bilan o‘rgatish mumkin. Jo‘nalish kelishigi qo‘shimchasi (-ga)ning oxiri -q bilan tugagan otlarga -qa, -k bilan tugagan otlarga -ka shaklida qo‘shilishi haqida induktiv yo‘l

bilan tushuntirish maqsadga muvofiq.

O'quvchilar qoidadagi asosiy fikrni ajratishga yordam beradigan vazifalarni bajarsa, uni o'zlashtirish xiyla qulay bo'ladi. Chunki bolalar aniq material bilan ishlaydi va uni tahlil qilish vaqtida qoidaning muhim tomonlarini ajratadi, qoidani ongli o'zlashtiradi. Nimanidir, masalan, so'zlarning talaffuzi va yozilishini, so'z turkumlarini, so'z qismlarini bir-biriga taqqoslash o'quvchilarning aqliy faolligini oshiradi. Qoidada aks ettirilgan muhim fikrni ajratishga o'qituvchining savollari yordam beradi. Bu savollar, o'z navbatida qoidani shakllantirish rejasi ham hisoblanadi.

Qoida ustida jamoa bo'lib ishlash bilan birga darslikdan foydalanib, mustaqil ishlash usulini qo'llash ham mumkin.

Yangi qoidani o'zlashtirishda o'rganilgan bilimlarga suyaniladi. Buning uchun yangi qoida ilgari o'rganilgan qoidalar bilan bog'lanadi. Bunda qarshi qo'yish yoki taqqoslash usulidan foydalaniladi va o'xshash tomonlari aniqlanadi. Masalan, tushum kelishigi qo'shimchasining yozilishi o'zlashtirishda u ilgari o'rganilgan qaratqich kelishigi qo'shimchasining yozilishi bilan taqqoslanadi va tushum kelishigi qo'shimchasi otning fe'l tomonidan boshqarilishini bildirishi aniqlanadi.

Qoidani bilib olish o'quvchilarda u haqdagi aniq tasavvurning mavjudligiga bog'liq. Qoida asosida hosil bo'lgan aniq tasavvur so'zlarda ifodalanadi. Shuning uchun o'quvchilardan qoidani quruq yodlab berish talab etilmasligi, balki so'zni to'g'ri yozishdagi xususiyatlar aniq material misolida qayta tushuntirilishi lozim.

Orfografik malaka ongli nutq faoliyatining avtomatlashgan komponentidir. Faoliyat avtomotlashishi uchun uzoq vaqt davomida maqsadga qaratilgan mashqlar bajarib boriladi. Orfografik mashqlar orfografik ziyraklik ko'nikmasini shakllantirishga tegishli o'rinda qoidani tadbiq qilishga, mashqlarning qismlari o'rtasidagi bog'lanishni belgilash, ularni umumiy yagona faoliyat sistemasiga kiritishga, o'quvchilar uchun qoidaning mohiyatini aniqlash va uni shakllantirishga qaratiladi. Qoidani tatbiq qilish davridagina uning mazmunini chuqurroq

o'zlashtiriladi.

Orfografik mashqlarga: 1) Grammatik-orfografik tahlil; 2) ko'chirib yozish; 3) diktant; 4) leksik-grammatik tahlil; 5) bayon kiradi. Grammatik-orfografik va leksik-orfografik tahlilda orfografiyaning grammatika yoki leksika bilan bog'lanishi, ko'chirib yozuv va diktantda o'quvchilar faoliyatini belgilaydigan omillar, xususan, ko'chirib yozuvda ko'ruv va qo'l-harakat o'quvi, diktantda eshituv o'quvi hisobga olinadi.

Ko'chirib yozuv ko'rib idrok qilingan so'z, gap, matnni yozma shaklda berishdir. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida husnixat va imlo qoidalariga rioya qilib, tuzatishlarga yo'l qo'ymay va tartibli, harflarni tushirib qoldirmay, o'rnini almashtirmay, tinish belgilarini to'g'ri qo'llab ko'chirib, yozuv ko'nikmasi shakllantirishi kerak. O'quvchilarda bu ko'nikmani hosil qilish maqsadida o'qituvchi alifbe davridan boshlab, ularga ko'chirib yozuvni izchillik bilan o'rgatib boradi.

O'quvchilardan ko'chirib yozuv ko'nikmasini shakllantirishga oid asosiy qoidalarda quyidagilar kiradi: 1. Ko'chirib yozishdan oldin ko'chiriladigan matnni yoki gaplarni yaxlit o'qib chiq. 2. Har bir gapdagi so'zlarni bo'g'inlarga ajratib, ichda bo'g'inlab ayt. 3. Ko'chirib yozganingni asliga solishtir.

Ko'chirib yozuv uchun so'z, alohida gap va kichik matndan foydalanish mumkin.

O'qituvchi qo'ygan maqsadga muvofiq holda, ko'chirib yozishdan oldin unga tayyorgarlik ko'riladi; bunda imlosi qiyin so'zlarni izohlab o'qish, so'z nima uchun shunday yozilishini asoslash, o'rganilgan qoida asosida yoziladigan so'zlarni aniqlash kabi mashqlardan foydalaniladi. Bu ko'nikmalar qanchalik shakllanganligini aniqlash maqsadida kontrol (tekshiruv) ko'chirib yozuv o'tkaziladi.

Ko'chirib yozuv mashqlari grammatik, leksik yoki so'z yasalishiga oid vazifalarni bajarish bilan birga olib boriladi. Bu imlo qoidasini tatbiq etishning yaxshi bilib olish imkonini beradi, chunki vazifaning xarakteri orfografik malakani

shakllantirishga nazariy asos bo'ladigan grammatik, fonetik bilimlarni faollashtirishni talab etadi. Bulardan tashqari, kompleks mashqlar orfografiya bilan birgalikda nutq o'stirish vazifalarini ham bajarish imkonini beradi. Kompleks mashqlarga misollar:

1. Ko'chirish. Asosdosh so'zlarni aniqlab, asosni ajratish.
2. Tushirib qoldirilgan qo'shimchalarni qo'yib ko'chirish, qanday qo'shimcha ekanligini aytish; yozilishini tushuntirish.
3. Matn mazmuniga mos so'zni qavs ichida berilgan so'zlar orasidan topib qo'yib ko'chirish. Shu so'z qaysi so'z turkumiga oid ekanini, uning yozilishini tushuntirish.
4. Aralash berilgan so'zlardan gap tuzish va yozish.
5. Tartibsiz berilgan gaplardan bog'lanishli matn tuzish.
6. Tanlab ko'chirish. (berilgan gaplardan yoki matndan muayyan bir so'z turkumi; ot va fe'ldan yo ot va otdan yoki sifat va otdan tuzilgan so'z birikmalarni ko'chiring).

Diktant eshitib idrok qilingan so'z, gap, matnni yozishdir. Orfografik mashq sifatida diktantning xilma-xil turlaridan foydalaniladi.

Ta'kidiy diktantdan qoidani tadbiq etish usullarini yaxshi bilib olish uchun foydalaniladi. Matnni yozishdan oldin, uni yozish jarayonida, izohli yozuvdagi kabi o'quvchilar so'zni qanday yozishni va nima uchun shunday yozilishini tushuntiradi.

O'z diktant yoki yoddan yozuvda o'rganilgan orfografik qoida asosida yoziladigan so'zlar bo'lgan matnni o'quvchilar o'zlari o'qib yodlaydi (ko'rib idrok qiladi) yoki o'qituvchi rahbarligida eshitib yodlaydi (idrok qiladi), keyin mustaqil ravishda o'zi-o'ziga diktovka qilib yozadi.

Izohli diktantda o'quvchilar gaplar yoki yaxlit matnni diktovka bilan yozganidan so'ng kerakli qoidalarni eslab, ayrim so'zlarning yozilishini tushuntirib, isbotlab beradi. Diktantning bu turida o'quvchilar yozganlarini birgalashib tekshiradi, bu o'rganilgan orfografik qoidalarga ularning diqqat

e'tiborini jalb etadi. Matnni yozish jarayonida ular tekshiriladigan qoida asosida yozilgan so'zlarning tagiga chizadilar; diktantni yozib bo'lgach, belgilangan so'zlarning to'g'ri yozilganini tekshiradilar.

Saylanma diktantda o'quvchilar diktovka qilingan gaplar yoki matnning hammasini yozmaydi, balki o'qituvchi topshirig'iga mos qisminigina (o'rganilgan qoida asosida yoziladigan so'zlarni, so'z birikmalarinigina) yozadi. Masalan, bosh harflar bilan yoziladigan so'zlarnigina yozish (1-sinf), tushum kelishigidagi so'zni u bog'langan fe'l bilan birga yozish (3-sinf) kabi. Saylanma diktant o'quvchilarda orfografik ziyraklikni o'stiradi.

Erkin diktant uchun uncha katta bo'lmagan 3-5 qismli (abzasli) matn tanlanadi. O'qituvchi avval matnni bir marta ifodali o'qib beradi (matn mazmuni yuzasidan suhbat o'tkazilishi, ayrim qoidalar eslatilishi ham mumkin); so'ngra matnning birinchi qismi qayta o'qib berilgach, o'quvchilar uning mazmunini yozadi. Bunda ularga mazmunini buzmay gap tuzilishini o'zgartirish, bir so'zni unga yaqin ma'noli so'z bilan qoidalarini mustahkamlashga xizmat qilishi bilan birga, o'quvchilar nutqini o'stiradi, fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi.

Rasm diktant predmet rasmini yoki o'zini ko'rsatib o'tkaziladi: predmet rasmi ko'rsatiladi, o'quvchilar uning nomini aytadi va yozib vergul qo'yadi, ish shunday davom etadi. (Birinchi so'z bosh harf bilan, qolganlari qoidaga ko'ra yozilishi eslatiladi.) Rasm diktantda o'rganilgan qoidani, ayniqsa, o'quv yili davomida o'rganiladigan imlosi qiyin so'zlarni to'g'ri yozishni puxtalash, shuningdek, ularni o'quvchilar qanday o'zlashtirganligini sinash maqsadida ko'zda tutiladi.

Tekshiruv yoki nazorat diktant yaqinda o'rganilgan va ilgari o'rganilib, mashqlar bilan mustahkamlangan qoidalarni o'quvchilar qay darajada o'zlashtirganligini aniqlash maqsadida o'tkaziladi. Avval matn bir marta o'qib beriladi, keyin gaplar agar gap 5-6 so'zli bo'lsa, 2-3 so'z diktovka qilib yozdiriladi.

O'qituvchi darsning maqsadi va malakani shakllantirish ustida ishlash bosqichini hisobga olgan holda, diktantning barcha turlaridan izchillik bilan foydalandi.

Bayon o'quvchilarning lug'atini boyitish, bog'lanishli nutqini o'stirishga qaratilgan orfografik mashq turlaridan biri hisoblanadi. Bayon orfografik mavzularni o'rganishning yakunlovchi bosqichida, o'quvchilar qoidalarini bilib olib, uni tadbiq qilishga o'rganganidan so'ng o'tkaziladi. Bayon yozganda o'rganilgan orfografik qoidalarni to'g'ri tatbiq etish ularni ongli o'zlashtirilganini ko'rsatadi.

15.3. Ona tilidan bilim, ko'nikma va malakalarni tekshirish

Dastur talablarini to'liq bajarish va amalga oshirish uchun, birinchi navbatda ona tilidan bilim, ko'nikma va malakalarni puxta egallash va takomillashtirib borish zarur. Yozuv ko'nikmalari savod o'rgatish jarayonida shakllanadi, keyingi bosqichlarda takomillashadi. Ona tilini egallash maktabda o'qitiladigan barcha predmetlarni muvaffaqiyatli o'zlashtirishning muhim sharti hisoblanadi. Ona tilini o'rganish jarayonida o'quvchilarda ilmiy dunyoqarash asoslarini shakllantirish masalasini hal qilishda maktabda ona tilini o'rgatishga asos bo'ladigan material alohida qimmatga ega. Materialning g'oyaviy yo'nalishi va badiiy ifodaliligi o'quvchilarning fikrlash faoliyatiga, his-tuyg'ulariga ta'sir etadi, atrof-muhit haqidagi bilimlarni kengaytiradi, tilga va uni yaratgan xalqqa qiziqishni tarbiyalaydi. o'quvchilarning umumiy taraqqiyot darajasini o'stiradi va ularning shaxsiy sifatleri, dunyoqarashining shakllanishiga ta'sir ko'rsatadi.

Ma'lumki, ta'lim tizimining barcha bosqichlari uchun o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarni tekshirish, nazorat qilish va baholashning optimal usullarini amalga oshirish vazifasi dolzarb masalalardan biri bo'lib kelmoqda. Ta'lim oluvchilarning bilim, malaka va ko'nikmalarini tekshirish, nazorat qilish va baholash masalasini to'g'ri talqin qilish uchun dastavval bilim, malaka va ko'nikma tushunchalari ustida qisqacha to'xtalamiz.

Bilim—odamlarning dunyoni bilib olish mahsuloti bo'lib u jamiyat qonun-qoidalari, hodisa va predmetlarning haqiqiyiligini o'rganish jarayonida shakllanadi.

Ko'nikma—ta'lim jarayonida egallangan mavjud bilimlarga tayanib, belgilangan maqsadga muvofiq bajarilgan barcha harakatlarning yig'indisi, yoki harakat (faoliyat)larning muvaffaqiyatli bajarish imkoniyatidir. Harakat (faoliyat)ni o'zlashtirish ko'nikma darajasigacha ko'tarilganda mehnat jarayoni bilan bog'liq u yoki bu harakat (faoliyat)ni bajarishga kirishishdan oldin, ijrochi ularning ketma-ketligi va amalga oshirish usullarini uzoq muddat davomida o'ylab ko'radi.

Ta'lim jarayonida ma'lum harakat (faoliyat)ni tez va to'g'ri bajarishda, mashqlar izchil davom ettirilib ko'nikma asta-sekin malaka darajasiga ko'tarila boradi, ya'ni malaka ko'nikmadan o'sib chiqadi. **Malaka**—konikmani mustahkamlash va takomillashtirishdek murakkab jarayon bo'lib, u bir xil sharoitlarning o'zida ma'lum harakat (faoliyat)larni ko'p marta qayta takrorlash natijasida shakllantiradi. Zarur harakat (faoliyat)ni yetarli miqdorda takrorlash keyinchalik ijrochiga ma'lum darajada uni o'ylab o'tirmasdan, juda tez, avtomat ravishda bajarishga imkon beradi, ya'ni faoliyatning faollashuvi sodir bo'ladi. Malaka qanchalik yuksak darajada shakllansa, ijrochi ishni shunchalik tez va sifatli bajaradi. Yuqorida ko'rsatilgan bilim, ko'nikma va malaka har qanday kasb kvalikatsion xarakteristikasining asosini tashkil qiladi.

Ta'lim oluvchilarning bilim, malaka va ko'nikmalarini tekshirishdan asosiy maqsad, u yoki bu o'quv dasturi materiallarini bolalar tomonidan o'zlashtirish darajasini, ularda malaka va konikmalarning shakllanganligini, mustahkamligini hamda ularni amalda qo'llay olishini nazorat qilishdan iboratdir.

O'zlashtirishni baholash o'quv dasturiga muvofiq, ma'lum talablar asosida o'quvchilarning bilim, malaka va ko'nikmalarini o'zlashtirish darajasi va sifatini aniqlashni ko'zda tutadi.

Test tizimi bo'yicha o'quvchilarning bilim, malaka va ko'nikmalarini nazorat qilish va baholashdan asosiy maqsad faqat mavjud kamchilik, nuqsonlarni aniqlashdan iborat bo'lmay, balki ularni keltirib chiqaruvchi sabablarni namoyon qilish hamda tuzatish choralarini ham ishlab chiqishdir. Bu ishda yuzakilikka, bir

tomonlamalikka yo‘l qo‘ymaslik uchun quyidagi pedagogik, psixologik va usuliy talablarni bajarish zarur

1. Bilim, konikma va malakalarni aniqlashni doimiyligini, tizimlilikini, uni o‘quv va mehnat faoliyatining turli qirralari bilan uyg‘unlashib borishini ta‘minlash.

2. Nazorat, tekshirish, hisobga olish va baholashga har tomonlama yondashish uchun o‘quv dasturi va rejasining barcha bo‘limlarini o‘z ichiga qamrab oluvchi test topshiriqlarini tuzishga erishish.

3. O‘quvchilarning aqliy va jismoniy mehnatga, o‘quv faoliyat natijalariga qiziqishini oshirish maqsadida pedagogik nazorat, tekshirish va baholashni o‘tkazishning shakl va turlarining xilma-xilligiga erishish va bu tadbirlarning ta‘limiylik, tarbiyaviylik funksiyasini amalga oshirishni taminlash.

Tekshirish, nazorat va baholash jarayoni har bir o‘quvchi (subyekt)ning ta‘lim sohasidagi butun faoliyati (yoki uning ma‘lum bir qismi)ni qamrab olishni, uning o‘quv mehnati sohasida erishgan natijalari bo‘yicha individualligini ta‘minlash lozim. Dars turlari uning didaktik maqsadiga ko‘ra belgilanadi, chunonchi: yangi materialni o‘rganish darsi, umumlashtiruvchi-takrorlash darsi, bilimlarning qanchalik o‘zlashtirilganini hisobga olish (tekshiruv) darsi va boshqalar. Har bir dars turi muayyan qurilishi bilan boshqasidan farqlanadi. Darsning didaktik maqsadi, turi va qurilishi o‘rtasida ma‘lum bog‘lanish mavjud. Muayyan bir darsning didaktik maqsadi o‘rganiladigan mavzuga va bu darsning darslar tizimida tutgan o‘rniga qarab belgilanadi. O‘qituvchi dasturda mavzuga ajratilgan soatlar sonini va o‘rganiladigan materialning xususiyatlarini hisobga olgan holda dars turini tanlab, qurilishini belgilaydi.

Dars qurilishida qat’iy andoza bo‘lishi mumkin emas. Biroq darsda uy vazifasini tekshirish, takrorlash, yangi materialni tushuntirish, mustahkamlash, uyga vazifa berish bosqichlariga rioya qilish tajribada o‘zini oqlayapti. Shunga qaramay, bularga ijodiy yondashish, darsning maqsadi va foydalaniladigan metodik usullariga asoslangan holda, darsni qaysi bosqich (yangi materialni

tushuntirish, mustaqil ishni bajartirish yoki uy vazifasini tekshirish)dan boshlashni o'qituvchining o'zi hal qilib, bosqichlar orasidagi ichki bog'lanish, har bir bosqichdagi ishlarning mazmunini aniq belgilab olish katta ahamiyatga ega ekanini unutmaslik kerak. Darsning barcha bosqichlarini bir jarayonga birlashtirish o'qituvchidan yuksak mahorat talab etadi.

Birinchi sinfdan boshlab o'quvchilar modul usulida mustaqil ishlashga o'rgatib borilsa, keyingi sinflarda ham shu kabi darslarni tashkil etish osonlashadi, chunki o'quvchilarda bu haqda ko'nikmalar hosil bo'la boradi. O'qituvchi dars davomida dam olish daqiqalarini ham uyushtirishi kerak.

Darsga qo'yiladigan umumiy talablar quyidagilar:

1. Ta'limiy talab. Har bir dars o'quvchiga qandaydir bilim berishi lozim. Har bir darsning asosiy maqsadi ham shu.

2. Tarbiyaviy talab. Bu har jihatdan komil shaxsni tarbiyalash demakdir.

3. Didaktik talablar. Bu darsni to'g'ri tashkil qilish: dars maqsadlarini, turini to'g'ri belgilash, darsdagi u yoki bu materialni o'quvchilarga yetkazib berish usullarini to'g'ri tanlash, o'quvchilar bilimini tekshirish va baholash shakillarini aniqlab olish demakdir.

4. Psixologik talablar. Bu talab shuni nazarda tutadiki, o'qituvchi o'z o'quvchilarining xarakter xususiyatini yaxshi bilishi juda katta ahamiyatga ega. O'z o'quvchilarining psixologik xususiyatlarini yaxshi bilgan o'qituvchigina to'laqonli dars uyushtirishi mumkin.

5. Gigiyenik talablar. Bu o'quvchilar salomatligi haqida qayg'urish demakdir. Sinfda yorug'lik, toza havo har doim yetarli bo'lishi lozim.

Boshqa fanlar kabi ona tili o'qitishning samaraliligi darsning sifatiga bevosita bog'liqdir.

Darsga qo'yilgan umumdidaktik talablar pedagogik adabiyotlarda keng yoritilgan. Ularni ona tili o'rgatishga tatbiq qilib, metodik aniqliklar kiritilsa, ona tili darslariga qo'yilgan talablar quyidagicha bo'ladi:

1. Yangi bilim berish, ularni nutq amaliyotiga tatbiq etish va o'quvchilarni tarbiyalash bir butun jarayondir.

2. Darsning aniqligi va ichki mantiqiyligi, uning maqsadga yo'naltirilganligi juda muhim.

3. Ona tili darsi, avvalo, o'quvchilar nutqi va tafakkurini o'stirish darsidir.

Yangi material o'rgatiladigan darsning mazmuni va mantiqiy o'rganiladigan til hodisasi hamda uning lingvistik mohiyatining bir-biriga ta'sir qilishiga ma'lum darajada sabab bo'ladi. O'qituvchi bu o'zaro bog'lanishni bilish va uni o'quvchilar bilan birga topshiriqlarni bajarish davomida asta ocha borishi muhimdir. Agar dars grammatik bilimlarni mustahkamlash, orfografik ko'nikmalarni shakllantirish maqsadni o'z oldiga qo'ysa, darsning mantiqiy shartlari asta murakkablashib borilgan mashqlar tizimini aks ettiradi. Bolalar biror imlo qoidasini yaxshilab bilib, o'rganib olishlari uchun bir-ikki mashq jamoaviy ravishda bajariladi. O'quvchilar mustaqilligi oshgach, mashqni mustaqil bajaradi. Darsda bajarilgan mashqlar o'rtasidagi bog'lanishni shakllantiradigan ko'nikmaning xususiyati ham sabab bo'ladi. O'quv materialininng mavzuga va darsning maqsadiga mos bo'lishi uning maqsadga yo'naltirilishini taminlaydi.

Maktabda dars o'quv-tarbiya jarayonini tashkil qilishning asosiy shakli hisoblanadi. Dars ta'lim tarbiyani amalga oshirishning eng qulay va eng zarur omilidir.

Ona tili darslarining turlari va qurilishi. Dars turlari uning didaktik maqsadiga ko'ra belgilanadi, chunonchi: yangi materialni o'rganish darsi, bilimni mustahkamlash darsi, umumlashtiruvchi takrorlash darsi, bilimlarning qanchalik o'zlashtirilganini hisobga olish (tekshiruv) darsi va boshqalar. Har bir dars turi muayyan qurilishi bilan boshqasidan farqlanadi. Darsning didaktik maqsadi, turi va qurilishi o'rtasida ma'lum bog'lanish mavjud. Muayyan bir darsning didaktik maqsadi o'rganiladigan mavzuga va bu darsning darslar tizimida tutgan o'rniga qarab belgilanadi. O'qituvchi dasturda mavzuga ajratilgan soatlar sonini va

o'rganiladigan materialning xususiyatini hisobga olgan holda, dars turini tanlab, qurilishini belgilaydi.

Ona tilini o'qitishda o'qituvchi bilan o'quvchining birgalikdagi faoliyatini tashkil etish shakllari, metodlari va usullari ta'lim tizimining takomillashuvi bilan bog'liq holda rivojlanib, yangilanib bormoqda.

XX asrning oxirgi yillariga qadar o'qitish metodlari sifatida tushuntirish, bayon metodi, suhbat metodi, analiz-sintez metodi, mustaqil ish metodi, induktiv va deduktiv metodlar ona tili ta'limi darslarini tashkil etishda ko'proq qo'llanib kelindi.

Bayon qilish metodi o'quvchilarni o'qituvchi bayonini kuzatib, tinglab borishga, faol bo'lishga undagan. O'qituvchining bayoni, ya'ni bayon qilish metodida grammatik mavzuning xususiyatidan kelib chiqib, o'qituvchi ma'lumotlarni o'z so'zlari bilan bayon qilib bergan.

Suhbat metodi o'qituvchidan mavzuning xususiyatini o'zida aks ettirgan o'quv materialini topishni, grammatik mavzuning muhim belgilarini aniqlash, ularning o'xshash va farqli jihatlarini ajratish, o'xshash va farqli jihatlariga qarab guruhlash, umumlashtirishga, xulosa chiqarishga yo'naltirilgan savollar tuzishni, ularni o'quvchilarga izchil etib borishni talab etadi.

Muammoli metod. Bunda suhbat davomida o'qituvchining topshirig'i bilan o'quvchining oldida biror muammo qo'yiladi va darsda muammoli vaziyat yaratiladi.

So'nggi yillar davomida ta'lim tizimiga an'anaviy metodlar bilan birga zamonaviy pedagogik texnologiya usullari kirib keldi. Ulardan ona tili ta'limi jarayonida foydalanish bo'yicha yutuqlar qo'lga kiritildi.

Mavzuni takrorlash va mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar:

1. Kichik yoshdagi o'quvchilar uchun sintaktik bilimlarni o'zlashtirishning ahamiyatini tushuntiring. Boshlang'ich sinflarda „Gap“ mavzusi materiallarini o'rganishdagi izchillikni asoslang.

2. Punktuatsiyani o'rgatish qaysi prinsipga asoslanadi?

3. Imlo qoidalarining ahamiyatini izohlang. Imlo qoidasi ustida ishlash jarayonining asosiy komponentlarini aniq misollar bilan tushuntiring.

4. Orfografik malakani shakllantirishda mashqlarning ahamiyatini tushuntiring.

5. Ona tili darslariga qo'yilgan asosiy talablar qaysilar?

6. O'quvchilarning ona tilidan bilim, ko'nikma va malakalarini tekshirish usullaridan biriga oid topshiriqlar tizimini ishlab chiqing.

8-MODUL. NUTQ O'STIRISH METODIKASI

16-MAVZU: KICHIK YOSHDAGI O'QUVCHILAR NUTQINI

O'STIRISH YO'LLARI VA VAZIFALARI

Tayanch so'zlar: *nutq, gap, gap ustida ishlash, gap bo'laklari, sintaksis, so'z birikmasi, morfologiya, gapning bosh bo'laklari, ichki nutq, tashqi nutq, og'zaki nutq, yozma nutq, nutq organlari, til ma'nolari, tilga sezgirlik, nutqning ifodaliligi,*

16.1. Nutq va uni o'stirish tushunchasi. O'quvchilar nutqiga qo'yilgan talablar

Boshlang'ich sinf o'quvchilari nutqiga qo'yiladigan talablardan biri ifodalilikdir. Nutqni ifodali qiladigan vositalardan biri o'xshatish bo'lib o'zbek tili o'ziga xos o'xshatishlarga juda boy. Masalan, quyidagi o'xshatishlarga e'tibor bering: *asalday shirin qovun, bo'zchining mokisiday yugurmoq, mulla mingan eshakday.*

Har bir til o'z mentaliteti, qadriyatlari, muqaddas biluvchi hodisalari, narsalari, hududiy o'ziga xos iqlim tabiati bo'ladi. Shulardan kelib chiqqan holda har bir tilning o'xshatishlari, iboralari, o'ziga xos bo'lishi tabiiy. N. Mahmudovning shu nuqtayi nazardan quyidagi fikrlari o'rinlidir: "Albatta o'xshatish etalonlarining ayrimlari turli xalqlar hayoti va madaniyatidagi umumiy jihatlarni ham ifoda etadi. Masalan, "*shirinlik*" belgisi rus, ukrain, ingliz, mo'g'ul, hind, o'zbek, turk, qozoq, qirg'iz va boshqa bir qancha tilda shakar, qand etalonlari

orqali ta'kidlanadi, ayni paytda "ozg'inlik" belgisi yapon tilida chivinning skeleti, vyetnam tilida qurigan sikada (gul), inglizchada benberiy pishlog'iga o'xshatilgan holda ifoda etiladi. O'zbek tilida esa *arvohday*, *cho'pday*, *chillakday* kabi etalonlar qo'llanadi. Ularning bari, albatta, obrazli milliy tafakkur hosilasidir".

Nutq - kishi faoliyatining turi, til vositalari (so'z, so'z birikmasi, gap) asosida tafakkurni ishga solishdir. Nutq o'zaro aloqa va xabar, o'z fikrini his-hayajon bilan ifodalash va boshqalarga ta'sir etish vazifasini bajaradi.

Yaxshi rivojlangan nutq jamiyatda kishi faoliyatining muhim vositalaridan biri sifatida xizmat qiladi. O'quvchi uchun esa nutq maktabda muvaffaqiyatli ta'lim olish qurolidir.

Nutq o'stirish nima? Agar o'quvchi va uning tildan bajargan ishlari ko'zda tutilsa, nutq o'stirish deganda tilni har tomonlama (talaffuzi, lug'ati, sintaktik qurilishini, bog'lanishli nutqni) faol amaliy o'zlashtirish tushuniladi. Agar o'qituvchi ko'zda tutilsa, nutq o'stirish deganda, o'quvchilar tilning talaffuzi, lug'ati, sintaktik qurilishi va bog'lanishli nutqni faol egallashlariga yordam beradigan metod va usullarni qo'llash tushuniladi¹. Shuning uchun ham grammatika va imlo dasturi tovushlar va harflar, so'z, gap, bog'lanishli nutq kabi qismlarni o'z ichiga olgan. Ona tili dasturining bo'limlari: "*Xat-savod o'rgatish va nutq o'stirish*", "*o'qish va nutq o'stirish*", "*Grammatika, imlo va nutq o'stirish*" deb nomlangan.

Nutq faoliyati uchun, shuningdek o'quvchilar nutqini o'stirish uchun bir necha shartga rioya qilish zarur:

1. Kishi nutqining yuzaga chiqishi uchun talab bo'lishi kerak. O'quvchilar nutqini o'stirishning metodik talabi o'quvchi o'z fikrini, nimanidir og'zaki yoki yozma bayon xohishini va zaruriyatini yuzaga keltiradigan vaziyat yaratish hisoblanadi.

¹ Рождественский Н. С., Кустарева В. А. Методика начального обучения русскому языку, «Просвещение», М., 1965, 289 - бет.

2. Har qanday nutqning mazmuni, materiali bo'lishi lozim. Bu material qanchalik to'liq, boy, qimmatli bo'lsa, uning bayoni shunchalik mazmunli bo'ladi. Shunday ekan, o'quvchilar nutqini o'stirishning ikkinchi sharti nutqqa oid mashqlarning materiali haqida, bola nutqi mazmunli bo'lishi uchun g'amxo'rlik qilish hisoblanadi.

3. Fikr tinglovchi tushunadigan so'z, so'z birikmari, gap, nutq oborotlari yordamida ifodalansagina tushunarli bo'ladi. Shuning uchun nutqni muvaffaqiyatli o'stirishning uchinchi sharti - nutqni til vositalari bilan qurollantirish hisoblanadi. Bolalarga til namunalarini berish, ular uchun yaxshi nutqiy sharoit yaratish zarur. Nutqni eshitish va undan o'z tajribasida foydalanish natijasida bolalarda ta'lim metodikasi asoslanadigan ongli ravishda "tilni sezish" shakllanadi.

Nutq o'stirishning metodik sharti nutqiy faoliyatning keng tizimini yaratish, ya'ni, birinchidan, yaxshi nutq namunasini idrok etish, ikkinchidan, o'rgangan til vositalaridan foydalanib, o'z fikrini bayon etish uchun sharoit yaratish hisoblanadi.

Bola tilni nutqiy faoliyat jarayonida o'zlashtiradi. Buning o'zi yetarli emas, chunki u nutqni yuzaki o'zlashtiradi. Nutqni egallashning qator aspektlari mavjud. Bular:

1. Adabiy til normalarini o'zlashtirish. Maktab bolalarni adabiy tilni sodda so'zlashuv tilidan, sheva va jargondan farqlashga o'rgatadi, adabiy tilning badiiy, ilmiy, so'zlashuv variantlari bilan tanishtiradi.

2. Jamiyatimizning har bir a'zosi uchun zarur bo'lgan muhim nutq malakalarini, ya'ni o'qish va yozish malakalarini o'zlashtirish. Bu bilan bola yozma nutqning xususiyatlarini, uning og'zaki-so'zlashuv nutqidan farqini bilib oladi.

3. O'quvchilar nutq madaniyatini takomillashtirish. Til kishilik o'rtasidagi eng muhim aloqa vositasidir. Tilning mana shu ijtimoiy ahamiyatidan kelib chiqib, maktabda o'quvchilarning nutq madaniyatiga alohida e'tibor beriladi.

Bu vazifalarni bajarish uchun o'qituvchi o'quvchilar bilan rejali ish olib borishi lozim. Buning uchun esa o'quvchilar nutqini o'stirish ustida ishlash tushunchasiga nimalar kirishini bilib olish muhimdir.

Nutq o'stirishda uch yo'nalish aniq ajratiladi: 1) *so'z ustida ishlash*; 2) *so'z birikmasi va gap ustida ishlash*; 3) *bog'lanishli nutq ustida ishlash*.

So'z, so'z birikmasi va gap ustida ishlash uchun lingvistik baza bo'lib leksikologiya (frazologiya va stilistika bilan birgalikda), morfologiya, sintaksis xizmat qiladi; bog'lanishli nutq esa logikaga, adabiyotshunoslik va murakkab sintaktik butunlik lingvistikasiga asoslanadi.

Ko'rsatilgan uch yo'nalish parallel olib boriladi: lug'at ishi gap uchun material beradi; so'z, so'z birikmasi va gap ustida ishlash bog'lanishli nutqqa tayyorlaydi. O'z navbatida, bog'lanishli hikoya va insho lug'atni boyitish vositasi bo'lib xizmat qiladi.

O'quvchilar nutqini o'stirish o'z metodik vositalariga ega, o'zining mashq turlari bor. Bulardan eng muhimlari bog'lanishli nutq mashqlari hisoblanadi.

Nutq o'stirishda izchillik to'rt shartni, ya'ni mashqlarning izchilligi, istiqboli, xilma-xilligi, xilma-xil mashq turlarini umumiy maqsadga bo'ysundirish ko'nikmasini amalga oshirish bilan ta'minlanadi. Har bir yangi mashq oldingisi bilan bog'lanadi va keyingisiga o'quvchilarni tayyorlaydi, umumiy maqsadga bo'ysungan holda yana qandaydir yangilik qo'shadi.

O'zbek xalqiga xos xususiyatlardan biri shundaki, ular so'zlayotgan gaplarining ma'nosiga mos iboralarni o'z o'rnida qo'llashadi, bu esa albatta, o'sha so'zlarning ta'sir kuchini yanada oshirishga xizmat qiladi. Ayniqsa, keksalarimizning biron gapi yo'qki, ibora va o'xshatishlarsiz sayqallanmagan bo'lsa. O'xshatishlar orqali gaplar jozibador, aniq tasavvur chizmalarini chiza oladigan, yetkazilmoqchi bo'lgan sezgilar aynan yetkaziladi. E'tibor bersak, og'ir sukunatni "o'lik chiqqan uyday" yoxud kutilmagan gapdan esankirash holatini "ustiga sovuq suv quyganday" kabi o'xshatishlar orqali ifodalanganda ongimizda

qanchalar aniq tasavvurlar hosil bo‘ladi. Halollik timsolini “ona sutiday” ta’rifidan ortiq aniqlikda izohlash mushkul bo‘lsa kerak.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari nutqini o‘xshatishlar bilan boyitish ishini uch bosqichga ajratish mumkin:

1. O‘quvchilarda o‘xshatish haqida tushuncha hosil qilish.
2. O‘qish kitobi darsliklari matnida uchraydigan o‘xshatishlar ustida ishlash, ularning ma’nosini tushuntirish.
3. O‘xshatishlarni o‘quvchilar nutqiga kiritishga doir mashqlar bajarish.

Boshlang‘ich sinflarda badiiy asar tilini tahlil qilish orqali o‘quvchilarda o‘z ona tiliga muhabbat hissi, badiiy asarni ongli o‘qish ko‘nikmasi o‘stiriladi, asar g‘oyasini chuqur idrok etishga zamin hozirlanadi, o‘quvchilar nutqi rivojlantiriladi.

O‘qish kitobi darsliklarida berilgan ertaklarda o‘xshatishlar, jonlantirish va mubolag‘alardan foydalanilgan. O‘quvchilarga ularni izohlab berish, keyinchalik matndan toptirish, qayta hikoyalashda ulardan nutqlarida foydalanishga o‘rgatish zarur.

Asar o‘qib bo‘lingach, badiiy til vositalari ustida ishlanadi. Chunki ularning ma’nosi kontekstdan, asar mazmunidan anglashiladi. Ayniqsa, masallarda allegorriyani ochishda ko‘chma ma’noli so‘zlardan ko‘p foydalaniladi. Ular bolalarga masal mazmunini tushunishga xalal bergani uchun ayrim ko‘chma ma’noda ishlatilgan so‘zlar asarni o‘qishdan oldin tushuntiriladi.

3-sinf “O‘qish kitobi” dan o‘rin olgan **“Ayamajiz”** (*Qudrat Hikmat*) she’rida *“Bo‘ralar qor kapalak”*, *“Bog‘lar sokin mizg‘ishar, Misoli oq kapalak”*, *“Muz oynalar sovuq yeb”* misralarida o‘xshatish, jonlantirish; *“Saxiy ona tabiat”*, *“quchog‘ida havo sof”* misralarida metafora; *“Ayamajiz izg‘iydi, Ko‘chalarda tutoqib, Shox-shabbani tortqilar, Yalmog‘izdek yutoqib”* kabi misralarda jonlantirish va o‘xshatishlar qo‘llangan. Bular ustida ishlaganda quyidagicha savol-topshiriqlardan foydalanish mumkin:

-
1. *Shoir qorni nimaga o'xshatadi?* (oq kapalakka).
 2. *Ayamajizni nimaga o'xshatadi?* (Yalmog'izga).
 3. *“Muz oynalar sovuq yeb” misrasini qanday tushunasiz? Oyna sovuq qotadimi?*

4-sinf “O‘qish kitobi”dagi matnlarda ham o‘xshatish ko‘p uchraydi. Ayniqsa “Bahor ta’rifida” matnida juda go‘zal o‘xshatishlar qo‘llangan. Jumladan quyidagi gaplarga e’tibor beraylik:

*Mag‘rur turnalar ko‘kda ovozini baralla yangratmoqda, **tizilgan tuya karvoni-dek** uchmoqda.*

*Kaklik xushovoz bilan sayrab, qah-qah urib kulmoqda, uning tumshug‘i **qon kabi qizil**, qoshi esa qop-qora.*

*Qora qarg‘a tumshug‘ini ko‘pirtirib qag‘illaydi, uning ovozi **tantiq qizning ovozi kabi yoqimsiz**.*

Bu o‘xshatishlar ustida ishlashda quyidagi savollardan foydalanish mumkin:

1. Uchayotgan turnalar nimaga o‘xshatilyapti? Nima uchun?
2. Kaklikning tumshug‘i nima uchun qonga o‘xshatilyapti? Uning qoshini nimaga o‘xshatish mumkin?
3. Tantiq deganda nimani tushunasiz? Nima uchun qarg‘aning ovozi tantiq qizning ovoziga o‘xshatilyapti?

Darslikagi G‘afur G‘ulom qalamiga mansub “Ola buzoq” she’rida ham buzoqni tasvirlash uchun chroyli o‘xshatishlardan foydalanilgan. Quyida mazkur she’rdagi o‘xshatish qo‘llangan misralarni keltiramiz:

*Tili **xuddi lola yaprog‘i**,
Safasargulday **tikka qulog‘i**.
Olxo‘riday **quralay ko‘zi**,
Bosvoldiday **cho‘zinchoq yuzi**.
Baqbaqasi **marjon osganday**,
Tumshug‘iga **chakich bosganday**.*

Mitemirning “Tut” she’rida ham o‘ziga xos o‘xshatishlar qo‘llangan.

*G'arq pishibti tut,
Rangi go'yo sut.
Ta'mi ham naq bol,
Ko'rmaysan zavol.
Terib-terib ye,
Cholga quluq de
Shu-da bog'bon chol,
Mehnati halol.
Bag'ishlar shifo
Davodan davo
Gapning sirasi...
Tonglar yorug'i
Tuproq shirasi,
Quyosh yallig'i –
Shu nuqra tutda,
Bol bilan sutda
To'yib-to'yib ye
Cholga rahmat de.*

Boshlang'ich sinflarda o'xshatishlar ma'nosini izohlashda Nizomiddin Mahmudov hamda Durдона Xudoyberganovalarning “O'zbek tili o'xshatishlarining izohli lug'ati” dan foydalanish mumkin.

Boshlang'ich sinflarda adabiy tushunchalar va badiiy vositalar ustida ishlash o'quvchilarning ijodiy tafakkurini o'stirishga, ularda jonlantirish, o'xshatish, mubo-lag'a kabi adabiy tushunchalar yuzasidan dastlabki tasavvur hosil qilishga yordam beradi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilariga o'z nutqida o'xshatishlardan foydalanishga o'rgatish uchun quyidagi topshiriqlardan foydalanish mumkin.

1. Nuqtalar o'rniga o'xshatish mazmuniga mos so'zni qo'yib o'qing.

... day tiniq ko'l, ...day beozor odam, ...day qattiq non.

2. Ikki ustunchadagi soʻzlardan foydalanib oʻxshtishlar hosil qiling.

qoʻy	odam
kaft	tosh
shisha	suv
yoqut	gilos
asal	qovun
zahar	qalampir

Bu soʻzlardan oʻxshatish hosil qilish uchun oʻquvchilar ular orasidagi oʻxshah belgini bilishi kerak. Shuning uchun oʻqituvchi oʻquvchilar bilan quyidagicha savol-javob oʻtkazadi:

Oʻqituvchi: – Oʻquvchilar, odam qoʻyga nimasi bilan oʻxshashi mumkin?

Oʻquvchilar: – Yuvoshligi bilan?

Oʻqituvchi: – Demak, qoʻy va odam soʻzlari ishtirokida qanday oʻxshatish qilish mumkin?

Oʻquvchilar: – Qoʻyday yuvosh odam deyish mumkin.

Oʻqituvchi: – Tosh kaftga nimasi bilan oʻxshaydi?

Oʻquvchilar: – Silliqligi bilan.

Oʻqituvchi: – Suv shishaga nimasi bilan oʻxshaydi?

Oʻquvchilar: – Tiniqligi bilan.

Oʻqituvchi: – Oʻquvchilar yoqut nimaligini bilasizlarmi?

Oʻquvchilar javob berolmasa, oʻqituvchi yoqutning nimaligini tushuntiradi: Yoqut – qizil rangli qimmatbaho tosh. (Yoqutning rasmini koʻrsatadi.)

Oʻqituvchi: – Gilos yoqutga nimasi bilan oʻxshar ekan?

Oʻquvchilar: – Qizilligi bilan.

Oʻqituvchi: – Qovun asalga nimasi bilan oʻxshaydi?

Oʻquvchilar: – Shirinligi bilan.

Oʻqituvchi: – Qalampir zaharga nimasi bilan oʻxshaydi?

O'quvchilar: – Achchiqligi bilan?

3. Nuqtalar o'rniga quyida berilgan o'xshatishlardan mosini qo'yib yozing.

1. Ko'm-ko'k Shohimardon tog'lari ... tovlanadi. 2. ... yigit ketmon bilan yer ag'daryapti. 3. Azim bilan Sobir ... qadrdon. 4. Nasiba ... qizarib ketdi. 4. Sinfda bolalar ... g'uvullaydi. 5. Dengiz botib borayotgan quyosh nurlaridan ... tovlanadi. 6. Qahhor aka bu tog'larni ... biladi. 7. Kema ... chayqaladi. 8. Buloqdan ... tiniq suv oqib chiqadi. 9. Osmonda yulduzlar ... sochilib ketgan, juda ko'p edi. 10. Nafisaning yuzi ... oqarib ketdi.

Foydalanish uchun o'xshatishlar: *ayiqday baquvvat, aka-ukadek, beshikday, anorday, ariday, besh qo'lday, billurday, zumratday, atlasday, bodroqday, bo'zday.*

4. Berilgan matndagi gaplarga quyidagi o'xshatishlardan mosini kiritib yozing.

O'lkamizga ... bahor kirib keldi. Janubdan ... turnalar uchib keldi. Daraxtlar oq, pushti ... ga burkandi. Qir-u dalalarga Daryo va anhorlarda suvlar ... oqmoqda. Osmonni tez-tez ... bulutlar qoplaydi va ... yomg'ir quyadi.

Foydalanish uchun o'xshatishlar: *tuya karvonidek tizilib, harirday yopinchiqlar, kelinchakdek bezanib, toychoqday pishqirib, yashil gilam to'shalganday, sevinchi-dan yig'laganday, qalin ko'rpaday.*

5. Quyidagi o'xshatishlardan foydalanib gap tuzing.

Dumdek ergashib yurmoq, durday tishlar, yelday uchmoq, yelimday yopishmoq, zilday og'ir, zig'irday kichik, ipakday mayin, kamalakdek tovlanmoq, kaftday tekis, kelinchakdek bezanmoq, kiyikday chaqqon, ko'z qorachig'iday asramoq, marjonday tizilmoq.

6. Quyidagi so'zlarni o'xshatish yo'li bilan tasvirlang.

Namuna: *qovun – asalday shirin qovun*

Soch, suv, husayni, yostiq, it, ko'z, havo, qorin, pichoq, bug'doy.

7. Quyidagi o'xshatishlarni to'ldiring.

Namuna: *Qorday oppoq ko'ylak.*

Qorday..., toshday..., shamolday..., shishaday..., tandirday..., xumday..., buzoqday..., oltinday..., kumushday..., yoqutday..., asaldek..., itday..., onaday ..., osmonday..., otning qashqasiday ..., ota-onaday ..., ohanraboday

8. Matndagi ajratib ko‘rsatilgan so‘zlar oldidan o‘xshatish keltirib yozing. *O‘lkamizga saxovatli kuz kirib keldi. Daraxlar bargi **sariq** tusga kirdi. Salqin kechalar, ertalab maysa ko‘katlar, dov-daraxtlar bargini bezaydigan **shudringlar** kuz kelganidan darak bermoqda. Ariqlardagi suv **tiniq** bo‘lib qoldi.*

Kuzning birinchi oyi mevalar, sabzavot mahsulotlari, qovun-tarvuzlar serob bo‘lishi bilan dillarga quvonch baxsh etadi. Daraxtlarda noklar, shaftolilar, olmalar, toklarda uzumlar **tovlanadi**. Polizlardan **pishgan** qovunlarning hidi anqiydi.

*Bu davrda paxta dalalari ham o‘ziga xos manzara kasb etadi. Paxtalar **ochiladi***

Maktabda o‘quvchilar nutqini o‘stirishga ona tili o‘qitishning asosiy vazifasi deb qaraladi. Nutq o‘stirish faqat ona tili va o‘qish darslarininggina emas, balki o‘quv rejasidagi barcha fanlar (tabiatshunoslik, matematika, mehnat, tasviriy san’at, ashula darslari)ning, shuningdek, sinfdan tashqari o‘tkaziladigan tadbirlarning ham vazifasidir.

Nutq turlari. Kishilar tildan fikr bayon qilish quroli sifatida foydalanadilar. Ular o‘z fikrlarini ovoz bilan - eshittirib bayon qilishdan oldin u haqda o‘ylab oladilar. Bu **ichki nutq** hisoblanadi. Ichki nutq eshittirilmagan va yozilmagan, “o‘ylangan” (fikrlangan) nutqdir, bu nutq fikrlovchi kishining o‘ziga qaratiladi.

Tashqi nutq tovushlar yordamida eshittirilib yoki grafik belgilar bilan yozilib, boshqalarga qaratilgan nutqdir. Ichki va tashqi nutqning fiziologik tabiati bir xil; farqi - tashqi nutqda nutq organlarining harakati natijasida tovush chiqariladi yoki yozib bayon etiladi; ichki nutqda nutq organlarining harakati tovushsiz yuzaga keladi.

Ichki nutq materialni tushunish va yodda saqlashga yordam beradi, tashqi nutqni o‘stirishda birdan-bir zaruriy vosita hisoblanadi. O‘ylash, fikr yuritish ichki

nutq asosida bo‘ladi. Ichki nutq o‘quvchini tashqi nutqqa, javobgarlikni his qilib gapirishga o‘rgatadi. Ichki nutq jarayonida o‘ylash o‘quvchining nutqi va tafakkurining o‘shida muhim vositadir.

Maktabda o‘quvchilarning tashqi nutqigina emas, balki ichki nutqi ham o‘stiriladi. Bolalar ichda o‘qishga o‘rganadilar va ichki nutqda materialni o‘zlashtiradilar, turli vazifalarni o‘zlari hal qiladilar, asosiysi - o‘zlarining og‘zaki va yozma fikrlarini tayyorlab oladilar.

Fikrni ifodalash usuliga ko‘ra nutq **og‘zaki** va **yoзма** bo‘ladi. Og‘zaki nutq yozma nutqdan quyidagicha farqlanadi: og‘zaki nutq tovush nutqi, yozma nutq esa grafik nutqdir. Og‘zaki nutqda eshitish sezgisi, yozma nutqda esa ko‘rish va motor-harakat (qo‘l harakati) sezgisi asosiy o‘rin tutadi. Og‘zaki nutq ham, yozma nutq ham kishilarning o‘zaro aloqa quroli sifatida xizmat qiladi, ammo og‘zaki nutq aniq hayotiy sharoitda, bevosita aloqa jarayonida yuzaga keladi; yozma nutqdan bevosita, aniq sharoitdan ajratilgan holda ham, kishi ishtirokisiz ham foydalaniladi.

Og‘zaki nutq ko‘pincha dialog tarzida, yozma nutq esa monolog tarzida bo‘ladi. Yozma nutq logik izchillikka rioya qilgan holda, ayrim til shakllarini tushirib qoldirmay, ortiqcha takrorga yo‘l qo‘ymay bayon qilishni talab etadi, shuning uchun yozma nutq ancha murakkab va mavhum hisoblanadi.

O‘quvchilar nutqiga quyilgan talablar

O‘quvchilar nutqini o‘stirishda aniq belgilangan bir qator talablarga rioya qilinadi:

1. *O‘quvchilar nutqi mazmundor bo‘lsin.* Hikoya yoki insho o‘quvchilar uchun yaxshi ma’lum bo‘lgan dalillar, ularning kuzatishlari, hayotiy tajribalari, kitoblardan, rasmlardan, radioeshittirish va teleko‘rsatuvdan olgan ma’lumotlari asosida tuzilsagina mazmunli bo‘ladi. Bolalar bilmagan narsa, ko‘rmagan voqea-hodisalar haqida yetarli tayyorgarliksiz so‘zlashga yo‘l qo‘yilsa, nutq kambag‘al, mazmunsiz chiqadi.

Nutq o‘stirish metodikasi hikoya, insho uchun materialni puxta tayyorlashni, ya’ni material yig‘ish, uni muhokama qilish, to‘ldirish, asosiy mazmunini ajratish, zaruriy izchillikda joylashtirishni talab qiladi. Albatta, bunda o‘quvchilarning yosh xususnyatlari va qiziqishlari ham hisobga olinadi.

2. *Nutqda mantiqiylik bo‘lsin.* o‘quvchilar nutqi mantiqan to‘g‘ri bo‘lishi, fikr izchil, asosli bayon etilishi, asosiy o‘rinlar tushirib qoldirilmasligi va o‘rinsiz takrorga, mavzuga taalluqli bo‘lmagan ortiqchalikka yo‘l qo‘yilmasligi talab etiladi. Nutqning mantiqiyliги narsa, voqea-hodisalarni yaxshi bilish bilan belgilanadi, mantiqiy xato esa material mazmunini aniq bilmaslik, mavzuni o‘ylamasdan noqulay tanlash natijasida kelib chiqadi. Bu ikki talab nutqning mazmuni va qurilishiga taalluqlidir. Nutqni til jihatidan shakllantirishga oid talablar ham mavjud.

3. *Nutq aniq bo‘lsin.* O‘quvchi dalillar, kuzatishlar, taassurotlarini haqiqatga mos ravishda oddiy bayon etibgina qolmay, shu maqsadning eng yaxshi til vositalaridan (so‘z, so‘z birikmasi, gaplardan) foydalangan holda, maxsus tasvirlar bilan ifodalashga o‘rgansin.

4. *Nutq til vositalariga boy bo‘lsin.* Mazmunni aniq ifodalash uchun o‘quvchi nutqi til vositalariga boy bo‘lishi, u har qanday vaziyatda ham kerakli sinonimlardan, xilma-xil tuzilgan gaplardan mazmunga eng mosini tanlab foydalana olish ko‘nikmasiga ega bo‘lishi zarur. Albatta, boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga til boyligi yuzasidan yuqori talab qo‘yib bo‘lmaydi, ammo o‘qituvchi o‘quv ishlarida ularning so‘z boyligini oshirib borishni har vaqt ko‘zda tutishi kerak.

5. *Nutq tushunarli bo‘lsin.* Og‘zaki nutq eshituvchiga, yozma nutq esa uni o‘quvchiga tushunarli bo‘lishi zarur. So‘zlovchi yoki yozuvchi nutqini eshituvchining yoki o‘quvchining imkoniyatini, qiziqishini hisobga olgan holda tuzsa, uni hamma birdek, hech qiyinchiliksiz tushunadi.

6. *Nutq ifodali bo‘lsin.* Agar nutq ifodali, ya’ni jonli, chiroyli, ishontiradigan bo‘lsa, eshituvchiga yoki o‘quvchiga ta’sir

etadi. Ogʻzaki nutq eshituvchiga intonatsiya orqali taʼsir etsa, ogʻzaki nutq ham, yozma nutq ham tinglovchi va oʻquvchiga hikoyaning umumiy ruhi, dalillar, tanlangan soʻzlar, ularning emotsionalligi, tuzilgan jumla, iboralar yordamida taʼsir etadi. Nutqning tushunarli va ifodali boʻlishi har qanday shevaga xos va ortiqcha soʻzlardan sof boʻlishini taqozo etadi.

7. *Nutq toʻgʻri boʻlsin.* Maktab uchun nutqning adabiy til normalariga mos - toʻgʻri boʻlishi alohida ahamiyatga ega. Yozma nutq grammatika, imlo va punktuatsiya jihatidan, ogʻzaki nutq esa orfoepik jihatdan toʻgʻri tuzilishi talab etiladi. Nutqning toʻgʻri, boʻlishi uchun soʻz tanlash va nutq logikasi katta ahamiyatga ega.

Yuqorida sanab oʻtilgan talablar oʻzaro bir-biri bilan uzviy bogʻliq boʻlib, maktab ishlari tizimida kompleks ravishda amalga oshiriladi.

Oʻquvchilar nutqini oʻstirishda mashgʻulotning boshqa turlari bilan bogʻliqligi. Oʻquvchilar nutqini oʻstirish boshqa oʻquv predmetlaridan oʻtkaziladigan mashgʻulotlar bilan ham uzviy ravishda bogʻlanadi. Ona tili darslarida oʻquvchilar til yordamida tabiat va kishilar hayoti haqida bilim oladilar; ular kuzatishni, oʻylashni va koʻrganlari, eshitganlari, oʻqiganlari haqida toʻgʻri bayon qilishni oʻrganadilar. Ona tili darslari bolalar lugʻatini boyitishga samarali yordam beradi, nutqni toʻgʻri tuzishni oʻrgatadi.

Oʻqish darsi va u bilan bogʻliq holda olib boriladigan kuzatish, ekskursiya oʻquvchilarga tabiat hodisalari, kishilar hayoti va mehnati haqida, axloq qoidalari, boshqa kishilar bilan muomala qilish haqida bilim beradi; bu darslarda bolalar nutqiga, uni shakllantirish va oʻstirishga keng imkoniyat mavjud. Sheʼr, maqolalarni oʻqish, oʻqilganlarni qayta hikoyalash, ekskursiyada, predmet va tabiat hodisalarini kuzatish vaqtida koʻrganlarini hikoya qilish oʻquvchilar ogʻzaki nutqini oʻstirish vositasidir. Ona tili darslarida esa yozma nutqni oʻstirish uchun keng imkoniyatlar mavjud. Grammatikani oʻrganish va oʻqish darslarida

o'quvchilar bajaradigan so'z birikmasi, gap tuzish, bayon, inshoga doir turli xil mashqlar nutqiy malakalarni egallashda ularga yordam beradi.

Grammatika va to'g'ri yozuv darslarida tilni maxsus o'rganish bilan bolalar alohida tovush, bo'g'in, so'z va gaplarni eshitishga va aytishga o'rganadilar. Ular narsa, harakat, belgi bildirgan ko'pgina so'zlarni, shuningdek, tovush, harf, bo'g'in, so'z, o'zak, so'z yasovchi, shakl yasovchi, qo'shimcha, so'z turkumi, ot, sifat, fe'l, son, olmosh, bog'lovchi, gap, gap bo'lagi, bosh bo'lak, ikkinchi darajali bo'lak, darak gap, so'roq gap, undov gap, turlanish, bosh kelishik singari juda ko'p yangi atamalarni bilib oladilar.

Boshlang'ich sinflardagi boshqa darslarda ham o'quvchilar nutqi xilma-xil so'zlar bilan boyitiladi. Kuzatish va ko'rgazmali qurollar bu darslarda ham bilim olish, tushunchalarni shakllantirish vositasi hisoblanadi.

Matematika darslarida bolalar yangi tasavvur va tushunchalar, juda ko'p so'z va atamalar bilan o'z nutqlarini boyitadilar, sodda va qo'shma gap tuzishga o'rganadilar: 5 soni 3 sonidan katta ($5 > 3$) yoki uch soni besh sonidan kichik ($3 < 5$); bitta o'nlikka ikkita o'nlik va 5 ta birlikni qo'shsak, uchta o'nlik va 5 ta birlik hosil bo'ladi ($10 + 25 = 35$) va hokazo.

Masala yechish jarayonida esa ular shu vaqtgacha o'z nutqlarida ishlatib kelgan *bo'ladi, qoladi, hosil bo'ladi, teng* kabi so'zlarning yangi ma'nosini bilib oladilar; ...*bizga ma'lum, masalada so'ralyapti* kabi so'z birikmalarini ishlatishga o'rganadilar.

Matematika darslari o'quvchilarning bog'lanishli nutqini o'stirishda muhim ahamiyatga ega. Ular masalani yechishda savolga to'liq javob berishga, atamalarni to'g'ri ishlatib, qoidalarni o'z saviyalariga mos ravishda aniq shakllantirishga o'rgatiladi. Bular, o'z navbatida, o'quvchilar nutqini boyitish va faollashtirish vositasi hisoblanadi.

Bog'lanishli nutq ko'nikmalarini egallashga masala yechish bilan bog'liq holda olib boriladigan ishlar, ayniqsa, masala tuzishga o'rgatish mashqlari samarali ta'sir ko'rsatadi. Masala o'qib eshittirilgandan so'ng, o'quvchilar uning asosiy

mazmunini eshitib idrok etishga, to'g'ri, qisqa va aniq qayta aytib berishga o'rgatiladi. Masala tuzishga o'rgatish esa mantiqiy izchil, muhokama elementlari bilan kichik hikoya tuzish imkoniyatini beradi. Bu mashq o'quvchidan faollikni va mustaqillikni talab etadi, bolaning bilish faolligi va mustaqilligini oshirish esa uning umumiy rivojlanishida va tarbiyaviy maqsadda juda muhimdir. Masala tuzish kichik hikoya tuzishdir. Masalaning hikoyadan farqi shundaki, unda nimadir noma'lum bo'lib, uni topish uchun ma'lum so'roqqa javob berish talab etiladi. O'quvchi rasm asosida *«Daraxtga uchta chumchuq qo'ngan edi, yana ikkita chumchuq uchib kelib qo'ndi. Daraxtda nechta chumchuq bo'ldi?»* masalasini tuzadi. Bu masalani yechishda o'quvchilar daraxtga qo'ngan chumchuqlar sonini bilish uchun nima qilish kerakligini o'ylaydilar, muhokama qiladilar. Masalani yechish uchun aniq izchillikda muhokama yuritish va tushuntirish bilan bolalar o'z fikrlarini matematika tilida aniq va bog'lanishli bayon etishga o'rganadilar.

Shunday qilib, matematika darslarida o'qituvchi bolalar lug'atini boyitish, turli xil gap, bog'lanishli nutq va bayon, muhokama elementi mavjud bo'lgan hikoya tuzish ustida ishlaydi. O'qituvchi matematika tili xususiyatlarini o'zlashtirishga ko'maklashish bilan bog'liq holda, o'quvchilar tafakkurini, nutqini o'stiradi. O'qituvchi matematik mazmunga emas, balki shu mazmunni bolalar nutqida to'g'ri shakllantirishiga ham e'tibor bersa, bu darslarda o'quvchilar egallaydigan bilim haqiqiy va ular nutqining o'sishi uchun samarali vosita bo'ladi. *“Fikrni aniq shakllantirishni talab qilish, masala shartini ongli takrorlatish, mustaqil masala tuzdirish va savollar yordamida masalani yechish yo'lini tushuntirish ko'nikmasi ustida ishlash o'quvchilarda qayta hikoyalash, insho va muhokama qilish madaniyatini o'stiradi”*².

O'quvchilar tabiatshunoslik darslarida va ekskursiya vaqtida ko'rgan narsalarini o'qituvchi yordamida guruhlaydilar, ularni o'zaro taqqoslab, o'xshash va farqli tomonlarini topib aytadilar. Bular, o'z navbatida, tabiatga oid ayrim

² Рождественский Н. С., Кустарева В. А. Методика начального обучения русскому языку, «Просвещение», М., 1965, 297-бет.

tushunchalarni aniq bilib olishga imkon beradi va tafakkurni o‘stiradi. Tabiat hodisalari va predmetlarni idrok etish bilan bolalar ongida tabiatshunoslikka oid tushunchalar hosil bo‘ladi. Bu tushunchalar ta’lim jarayonida yo narsalarni (*daraxt, olma, shaftoli, o‘rik, olxo‘ri, gul, o‘t* kabi), yoki ularning belgisini (*mevali, mevasiz; achchiq, nordon, shirin; qizil, oq* kabi), harakatini (*daraxt o‘sadi, qush uchadi, bulbul sayraydi* kabi) ifodalovchi so‘zlar bilan bog‘lanadi.

Mehnat va rasm darslari ham, jismoniy tarbiya va ashula darslari ham, shuningdek, darsdan tashqari mashg‘ulotlar ham o‘quvchilar nutqi va tafakkurini o‘stirishga imkon beradi.

O‘quvchilar nutqini o‘stirishda o‘qituvchining nutq madaniyati katta ahamiyatga ega. O‘qituvchi barcha darslarda, sinfdan va maktabdan tashqari mashg‘ulotlarda faqat orfoepik talaffuz va adabiy til normalariga rioya qilgan holda ifodali, ta’sirli so‘zlashi, shuningdek, har doim o‘quvchi daftariga barcha hujjatlarga: husnixat va imlo qoidalariga rioya qilgan holda yozishi zarur. Bu bilan u bolalarni ifodali so‘zlashga, xatosiz, chiroyli yozishga o‘rgatadi, tilga sezgirlikni uyg‘otadi.

16.2. Nutq - o‘quvchilar tafakkurini o‘stirishda muhim vosita

Nutq fikrni bayon etish vositasi bo‘libgina qolmay, uni shakllantirish quroli hamdir. Fikr nutqning psixologik asosi vazifasini bajaradi, uni o‘stirish sharti esa fikrni boyitish hisoblanadi. Aqliy faoliyat tizimini egallash asosidagina nutqni muvaffaqiyatli o‘stirish mumkin. Shuning uchun o‘quvchilar nutqini o‘stirishda materialni tayyorlash, takomillashtirish, mavzuga tegishlisini tanlash, joylashtirish va mantiqiy operastiyalarga katta ahamiyat beriladi.

Tafakkur til materiali yordamida nutqiy shakllantirilsa va bayon etilsagina muvaffaqiyatli o‘sadi. Tushuncha so‘zlar yoki so‘z birikmalari bilan ifodalanadi, shunday ekan, tushuncha til vositasi bo‘lgan so‘zda muhim aloqa materialiga aylanadi. Kishi tushuncha ifodalaydigan so‘z (so‘z birikmasi)ni bilsagina, shu tushunchaga asoslangan holda, tashqi nutqda fikrlash imkoniga ega bo‘ladi.

Nutqda fikr shakllantiriladi, shu bilan birga, fikr nutqni yaratadi. «Nutq tafakkur bilan chambarchas bog‘langandir. Nutq bo‘lmasa, tafakkur ham bo‘lmaydi, til materialli bo‘lmasa, fikrni ifodalab berib bo‘lmaydi»³.

Fikrni nutqiy shakllantirish uning aniq, tushunarli, sof, izchil, mantiqiy bo‘lishini ta‘minlaydi. Tilni egallash shu tilning fonetikasini, lug‘at tarkibini, grammatik qurilishini bilib olish, fikrni takomillashtirish uchun, tafakkurni o‘stirish uchun shart-sharoit hozirlaydi. Bilimlar, dalillar, har xil axborotlar tafakkurning ham, nutqning ham materialidir. Nutq tafakkur jarayonini o‘rganishning muhim vositasi bo‘lib xizmat qiladi. Nutqdan o‘quvchi fikriy rivojining asosiy o‘lchovlaridan biri sifatida foydalaniladi. O‘quvchining barcha predmetlardan materialni o‘zlashtirishi va umumiy aqliy rivojlanish haqida fikr yuritganda, u yoki bu mavzuni bola o‘z nutqida (yozgan inshosida, axborotida, qayta hikoyalashda, savollarga bergan javobida) qanday bayon eta olishiga qaraladi.

Nutq ikki ko‘rinishga ega – og‘zaki va yozma nutq. Bular o‘zaro uzviy bog‘langan bo‘lsa ham, har birining o‘ziga xos xususiyati bor. Og‘zaki nutqda tovuchlar, so‘zlar nutq orqali talaffuz qilinsa, eshitish a‘zolari orqali qabul qilinadi. Shuning uchun o‘quvchilarning og‘zaki nutqini o‘stirishida, avvalo ularning nutqidagi kamchiliklar sabablarini aniqlash, uni bartaraf etish yo‘llarini izlab topishimiz kerak.

Chiroyli so‘zlashni, savodli, to‘g‘ri yozishni, o‘z fikrini ravon va aniq bayon etishni bilmagan yoki etolmagan o‘quvchi bilimlarni muvafaqqiyat bilan o‘zlashtira olmaydi. Har bir insonning nutqi chiroyli, mukammal, talaffuzi aniq, ravon bo‘lsa, fikrlash doirasi keng, idrok qilishi ham teran bo‘ladi. Nutq orqasli odamzot o‘zining ichki hissiyotlarini ham bayon qiladi, nutq esa barcha insonlarda ham bir xilda-to‘la rivojlangan yoki shakllangan bo‘lavermaydi.

³ И в а н о в П. И. Умумий психология. «Ўқитувчи», Тошкент, 1967, 306 - бет

Ba'zi bolalar tovushlarni noto'g'ri [talaffuz qilibgina qolmay](#), ularni bir-biridan farqlay ham olmaydilar. Nutqdagi bunday kamchiliklar darslarni o'zlashtirishda bolalar uchun sezilarli qiyinchiliklarni tug'diradi. Bunday hollarda logoped mashg'ulotlar yordamiga muxtoj bo'ladilar.

Ma'lumki, boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutqlaridagi nuqsonlarni bartaraf etish o'quvchilar va logopedlar zimmasiga yuklanadi. Talaffuzdagi kamchiliklarni aniqlashda bolaning nutqini tekshirib ko'rish, nutq buzulish sabablarini o'rganish lozim. Buning uchun har bir bola nutqini tekshirish varaqasi to'ldirilib, qaysi tovushlar to'g'ri yoki noto'g'ri talaffuz qilayotgani belgilab boriladi. Nutq o'stirish-ongli o'qishni, so'zlash va yozishga o'rgatishni, til haqida o'quvchilarning yoshi va tushunchasiga mos bo'lgan bilim berishni, ularning lug'at boyligini oshirishni, boshqalarning nutqiga e'tibor va qiziqishni o'stirish, kitob o'qishga muhabbat uyg'otishni ko'zda tutadi. Og'zaki nutiqqa o'rgatishning ilk davrida daktiologiya (qo'l alifbosi)dan foydalaniladi. Bu narsa bolalarning tovushlarni talaffuz qilib, o'zlashtirib borganlari sari faqat yordamchi vosita bo'lib xizmat qiladi.

Boshlang'ich sinf, ona tili darslarida olib boriladigan barcha mashg'ulotlarning yetakchi o'rni nutq o'stirish bo'lib, u savod o'rgatish, chiroyli yozish ko'nikmalarini shakllantirish va fikrlash doirasini kengaytirish vazifalarini o'z ichiga oladi. Bu darslarda ko'proq amaliy maqsadlarni ko'zlash, til boyliklaridan nutqda foydalanish malakalarini shakllantirish, ijodiy fikrlash, o'quvchilarning til sezgirligini tarbiyalash lozim. Ularning og'zaki nutqini muntazam o'stirib boorish bog'anishli nutq, matn tuzishlarda amaliy yordam beradi.

Ma'lumki, bu vazifalarni amalga oshirish yo'llari xilma-xildir.

Savod o'rgatish darslarida amaliy mashg'ulatlarga keng o'rin berish va malakalarni singdirishda qiziqarli va jonli narsalardan, texnika vositalaridan, turli o'yin va o'yin turidagi mashqlardan foydalanish samarali natijalar beradi. Darslikka doir hikoyalar, ertaklar, she'r va maqollardagi notanish so'zlar o'qib

yoki eshittirib tushuntiriladi. Masalan, “Kim sezgir”, “Bu nima”, “Nomini ayt” o’yinlari.

Mashqning bu turlari o’quvchilarga yangi harf o’rgatilgandan keyin uni qay darajada o’zlashtirilganliklarini sinash va mustahkamlash maqsadida o’tkaziladi.

O’qituvchi doskaga o’rnatilgan harflarni ma’lum bir tartibda teradi va uni o’qigach, o’quvchilarga ham navbat bilan o’qitadi. So’ngra bolalarga sezdirmay ayrim harflar almashtirib qo’yiladi. Bunda o’quvchilarning [sezgirligi](#), topqirligi baholanib, rag’batlantiriladi.

Mehnat ta’limi darslarida ham o’quvchilarning nutqini o’stirishga katta e’tibor berilib, o’rgatuvchi xarakterdagi o’yinlardan foydalanish yaxshi samara beradi. Masalan: “Mehmon kutamiz”, “sabzavotlar va me’valar do’koni”, “Shar shaklidan kim ko’p narsa yasaydi?”.

O’yinlar orqali milliy qadriyatlarimizdan, o’zbekona me’rosimizdan foydalanib, qadr-qimmat, mehr-oqibat, odob-axloq, ota-ona va kattalarni hurmat qilish kabi xislatlarni bola qalbiga singdirish mumkin. Masalan: “Odobli bola”, o’yinida sinf guruhga bo’linib, har guruhdan bir o’quvchi ishtirok etadi.

O’qituvchi: -Xo’sh bolalar, odobli bola ertalab, o’rnidan turib nima qiladi?”.

O’qituvchi: -Odobli bola erta barvaqt turib, badan tarbiya qiladi, ota- onasiga va oila a’zolariga salom beradi.

O’quvchi: -Odobli bola qanday salom beradi?

O’qituvchi: -“Assalomu alaykum” deb salom beradi, keyin nonushta qiladi.

O’qituvchi: -Odobli bola dasturxon atrofida qanday o’tiradi.

O’qituvchi: -Odobli bola kattalardan pastda o’tiradi, “Bismillohir rahmonir rahim”, deb dasturxonga kattalardan keyin qo’l uzatadi, og’zida ovqat bilan gapirmaydi.

Shu kabi savol-javoblardan keyin [guruhlar javobi izohlanib](#), to’plagan ballar e’lon qilinadi va rag’batlantiriladi.

Bu xildagi dars-o'yin turdagi mashg'ulotlar bolalarni mehnatsevarlikka tayyorlaydi, ularning mustaqil, ijodiy faoliyatini, lug'at boyligini oshirib, nutqini rivojlantirishga yordam beradi va darslarning uzviy bog'liqligini mustahkamlaydi.

Shunday qilib, har bir darsda, u qaysi predmet bo'lishidan qat'iy – nazar, birinchi galdagi vazifamiz o'quvchilarning ongli, ravon, to'g'ri va ifodali o'qishiga erishishimiz, nutqini o'stirishga harakat qilmog'imiz lozim.

Bu tadbirlar o'quvchilarning yil davomida olgan bilimlarini namoyish qilishga, tahlil etishga va mustahkamlashga, og'zaki nutqini o'stirishga, eslash qobiliyatini rivojlantirishga yordam beradi.

Ma'lumki, nutq tafakkur bilan bog'liq, shuning uchun u tafakkur bilan uzviy bog'liq holda o'stiriladi. Darsda o'qilgan asarni o'quvchilar ongli tushunishi, [asosiy mazmunini](#), g'oyasini anglab yetishi uchun analiz, sintez, taqqoslash, umumlashtirish kabi logik priyomlar qo'llanadi. O'qilgan asarni analiz qilishda har xil ish usullaridan foydalaniladi. Bolalar hikoyadagi asosiy qatnashuvchi shaxslarni aytadilar, o'qituvchi rahbarligida asarning sxematik rejasini tuzadilar (tugun, kulminatsiya, yechim). Masalan, bolalar O'.Usmonovning "Chumchuq bola" hikoyasida qatnashuvchi shaxslar sifatida Boboxonni, chumchuq bolani, Tal'atni aytadilar; "Laqma it" ertagida qatnashuvchilarni: laqma it, echki, mushuk, xo'roz, olaqashqani aytadi. Qatnashuvchi shaxslarni o'quvchilar har xil tartibda aytishlari mumkin. Ammo, o'qituvchi ularni asarda qatnashgan tartibda aytishni so'raydi. Natijada o'qituvchi rahbarligida hikoyaning jadvali tuziladi. O'qituvchi bergan savoli yordamida bolalar Boboxon, chumchuq bolani bug'doyzordan tutib olgani, [uni qiynagani](#), ko'chada o'rtog'i Tal'atni ko'rib qolgani, Boboxonning ishidan Tal'atning xafa bo'lgani, chumchuq bolani qizil qalam va o'chirg'ichga almashib olgani va uchirib yuborgani (qutqargani), Boboxon esa uyalganidan dovdirab qolganini aytib beradilar. Hikoyaning mazmuni shunday aniqlanadi. Shunday qilib, hikoya mazmuni bilan birinchi tanishish o'quvchilardan ongli ishlashni, ya'ni voqealarni, qatnashuvchilar

sostavini analiz qilishni talab qiladi. O'qish bilan bog'liq holda bajariladigan bunday logik ishlar asta-sekin murakkablasha boradi.

Boshlang'ich sinflar o'qish darslarida o'quvchilar nutqini o'stirish vositalaridan biri to'g'ri uyushtirilgan qayta hikoyalashdir. Maktab tajribasida to'liq, qisqartirib, tanlab va ijodiy qayta hikoya qilish turlari mavjud. Boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun matnni to'liq yoki matnga yaqin qayta hikoyalash ancha oson, boshqa turlari esa nisbatan qiyinroqdir. Qayta hikoyalashda o'qilgan hikoya mazmuni yuzasidan o'qituvchining savoli o'quvchilarni hikoyaning detallari haqida, ayrim voqealar o'rtasidagi bog'lanishning sabab-natijalari haqida fikrlashga qaratilishi lozim. Asar syujetining rivojlanishida qatnashuvchi shaxslar, ularning hatti-harakati asosiy rol o'ynaydi. Bolalar asar mazmunini unda ishtirok etuvchi shaxslar va ularning hatti-harakati, xarakterli xususiyatlarini tahlil qilish yordamida yaxshi anglab yetadilar. O'qituvchining savoli asar qahramonlari nima qilgani, ularning u yoki bu hatti-harakatlari qaerda va qanday sharoitda yuz bergani haqida so'zlab [berishga](#), voqealarning izchil bayon qilinishiga va o'zaro bog'liqlikni yoritishga yo'naltirilishi lozim. O'quvchi o'qilgan asar mazmunini o'qituvchi savoli yordamida aytib berishida faqat analizdan emas, sintezdan ham foydalanadi: ayrim faktlarni o'zaro bog'laydi (sintezlaydi), bir-biriga taqqoslaydi, ular yuzasidan muhokama yuritadi va xulosa chiqaradi. Ko'pincha boshlang'ich sinf o'quvchilari qatnashuvchi shaxslar hatti-harakatini yaxshi tushunmasliklari, ba'zan noto'g'ri yoki yuzaki tushunishlari natijasida asar mazmunini anglab yetmaydilar. Shuning uchun ham o'qituvchi savolni juda o'ylab tuzishi, u bolani fikrlashga, o'ylashga majbur etadigan, qatnashuvchi shaxslarning hatti-harakati, voqealarning bog'lanishi yuzasidan muhokama yuritadigan, ularni o'zaro qiyoslashga, ijobiy va salbiy tomonlarini aniqlashga yordam beradigan bo'lishi lozim. O'quvchi asarda qatnashuvchilarning hatti-harakatini qanchalik aniq ko'z oldigan keltira olsa, u hikoyaning asosiy mazmunini [shunchalik chuqur tushunadi](#), shunchalik mustaqil qayta hikoya qilib beradi.

Shunday qilib, nutqni tafakkurdan ajratib bo'lmaydi, nutq tafakkur asosida rivojlanadi; fikr nutq yordamida pishib yetiladi, yuzaga chiqadi. Ikkinchi tomondan, nutqning o'sishi fikrni shakllantirishga yordam beradi, takomillashtiradi.

Mavzuni takrorlash va mustahkamlash uchun savollar hamda topshiriqlar:

1. O'quvchilar nutqini o'stirish sohasida maktab va o'qituvchi oldiga qo'yilgan asosiy vazifalarni ayting.

2. Boshlang'ich sinf o'quvchilaridan biri nutqining asosiy xususiyatlarini tekshiring va qisqa axborot tayyorlang.

3. Nutq - o'quvchilar tafakkurini o'stirishda muhim vosita ekanligi to'g'risida ma'lumot bering.

17-MAVZU: LUG'AT USTIDA ISHLASH

Tayanch so'zlar: *lug'at, lingvistika, sinonim, antonym, omonim, ko'p ma'noli so'zlar, mantiqiy mashqlar, gap, gap ustida ishlash, gap bo'laklari, sintaksis, so'z birikmasi, morfologiya, gapning bosh bo'laklari.*

17.1. Lug'at ustida ishlashning lingvistik asosi, vazifalari. So'z ma'nosini tushuntirish yo'llari.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari nutqini rivojlantirishning asosiy yo'nalishlaridan biri so'z ustida ishlash, ya'ni lug'at ishidir. Ona tili va o'qish darslarida bajariladigan lug'at ishi o'quvchining so'z boyligini oshirishda muhim ahamiyatga ega. M. R. Lvovning ma'lumot berishicha, IV sinfgacha boshlang'ich sinf o'quvchilari o'zlashtiradigan yangi so'zlarning yarmi o'quvchilar lug'atiga ana shu darslar orqali kiradi. "Lug'at ishi – o'qituvchi faoliyatidagi bir lavha emas, balki rus tili kursining barcha bo'limi bilan bog'langan tizimli, yaxshi tashkillashtirilgan,

pedagogik jihatdan maqsadga muvofiq tuzilgan ishdir” – deb yozgan edi taniqli metodis olim A. V. Tekuchev .

Lug‘at ishi bosqichlarini quyidagicha ifodalash mumkin: 1) so‘z ma‘nosini tushuntirish, 2) so‘zni faollashtirish, 3) so‘zni nutqda qo‘llash.

O‘quvchilar lug‘atini faollashtirish – ona tili va o‘qish darslarida bajariladigan lug‘at ishining eng muhim yo‘nalishlaridan biridir. Shuning uchun o‘qituvchining vazifasi – o‘quvchi lug‘atidagi nafaol so‘zlarni faol lug‘at zaxirasiga o‘tkazish uchun o‘quvchiga nafaol so‘zlarning birikuvchanligi va qo‘llanish sohasini o‘zlashtirishga yordam berishdan iborat. O‘quvchi biror so‘zni o‘zi qayta hikoyalashi, hikoyasi, suhbat, xati, bayoni, inshosida atigi bir marta qo‘llasa ham, bu so‘z faollashgan hisoblanadi. So‘zni o‘zlashtirish uning ma‘nosi, birikuvchaligi va qo‘llanish doirasini bilishdan iborat.

O‘quvchiga yangi so‘z ma‘nosini tushuntirish, uning so‘zni to‘g‘ri tushunishiga erishish zarur. Buning uchun esa o‘qituvchi so‘z ma‘nosini tushuntirish usullarini bilishi va ulardan o‘rinli foydalanishi lozim. M. R. Lvov so‘z ma‘nosini tushuntirishning quyidagi usullarini ajratadi: ko‘rgazmali, kontekstual, sinonim keltirish, mantiqiy ta‘rif berish, batafsil tavsiflash, antonim keltirish, so‘zning yasaliş tarkibini tahlil qilish .

So‘z ma‘nosini tushuntirish – hali o‘quvchilar lug‘atini boyitishning birinchi bosqichi xolos. So‘z o‘quvchining “o‘z mulki”ga aylanishi, ya‘ni faol lug‘atiga kirishi uchun katta ishni amalga oshirish talab qilinadi. Nutq o‘stirish bo‘yicha tajriba shuni ko‘rsatadiki, bu borada shablon va rejasizlikka yo‘l qo‘yib bo‘lmaydi. Har bir dars uchun rejalashtiriladigan so‘z ustidagi izchil, puxta, doimiy ish olib borilishi lozim.

O‘quvchilar uchun tushunarsiz va nafaol so‘zlarni faollashtirishning quyidagi yo‘llari mavjud:

1. Boshlang‘ich sinf “Ona tili” darsliklarida berilgan o‘quvchilar lug‘atini faollashtirishga doir mashqlarni bajartirish.

2. O‘qish darslarida o‘qiganlarini qayta hikoyalash, suhbat, bayon, inshoda yangi va nafaol so‘zlarni qo‘llash.

3. Ona tili va o‘qish darslarida o‘qituvchining o‘zi tomonidan tuzilgan mashq va topshiriqlardan foydalanish.

4. Ona tili darsligidagi mashqlarga qo‘shimcha topshiriqlar ilova qilish.

Biz bu maqolada uchinchi va to‘rtinchi yo‘l haqida so‘z yuritamiz.

Ona tili va o‘qish darslarida o‘quvchilar lug‘atini faollashtirish uchun o‘qituvchining o‘zi tomonidan tuziladigan quyidagi topshiriqlardan foydalanish mumkin:

1. Har bir qatordagi o‘zakdosh so‘zlarni toping.

Qadrli, aziz, qadrdon;

Vafodor, sadoqatli, bevafo;

Mehrli, xushfe‘l, mehribon;

Qo‘pol, qo‘rs, qo‘pollik.

O‘zakdosh so‘zlarni ajratib yozing. O‘zagini belgilang. Shu so‘zlardan istagan birini qo‘llab gap tuzing.

2. *Sabr, hurmat, e‘tibor* so‘zlariga o‘zakdosh so‘zlar toping.

Izohli lug‘atdan bu so‘zlarning ma‘nosini o‘qing va eslab qoling.

1) Insonni nima uchun hurmat qilish mumkin?

2) Har qanday odam hurmatga loyiqmi?

3. Har bir so‘zning qaysi turkumga kirishini aniqlang.

Ishonch, ishonmoq, e‘tibor, ishonchli, mehmondo‘st, mazax qilmoq, xafa qilmoq, xushfe‘l, bag‘ritosh, nafratlanmoq, yaxshi ko‘rmoq, loqayd, hurmat, halol, rost, rostgo‘y, shafqatsiz, insonparvar.

So‘zlarni uch ustunchaga ajratib yozing: ot, sifat, fe‘l. Insonning ijobiy xislatlarini ayting. *Bag‘ritosh* va *mehribon* so‘zlarining ma‘nosini tushuntiring.

4. Berilgan so‘zlarga qarama-qarshi ma‘noli so‘zlar topib yozing.

Dono odam – nodon odam; xushfe‘l yigit –...; jasur askar –...; shirinso‘z bola –...; bag‘ritosh odam –...; qahrli nigoh –...

Foydalanish uchun so‘zlar: *badfe‘l, mehribon, qo‘rqoq, qo‘pol, mehrli.*

5. Berilgan sifatlarning umumiy jihati nimada? Ularning ma'nosida qanday farq bor?

Xushmuomala, shirinso'z, xushfe'l, nazokatli, odobli, muloyim, kirishimli, dilkash.

6. Lug'at diktanti.

Birinchi ustunchaga odamlar qanday bo'lishi kerakligi bildiruvchi, ikkinchi ustunchaga qanday bo'lmasligi kerakligini bildiruvchi so'zlarni yozing.

Xushfe'l, qo'pol, yolg'onchi, halol, vijdonli, qasoskor, sabrli, shafqatli, to'g'riso'z, shafqatsiz.

Shu so'zlardan uchtasini tanlab gap tuzing.

7. Quyidagi gaplardan to'g'ri so'zining ma'nolarini qiyoslang.

To'g'ri odam yolg'on gapimaydi. Nodirning javobi to'g'ri.

Qaysi so'zlar birinchi gapga, qaysi so'zlar ikkinchi gapga mos keladi: *halol, aniq, insofli, rost.*

8. Yumshoq va muloyim so'zlarini quyida berilgan qaysi otlar bilan bog'lash mumkin?

Divan, so'z, odam, mum, kulgi, yostiq, xamir, ko'rpa, muomala.

9. Qarama-qarshi ma'noli so'z yozib, ma'nosini izohlang.

shafqatsiz – ...;

xushmuomala – ...;

vijdonli – ...;

ishchan – ...;

loqayd – ...;

sabrli – ...;

andishali – ...;

saxiy – ...;

Boshlang'ich sinf "Ona tili" darsliklaridagi mashqlarga quyidagi qo'shimcha topshiriqlarni tavsiya qilamiz:

1. 2-sinf “Ona tili” darsligidagi 39-mashqda. *Inoq, intizom, ilg‘or, ilm, pichan, nihol, koinot* so‘zlari ishtirokida so‘z birikmasi tuzing.

Foydalanish uchun so‘zlar: *do‘stlar, rioya qilmoq, mamlakat, maktab, o‘rmoq, o‘tqazmoq, cheksiz, olmoq.*

Inoq, ilm, nihol, koinot so‘zlariga ma’nodosh so‘zlar toping .

2. 2-sinf “Ona tili” darsligidagi 83-mashqda. *Haykal, hamshira, handalak, hashar, harorat, hoshiya* so‘zlari ishtirokida so‘z birikmalari tuzing.

Foydalanish uchun so‘zlar: *xushbo‘y, Navoiy, ayol, umumxalq, xona, daftar.*

Shu so‘z birikmalaridan uchtasini tanlab gap tuzing.

3. 3-sinf “Ona tili” darsligidagi 21-mashqqa. *Anhor, olxo‘ri, javon, nordon, arqon, poda, beda, sabr* so‘zlari ishtirokida so‘z birikmasi tuzing. Foydalanish uchun so‘zlar: *katta, kitob, uzun, qora, tezoqar, ko‘m-ko‘k, olma.*

Poda so‘zining uyur, *gala* so‘zlaridan farqini ayting.

4. 3-sinf “Ona tili” darsligidagi 39-mashqqa. *An‘ana, marifat, e’tirof, ta’na, ta’ziya* so‘zlarining ma’nosini lug‘atdan foydalanib izohlang.

Shu so‘zlar ishtirokida so‘z birikmasi tuzing.

An‘ana, marifat, ta’na so‘zlariga ma’nodosh so‘zlar toping.

5. 3-sinf “Ona tili” darsligidagi 40-mashqda.

Ma’naviyat, ma’rifat, da’vogar, ta’sirchan, ma’murchilik, mas’uliyat, ta’minot, e’tiqod, ma’yuslanmoq so‘zlarining ma’nosini lug‘atdan foydalanib izohlang. *Ta’sirchan, ma’murchilik, ma’suliyat, e’tiqod, ma’yuslanmoq* so‘zlariga ma’nodosh so‘zlar toping. Shu so‘zlar ishtirokida bittadan gap tuzing.

Mashqda berilgan mazkur so‘zlar ma’nosini 3-sinf o‘quvchisi bilmaydi. Bu so‘zlar ustida lug‘at ishi o‘tkazilmasa, ular hatto o‘quvchining nafaol lug‘atiga ham kirmay qoladi.

6. 3-sinf “Ona tili” darsligidagi 42-mashqda. Lug‘atdan foydalanib *qur‘on, qo‘rg‘on, mo‘jiza, da‘vat, ma’sul, me’mor, qit’a, so‘gal, sa‘va, to‘ng‘iz* so‘zlarining ma’nosini izohlang.

Shu soʻzlar ishtirokida soʻz birikmasi tuzing. Foydalanish uchun soʻzlar: *mustahkam, tabiat, hushyorlik, shaxs, oʻqimoq, bino, olti, gʻadir-budur, mitti, ovlamok.*

7. 3-sinf "Ona tili" darsligidagi 310-mashqqa. (Mashqda "Mening onam" mavzusida 5-6 gapdan iborat matn yozing" deb topshiriq berilgan.) Matnda quyidagi soʻz va iboralardan foydalaning: *oq yuvib, oq taragan, mehribon, istamoq, koʻmaklashmoq, tortiq qilmoq.*

8. 3-sinf "Ona tili" darsligidagi 326-mashqda. *Kezaman* soʻziga maʼnodosh soʻz toping.

9. 4-sinf "Ona tili" darsligidagi 93-mashqda. *Teatr, radio, manfaat, kakao, mutolaa, chavandoz* soʻzlarining maʼnosini lugʻatdan foydalanib izohlang.

Bu soʻzlar ishtirokida soʻz birikmasi tuzing. Foydalanish uchun soʻzlar: *aktyor, koʻrmoq, mohir, ichmoq, kitob, eshitmoq.*

10. 4-sinf "Ona tili" darsligidagi 102-mashqqa. *Jadval, jeton, jayron, jurnal, ijozat, tarjimon* soʻzlarining maʼnosini lugʻatdan foydalanib izohlang.

Shu soʻzlar ishtirokida soʻz birikmasi tuzing. Foydalanish uchun soʻzlar: *goʻzal, koʻpaytirish, olmoq, "Gʻuncha", mohir.*

Jayron va *jiyron* soʻzlarining farqini ayting.

Soʻz tilning maʼno bildiradigan asosiy birligi. Tildagi soʻzlar yigʻindisi tilning lugʻat boyligini tashkil etadi. Soʻzning ikki tomoni: tovush tomoni va ichki - maʼno tomoni boʻlib uning maʼnosi leksikada oʻrganiladi. Soʻz aniq predmetini ham, mavxum tushunchalarni ham bildiradi. Tilning lugʻat tarkibi jamiyat taraqqiyoti bilan bogʻliq holda oʻzgarib, rivojlanib, boyib boradi. Bularni leksikologiya tekshirib boradi. Shuning uchun ham leksika lugʻat ustidan ishlash metodikasining lingvistik asosi hisoblanadi.

Tilning lugʻati qancha koʻp boʻlsa, fikr shuncha aniq ifodalanadi. Jumladan, aniq bir shaxsning ham oʻz lugʻati boyligi boʻladi. Nutqi lugʻatga boy kishining nutqi aniq, ravon boʻladi, shuning uchun boshlangʻich taʼlim oldiga qoʻyiladigan asosiy talablardan biri ham oʻquvchilar nutqini soʻz bilan boyitishdir.

Metodika lugʻat ishlarini yaxshilash, tartibga solish, uning asosiy yoʻnalishlarini belgilash, oʻquvchilar lugʻatini boyitish jarayonini boshqarish yoʻllarini ishlab chiqadi.

Boshlangʻich taʼlim lugʻat ustida ishlash metodikasi 4 yoʻnalishda ish olib boradi;

1. Oʻquvchilar lugʻatini boyitish. Oʻqituvchilarga soʻzlarnig maʼnolarini tushuntirish orqali har kuni 8-10 ta soʻz bilan, jumladan, ona tili darsida 4-6 soʻz bilan lugʻatini boyitishni koʻzda tutadi.

2. Lugʻatiga aniqlik kiritish: a) oʻqituvchilar maʼnosini yaxshi bilmaydigan soʻzlar maʼnosini izohlash orqali;

b) kinoyali, koʻp maʼnoli soʻz maʼnolarini izohlash orqali;

v) sinonim soʻzlarning maʼno ottenkalarini izohlash orqali;

g) iboralarining maʼnosini izohlash orqali;

3. Lugʻatni faollashtirish, kam ishlatadigan soʻzlarni ishlatish uchun sharoit yaratish: diologlar, suhbat uyushtirish, bayon, insho yozdirish.

4. Adabiy tilda ishlatilmaydigan soʻzlarni passiv lugʻatiga oʻtkazish.

Lugʻat ustida ishlashda soʻzning adabiy orfoepik talaffuzi, imlosi ustida ham ishlanadi.

Oʻquvchilar nutqi muayyan manbalar asosida boyitiladi.

a) tabiatni, kishilar hayoti, mehnati, bolalar oʻyin va oʻqish faoliyatini kuzatish orqali;

b) badiiy asarlar orqali;

v) gazeta va jurnal materiallari orqali;

g) radio va telekoʻrsatuvlar orqali;

d) ona tili darslaridagi mashqlar orqali;

e) lugʻatlar orqali.

Soʻz maʼnosini tushuntirish juda kam vaqtni olish kerak. Oʻqituvchi darsga tayyorlanish jarayonida qaysi soʻzlarning maʼnosi ustida ishlashi zarurligini, qay tarzda ishlashini belgilab olishi kerak.

O'qish darslarida 1 marta uchragan, bolalar ma'nosi tushunmaydigan so'zlarning ma'nosini asarni o'qimasdan oldin tushuntirishi kerak.

Ko'chma ma'nodagi so'zlarni, obrazli ifodalarni, umuman, asarning badiiy tiliga doir nutq birliklari asarni o'qib bo'lgach tushuntiriladi.

So'z ma'nolarini tushuntirishda qo'yidagi usullardan foydalaniladi:

1. So'zni matn asosida tushuntirish
2. So'z ma'nosini lug'atdan, kitobdagi izohdan foydalanib tushuntirish.
3. Sinonimlarini keltirib tushuntirish.
4. Antonimiga taqqoslab tushuntirish.

Ko'chma ma'noli so'z, tasviriy ifodalarni, maqollarni ham taqqoslash usuli yordamida tushuntirish mumkin.

5. Birikmalar, gaplar yordamida tushuntirish.

6. So'zni predmetning asosiy belgilarini aytish orqali tushuntirish.

7. Axloqiy mavxum tushunchalarni bildiradigan so'zlar ma'nosini misollar yordamida tushuntirish.

Bir umumiy tushuncha bildiradigan so'zlar sinonim so'zlar deb yuritiladi.

Ular qo'shimcha ma'nolarni uslubiy qo'llanishi bilan o'zaro farq qiladi. O'quvchi nutqi sinonimlarga boy bo'lsa, nutqning ifodaliligi shuncha ortadi.

Sinonim so'zlar bilan ishlash elementlar ravishda 1-sinfdan boshlanadi, lekin maxsus soat ajratilmaydi.

Boshlang'ich sinfda sinonim so'zlar ustida quyidagi mashq turlaridan foydalaniladi.

- 1) berilgan sinonimlarni guruhlash;
- 2) berilgan so'zga sinonim tanlash;
- 3) tushurib qoldirilgan sinonim so'zlarni o'rniga qo'yib matnni ko'chirish;
- 4) sinonimlardan mosini qo'yib gaplarni ko'chirish;
- 5) sinonim so'zlar vositasida didaktik material tanlash.

Zid ma'no munosabatidagi so'zlar antonim so'zlar deyiladi-yu antonimik munosabat so'z va iboralar orasida ham bo'ladi. Antonimlar bilan ham

boshlang'ich sinfda amaliy tanishtiriladi. Maxsus mashqlar uyushtiriladi:

1. Berilgan so'zga antonim tanlash.
2. Antonim so'zlar bilan gap tuzish.
3. Berilgan gapga antonim qo'yib ko'chirish.

Omonim so'zlar ustida ishlashda ham yuqoridagi kabi ishlar amalga oshiriladi.

Boshlang'ich sinf ona tili darslarida sinonimlar ustida ishlash

Sinonimlar ustida ishlash lug'at qatlamini o'rganishning muhim bo'limidir. Tilning lug'at boyligi asosan uning sinonimikasi bilan belgilanadi. Narsa, harakat, belgilar haqidagi tushunchalar ko'plab variant, qirralarga ega. Lug'atda ularni ifodalovchi sinonimlar qanchalik ko'p bo'lsa, tilning ifoda imkoniyatlari shunchalik boy bo'ladi. O'zbek tili sinonimlarga juda boy. Jumladan, A.Hojiyevning "Sinonimlar lug'ati"da *yaxshi* so'ziga 14 ta, *juda* so'ziga 29 ta sinonim keltirilgan. Albatta, boshlang'ich sinflarga barcha sinonimlarni o'rgatishning zarurati va iloji yo'q. Ammo sinonimikaning boyligi qo'llaniladigan leksikaning rang-barang bo'lishi uchun zaxiradir.

Aytib o'tganimizdek, sinonimlar bu borliqdagi bitta narsani nomlovchi, lekin uning turli tomonini, yoki turlicha nuqtayi nazardan baholash bilan farqlanuvchi so'zlardir. Sinonimlar o'zaro lug'aviy ma'noning qirralari bilan, emosional-ekspressiv bo'yog'i bilan, uslubga xosligi bilan, nihoyat izchil qo'llanishi va boshqa so'zlar bilan birikuvchanligi (valentligi) ga ko'ra farq qiladi. Masalan, *gapirmoq* so'zining sinonimi *shivirlamoq* past ovozda gapirishni bildiradi, *vaysamoq* so'zi esa behuda gapirmoq ma'nosini bildirib, so'zlovchining salbiy munosabatini ifodalaydi.

Boshlang'ich sinflarda sinonimlar (shuningdek, boshqa leksik-semantik guruhlar) to'g'risida nazariy ma'lumot berilmaydi. Biroq sinonimlar ustida amaliy ishlar, ularni kuzatish o'quvchilarda sinonimlar haqida tushunchani shakllantiradi.

Sinonimlar ustidagi amaliy mashqlar quyidagi elementlardan iborat:

a) o‘qilgan matnlardan sinonimlarni topish, ularning ma’nolari, ayniqsa ma’no qirralari, sinonim so‘zlar orasidagi farqlarni aniqlash;

b) mazkur so‘zlarni almashtira oladigan sinonimlar tanlash va ma’no qirralari haqida qo‘llanishidagi farqini belgilash;

d) sinonimlar yuzasidan maxsus mashqlar (sinonimlarning darajalanishi va h.k);

e) sinonimlarni og‘zaki va yozma nutqda faol qo‘llash;

f) nutqiy xatolarni tuzatish (noo‘rin qo‘llangan so‘zlarni), so‘zni unga sinonim bo‘lgan boshqa, berilgan matnga ko‘proq mos keladigan so‘z bilan almashtirish.

Boshlang‘ich sinf ona tili darsliklaridagi ma’nodosh so‘zlarga doir mashqlar tahlili

Boshlang‘ich sinf ona tili darsliklarida ma’nodosh so‘zlar alohida mavzu sifatida ajratilmagan. Ma’nodosh so‘zlarga doir mashqlar so‘z turkumlariga oid mashq va topshiriqlar doirasida berilgan. Sinonimlar ustidagi elementar mashqlar 1-sinfdan boshlanadi. Masalan, “Alifbe”da o‘quvchilar quyidagi gapni o‘qiydi: “Onam shirin, mazali non yopdilar”. O‘qituvchi o‘quvchilar diqqatini mazali so‘zi shirin so‘zining ma’nosini kuchaytirayotganiga qaratadi.

2-sinfda o‘quvchilar 2-3 sinonimdan iborat guruhlar tuzadi. Odatda sinonimlar belgining o‘sib borish darajasiga ko‘ra joylashtiriladi: kuchli – baquvvat – zabardast va chiroyli, suluv – zebo . 2 – 4- sinflarda uch va undan ortiq sinonimdan iborat guruhlar tuzish maqsadga muvofiq; qo‘rqmas, botir, jasur (jangchi); saqlamoq, qo‘riqlamoq, himoya qilmoq.

Hikoyalarda fe’llar ustida ish olib boriladi. Masalan “Bolari va qovog‘ari ” hikoyasida: *g‘o‘ng‘illabdi, gapiribdi, debdi, sekin so‘rabdi, javob beribdi*. Xuddi shunday ish-harakat fe’llari ustida ham olib boriladi: *olib ketsa, tashisa, ko‘tarib keta boshladi* (“G‘isht” hikoyasidan, 3-sinf). Anig‘ini aytganda, bu so‘zlarning, hammasi ham sinonim emas. Lekin boshlang‘ich sinflarda sinonimlarning bunday kengaytirilgan talqini zarurdir. Mohiyatan bolalar bunda bir tematik guruhga kiruvchi so‘zlarni tahlil qiladi. Ayni holatda nutq, gapirishni bildiruvchi so‘zlarni.

Bunday soʻzlarning xilma-xilligi fikrni aniq ifodalashni taʼminlaydi: shivirladi, xitobladi, soʻz qotdi va h. k. neytral boʻlgan dedi soʻzining jonga tegadigan takroridan qochishga imkon beradi.

1-sinf ona tili darsligida maʼnodosh soʻzlarga doir 3 ta mashq berilgan (119-154-, 178-mashqlar). 119-mashqni aynan maʼnodosh soʻzlar ustida ishlashga doir mashq deb boʻlmaydi. Unda maʼnodosh soʻzlarga doir topshiriq bor. Mashqda Qambar Otaning sheʼri berilgan boʻlib, sharti quyidagicha: “Soʻroqlar yordamida harakatni bildirgan soʻzlarni toping va koʻchiring”. Sheʼrning matni quyidagicha:

Yaproqlar

Zumrad, yashil yaproqlar
Shovullaydi bogʻlarda.
Soyasiga chorlaydi
Kun qizigan chogʻlarda.
Bizlar uchun chang yutib
Tozalaydi havoni.
Koʻzimizga yashnatib
Koʻrsatadi dunyoni.

Mashq matnidan keyin quyidagicha savol shaklidagi topshiriq berilgan: “**Yaproqlar, chorlaydi** soʻzlarini qaysi soʻzlar bilan almashtirish mumkin?” Oʻquvchilar *yaproqlar* soʻzini *barglar* soʻzi bilan, *chorlaydi* soʻzini *chaqiradi* soʻzi bilan almashtirish mumkinligini aytadi. Bu topshiriqni bajarish orqali oʻquvchilarda maʼnodosh soʻzlar haqidagi dastlabki tasavvur hosil boʻladi, yaʼni ular ayni bir maʼnoni birdan ortiq soʻz bilan ifodalash mumkinligini anglaydi.

154-mashqda “Zarif va Zafar” sarlavhali matn berilgan boʻlib, matndan keyin maʼnodosh soʻzlarga doir topshiriq berilgan. Matn quyidagicha:

Zarif shaharda yashaydi. U qishloqdagi xolasining uyiga bordi. U yerda Zarif Zafar akasiga yordamlashdi.

Matndan keyin quyidagicha topshiriq berilgan: “Ko‘chiring. *Yordamlashdi* so‘ziga ma’nodosh so‘zlar toping.” O‘quvchilar yordamlashdi so‘ziga ma’nodosh bo‘lgan *ko‘maklashdi, qarashdi, yordam berdi* so‘zlarini topib aytadi. Bu mashq o‘quvchilarga berilgan so‘zga mustaqil ravishda ma’nodosh so‘z topishni o‘rgatishga mo‘ljallangan.

178-mashqda ikki gapdan iborat matn berilgan. Matn quyidagicha:

Maktub tashuvchi kabutar haqida eshitganmisiz? Ular bir yurtidan ikkinchi yurtga xat tashiydi.

Matndan keyin quyidagicha topshiriq berilgan: Ko‘chiring. **Maktub** va **xat** so‘zlari qanday ma’noni bildiradi.

O‘quvchilar lug‘at yordamida bu so‘zlarning ma’nosini aniqlab bu ikki so‘zning bir xil ma’noni bildirishi, ya’ni ma’nodosh ekanligini bilib oladi. Bu ikki so‘z ayni bir so‘zni takroran qo‘llashning oldini olishga yordam bergan.

2-sinf ona tili darsligida ma’nodosh so‘zlarga doir ikkita mashq berilgan (167-, 232-mashq). 167-mashqda to‘rtta gap berilgan bo‘lib, gaplarda ma’nodosh so‘zlar qavs ichida berilgan. Mashqning sharti quyidagicha: “Gaplarni o‘qing. Qavs ichida berilgan so‘zlardan mazmuniga mosini tanlab, maqollarni yozing”. Mashqda quyidagi gaplar keltirilgan : 1. Daraxt (bargi, yaprog‘i) bilan ko‘rkam, odam (ishi, mehnati) bilan ko‘rkam. 2. Daryo suvini (bahor, ko‘klam) toshirar, odam qadrini (ish, mehnat) oshirar. 3. (Ko‘klam, bahor) ko‘rkam fasl. 4. Duo bilan (el, xalq) ko‘karar, yomg‘ir bilan (yer, zamin) ko‘karar.

O‘quvchilar o‘qituvchi yordamida mashqni quyidagicha bajaradi:

1. Daraxt yaprog‘i bilan ko‘rkam, odam mehnati bilan ko‘rkam. 2. Daryo suvini bahor toshirar, odam qadrini mehnat oshirar. 3. Bahor – ko‘rkam fasl. 4. Duo bilan el ko‘karar, yomg‘ir bilan yer ko‘karar.

Mashqning shartida ma’nodosh so‘zlar atamasi ishlatilmay, yaqin ma’noli so‘zlar atamasidan foydalanilgan. Chunki boshlang‘ich sinflarda ma’nodosh so‘zlar haqida nazariy ma’lumot berilmaydi.

Bu mashq o'quvchida ma'nodosh so'zlar haqida tasavvur hosil qilish va ularni berilgan ma'nodosh so'zlardan mosini tanlashga o'rgatishga mo'ljallangan. Mashqning kamchiligi shuki, ayrim gapda qavs ichida berilgan ikkala so'zni ham qo'llash mumkin. Masalan, 2-, 3-gaplarda *bahor* so'zini ham, *ko'klam* so'zini ham ishlatish mumkin. 4-gapda esa qavs ichida berilgan *el* so'zidan ham, *xalq* so'zidan ham foydalanish mumkin. Binobarin, o'quvchi "Nima uchun u so'zni emas, bu so'zni ishlatish kerak?" deb savol bersa, o'qituvchi bu savolga javob bera olmaydi. Shuning uchun mashqda shunday ma'nodosh so'zlarni berish kerakki, ular bir-biridan hissiy ma'no bo'yog'i, uslubiy xoslanishi va hokazo jihatdan farq qilsin. Berilgan gap mazmuniga aynan bittasi mos bo'lsin.

232-mashqda tezaytish berilgan: *O'ktam ko'm-ko'k ko'rkam ko'klam rasmini ko'm-ko'k qalamda chizdi.*

Mashqning topshirig'ida shunday savol berilgan: Ko'klam so'zini xuddi shunday ma'noli qaysi so'z bilan almashtirish mumkin?

Bu savol shaklidagi topshiriq o'quvchida berilgan so'zga mustaqil ravishda ma'nodosh so'z topish qobiliyatini shakllantirishga qaratilgan. 3-sinf "Ona tili" darsligida ma'nodosh so'zlarga doir to'rtta mashq berilgan. Darslikdagi 31-mashqda Po'lat Mo'minning she'ri berilgan. She'rda ayrim so'zlar ajratib ko'rsatilgan. Mashqning sharti quyidagicha: Ajratib ko'rsatilgan so'zlarni alifbo tartibida yozing. Ularga yaqin ma'noli so'zlar toping. She'rning matni quyidagicha:

Dilda orzum to'lug'dir,
Bir-biridan ulug'dir.
O'qib-o'qib bir kuni
Dadamlarga o'xshasam,
Odamlarga o'xshasam.
Yaxshilarga do'st bo'lsam,
Doim shirinso'z bo'lsam.
Ahil bo'lib yurishda

Dadamlarga o‘xshasam,
Odamlarga o‘xshasam.

O‘quvchilar mashqni quyidagicha bajaradi:

Ahil – inoq, totuv

Odam – inson, kishi

Orzu – umid, istak

Shirinso‘z – xushmuomala

Bu mashq o‘quvchilarni berilgan so‘zlarga mustaqil ravishda ma’nodosh so‘z topishga o‘rgatishga bag‘ishlangan. Bunday mashqlarni bajarish uchun o‘quvchilarga ma’nodosh so‘zlar lug‘ati kerak bo‘ladi.

“Sifat yasovchi qo‘shimchalar” mavzusida 262-mashq berilgan bo‘lib, u ham ma’nodosh so‘zlar ustida ishlashga bag‘ishlangan. Mashqning sharti quyidagicha: “Otlarga xos belgini bildirgan sifatlarni tanlab gaplarni o‘qing va yozing. Sifatlar-ning tagiga to‘lqinli chiziq chizing”. Mashqda quyidagi gaplar berilgan: 1. (Zo‘r, qudratli) kran (vazmin, og‘ir) yuklarni bemalol ko‘taradi. 2. (Yoqimli, mayin) shamol (ko‘k, yashil) yaproqlarni silkitdi. 3. (Tor, kichik) uyga sig‘magan odam (keng, katta) hovliga ham sig‘maydi. O‘quvchilar bu mashqni quyidagicha bajaradi:

1. Qudratli kran og‘ir yuklarni bemalol ko‘taradi. 2. Mayin shamol yashil yaproqlarni silkitdi. 3. Tor uyga sig‘magan odam keng hovliga ham sig‘maydi.

Birinchi gapda *qudratli* so‘zining ishlatilishiga sabab shuki, birinchidan, *zo‘r* so‘zi asosan inson va hayvonga nisbatan ishlatiladi (*zo‘r yigit, zo‘r ot*), ikkinchidan, bu so‘z ko‘p ma’noli. *Qudratli* so‘zi kranning belgisini aniq ifodalaydi. *Og‘ir* so‘zini qo‘llashga sabab *vazmin* so‘zi o‘zbek tilida asosan tabiatan bosiq degan ma’noda qo‘llanadi (*vazmin yigit*). Ikkinchi gapda *mayin* so‘zining ishlatilishi gapning umumiy mazmuni bilan bog‘liq. *Yoqimli* so‘zi ishlatilsa, shamolning insonga daxldorligi ifodalanishi kerak edi. Masalan: *Yoqimli shamol yuzlarimizni ohista siypalar edi* tarzida. Uchinchi gapda *tor, keng*

soʻzlarning ishlatilishiga sabab bu gapda sigʻmoq soʻzi ishlatilganligidir. Oʻzbek tilining izohli lugʻatida *tor* soʻzining bir maʼnosi “hajmi, sigʻimi uncha katta boʻlmagan; siqiq” deb berilgan. Keng soʻzining maʼnosi esa “ichi, ich hajmi, sigʻimi, sathi katta” deb izohlangan.

Bu mashq oʻquvchilarni nutqda maʼnodosh soʻzlardan mosini tanlab ishlatishga oʻrgatishga moʻljallangan.

3-sinf darsligidagi “Feʼl ” mavzusida ham maʼnodosh soʻzlarga doir mashqlar berilgan. (291-, 292-mashq). 291-mashqning sharti quyidagicha: “Oʻqing. Berilgan feʼllarga yaqin maʼnoli feʼllar tanlang va ularni birgalikda yozing”. Mashqda quyidagi soʻzlar berilgan: *sevinmoq, sogʻaymoq, tugatmoq, asramoq, yugurmoq, yigʻmoq*. Mashq matnidan keyin foydalanish uchun quyidagi soʻzlar berilgan: *tuzalmoq, quvonmoq, bitirmoq, chopmoq, saqlamoq, toʻplamoq*.

Oʻquvchilar mashqni quyidagicha bajaradi: *Sevinmoq – quvonmoq, sogʻaymoq – tuzalmoq, tugatmoq – bitirmoq, asramoq – saqlamoq, yigʻmoq – toʻplamoq*.

Bu mashq berilgan soʻzga maʼnodosh topishni oʻrgatishga moʻljallab tuzilgan. Bu mashq orqali oʻquvchilar ayni bir harakat maʼnosi bir necha soʻz bilan ifodalanishini bilib oladi. Biroq bu mashqda maʼnodosh soʻzlarning farqini anglatishga doir topshiriq berilmagan. Bu mashqqa maʼnodosh soʻzlarning farqini anglashga doir, shuningdek, maʼnodosh soʻzlarni nutqda qoʻllashga doir topshiriqlar ham berilsa, maqsadga muvofiq boʻlardi.

292-mashqning sharti quyidagicha: “Oʻqing. Qavs ichida berilgan soʻzlardan mosini qatnashtirib, gap tuzing va yozing”. Mashqda quyidagi gaplar berilgan: 1. Chegarachilar tinchligimizni (qoʻriqlaydi, saqlaydi, asraydi). 2. Men uy ishlarida oyimga (qarashaman, yordamlashaman, koʻmaklashaman). 3. Jahon xalqlari tinchlikni (xohlaydi, istaydi, tilaydi). 4. Poyezd soat 10 da (ketadi, joʻnaydi).

Oʻquvchilar mashqni quyidagicha bajaradi:

1. Chegarachilar tinchligimizni qoʻriqlaydi.
2. Men uy ishlarida oyimga qarashaman.
3. Jahon xalqlari tinchlikni istaydi.

4. Poyezd soat 10 da jo'naydi.

Bu mashq o'quvchilarda sinonimik qator ichidan gap mazmuniga mosini tanlab ishlatish ko'nikmasini shakllantirishga qaratilgan. O'quvchilar o'qituvchi yordamida ma'nodosh so'zlarni tahlil qilib, farqini aniqlaydi. Shundan keyin ular ichidan gap mazmuniga mosini tanlab ishlatadi.

Darslikdagi 300-mashq ham ma'nodosh so'zlar ustida ishlashga bag'ishlangan. Mashqning sharti quyidagicha: "Qavs ichidagi qaysi fe'l jonivorlar harakatiga mos kelishini aniqlab gaplarni o'qing". Mashqda quyidagi gaplar berilgan :

Musicha tarnovga (qo'ndi, o'tirdi).

Tovuqlar (donlayapti, ovqatlanayapti).

To'rtko'z uychasidan (qarayapti, mo'ralayapti).

Mushuk quyosh nurida (yayrayapti, rohatlanayapti).

O'quvchilar mashqni quyidagicha bajaradi:

1. *Musicha tarnovga qo'ndi.* 2. *Tovuqlar donlayapti.* 3. *To'rtko'z uychasidan qarayapti.* 4. *Mushuk quyosh nurida rohatlanayapti.*

Birinchi gapda *qo'ndi* so'zining qo'llanilishiga sabab shuki, *qo'nmoq* so'zi qushlarga xos harakatni bildiradi. O'zbek tilining izohli lug'atida *qo'nmoq* so'zining birinchi ma'nosi "uchishdan to'xtab, yerga yoki biror narsaga o'tirmoq, tushmoq" deb izohlangan. *O'tirmoq* so'zi esa insonga nisbatan ishlatiladi. Ikkinchi gapda *donlayapti* so'zining qo'llanilishiga sabab donlamoq so'zining qushlarga xos harakatni bildirishidir. O'zbek tilining izohli lug'atida *donlamoq* so'ziga "donlarni terib yemoq (qushlar haqida)" deb izoh berilgan. *Ovqatlanmoq* so'zi esa ovqat so'zidan yasalgan bo'lib, insonga xos harakatni bildiradi. Uchinchi gapda *qarayapti* so'zining ishlatilishiga sabab shuki, *mo'ralamoq* so'zi "to'siq, tirqish, teshik orqali" degan ma'noni ifodalaydi. To'rtko'z esa uyachasida to'g'ridan-to'g'ri qarab turibdi. To'rtinchi gapda *rohatlanmoq* so'zining ishlatilishiga sabab shuki, *yayramoq* so'zi "o'zini erkin his qilgan, o'ynab kulgan holatda bo'lmoq: yozilmoq, maza qilmoq" degan ma'noni anglatadi. Mushuk esa quyosh nurida

toblanib, rohatlanib o'tiribdi. Bu mashq o'quvchilarda ma'nodosh so'zlarning farqini tushuntirish va gapda ularning mosini tanlab ishlatish ko'nikmasini shakllantirishga mo'ljallab tuzilgan. Bunday mashqlar o'quvchilar nutqining aniq bo'lishiga hamda leksik uslubiy xatolarning oldini olishga yordam beradi.

337-mashq ham ma'nodosh, ham zid ma'noli so'zlar ustida ishlashga bag'ishlangan. Mashqda Tursunboy Adashboyevning she'ri berilgan. She'ning matni quyidagicha:

Ma'nosi bir so'z nima?
Soya bilan ko'lanka.
Bilasizmi, aslida
Olis joyni der uzoq.
Baland yerni tepalik,
Quyosh – oftob, ko'cha – yo'l
Ensiz – qisqa, enli – keng,
Oymomo – shamsiqamar,
Bir mazmunni anglatar.

Mashqning sharti quyidagicha: “She'riy parchani ifodali o'qing. Matnda berilgan ma'nosi yaqin so'zlarni aniqlang”. Mashqning topshirig'i quyidagicha: “Ma'nosi yaqin so'zlarni chiziqcha orqali yonma-yon yozing. Ajratilgan so'zlarga qarshi ma'noli juftini topib yozing. Bu so'zlar qaysi so'z turkumiga kiradi?”

Shuni aytish kerakki, she'rda “ma'nosi bir so'z” deb berilgan hamma so'z ham ma'nodosh emas. Masalan, *baland* so'zi tepalik so'ziga sinonim bo'lolmaydi. Chunki *baland* so'zi belgini bildirsa, tepalik o'zi shu belgiga ega bo'lgan joyni anglatadi. *Ensiz* so'zi ham *qisqa* so'ziga ma'nodosh emas. *Ensiz* so'ziga “O'zbek tilining izohli lug'ati”da “eni uncha katta bo'lmagan; kambar, tor” deb izoh berilgan. *Qisqa* so'ziga esa “bo'ylama o'lchami, uzunligi uncha katta bo'lmagan; kalta” deb izoh berilgan. Bu so'zlarning farqini ularni ayni bir so'z bilan biriktirib,

qiyoslasak aniq ko‘ramiz. Masalan, qisqa yo‘l – uzoq bo‘lmagan yo‘l, ensiz yo‘l – tor yo‘l. *Oymomo* ham *shamsiqamar* so‘ziga emas, *qamar* so‘ziga ma’nodosh.

O‘qituvchi mashqni bajarishda o‘quvchilarga ana shu xatoliklarni tushuntirishi kerak.

Darslikdagi 381-mashq ham ma’nodosh so‘zlar ustida ishlashga bag‘ishlangan. Mashqning sharti quyidagicha: “Berilgan so‘zlarga ma’nodosh (yaqin ma’noli) so‘zlar toping. Ma’nodosh otlarni alohida, ma’nodosh sifatlarni alohida, yonma-yon yozing”. Mashqda quyidagi so‘zlar berilgan: *Toza, tiniq, do‘st, quvnoq, ovoz, go‘zal, shabada, yaproq, katta, quyosh*.

O‘quvchilar mashqni quyidagicha bajaradi:

Ma’nodosh otlar: *do‘st, o‘rtoq, oshna; ovoz, tovush; shabada, nasim, sabo; yaproq, barg; quyosh, oftob, kun*.

Ma’nodosh sifatlari: *toza, ozoda, pokiza; tiniq, beg‘ubor, shaffof; quvnoq, xushchaqchaq; go‘zal, chiroyli, ko‘rkam; katta, ulkan, muazzam*.

O‘qituvchi bu mashqni bajarish jarayonida o‘quvchilarga ma’nodosh so‘zlarning farqini ham tushuntirishi lozim. Buning uchun o‘quvchilarga bu so‘zlar yordamida so‘z birikmasi yoki gap tuzdirish yaxshi samara beradi. 4-sinf “Ona tili” darsligida ma’nodosh so‘zlarga doir 7 ta mashq berilgan (97-, 255-, 264-, 273-, 275-, 374-, 402- mashqlar).

98-mashqda maqollar berilgan. Mashqning sharti quyidagicha: “Maqollarni o‘qing, ma’nosini izohlang. Ajratib ko‘rsatilgan so‘zlarning aytilishi va yozilishini taqqoslang”. Mashqda quyidagi maqollar berilgan:

Yolg‘onchining rost so‘zi ham yolg‘on.

Odobli farzand – oila ko‘rki.

Do‘st so‘zini tashlama,

Tashlab boshing qashlama.

Hunari va odobi bo‘lmagan kishidan baxt va davlat ketadi.

Mashq matnidan keyin quyidagicha topshiriq berilgan: “Ko‘chiring. Rost, farzand so‘zlariga yaqin ma’noli so‘zlar toping.” O‘quvchilar bu topshiriqni

quyidagicha bajaradi: rost – chin, to‘g‘ri, haq; farzand – bola. Bu mashqdagi topshiriq o‘quvchida berilgan so‘zga mustaqil ravishda ma‘nodosh so‘z topish ko‘nikmasini shakllantirishga mo‘ljallangan.

255-mashqda ma‘nodosh so‘zlar aralash holda berilgan bo‘lib, o‘quvchidan bu so‘zlarni ma‘nodoshlik guruhlariga birlashtirish talab qilingan. Mashqning sharti quyidagicha: “Berilgan otlardan ma‘nodoshlarini tanlab yozing”. Mashqda quyidagi so‘zlar berilgan: *Tilak, sovg‘a, odam, bahor, kishi, orzu, tortiq, inson, niyat, istak, hadya, ko‘klam, armug‘on.*

O‘quvchilar mashqni quyidagicha bajaradi: Tilak, orzu, niyat, istak; sovg‘a, tortiq, hadya, armug‘on; odam, kishi, inson; bahor, ko‘klam. Mashqdan keyin “Shu so‘zlar ishtirokida ikkita gap tuzing” degan topshiriq berilgan. O‘quvchilar ma‘nodosh so‘zlar ishtirokida ikkita gap tuzadi.

Bu mashq o‘quvchilarni ma‘nodosh so‘zlarni aniqlash, guruhlash va o‘z nutqida qo‘llashga o‘rgatishga mo‘ljallangan.

Darslikdagi 264-mashqda qor yog‘ishi haqida matn berilgan. Matndan keyin “Beg‘ubor so‘ziga ma‘nodosh so‘zlar topib yozing ” deb topshiriq berilgan. Matnda beg‘ubor so‘zi ko‘chma ma‘noda qo‘llangan: “Bolalarning beg‘ubor qalbi daryoday to‘lib-toshyapti”. Bu ma‘no “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da “dog‘ tushmagan, pokiza” deb izohlangan. Demak, bu holatda beg‘ubor so‘ziga *toza, pokiza* so‘zlari ma‘nodosh bo‘lib keladi.

273-mashqda ma‘nodosh sifatlar va ular bilan birikuvchi otlar berilgan bo‘lib, mashqning sharti quyidagicha: “Berilgan sifat va otlardan foydalanib birikma tuzing”. Mashqda quyidagi ot va sifatlar berilgan:

Buyuk, ulug‘, katta, yirik;

Olim, yozuvchi, bino, inson, davlat;

Chiroyli, go‘zal, barno, suluv, dilbar;

Qiz, bola, yigit, kelinchak, shahar, diyor.

Mashqda so‘zlardan keyin: “Ma‘nodosh sifatlarning har biri bitta ot bilan bog‘lana oladimi?” deb savol berilgan. Aytish kerakki, bu mashq boshlang‘ich

sinf o'quvchisi uchun biroz og'ir. Shuning uchun uni bajarishda o'qituvchining yordami kerak bo'ladi. O'quvchilar mashqni quyidagicha bajaradi:

Buyuk olim, buyuk yozuvchi, buyuk davlat, ulug' davlat, ulug' olim, ulug' yozuvchi, katta bino, katta olim (ko'chma ma'noda), yirik bino, yirik olim.

Chiroyli qiz, chiroyli bola, chiroyli yigit, chiroyli kelinchak, chiroyli shahar; go'zal qiz, go'zal kelinchak, go'zal shahar, go'zal diyor; barno qiz, barno yigit, barno kelinchak; suluv qiz, suluv kelinchak, dilbar shahar, dilbar diyor.

Bu mashq, o'quvchilarni ma'nodosh so'zlarning farqi va birikuvchanligini anglashga, ularni nutqda to'g'ri qo'llashga o'rgatishga bag'ishlangan. Mashqni bajarish asosida o'quvchilar ma'nodosh so'zlar turli ma'no qirrasini bilan bir-biridan farq qilishi, ma'nodosh so'zlarning hammasi ham bitta so'z bilan bog'lana olmasligi haqida xulosa chiqaradi. Jumladan, tahlil qilinayotgan mashqda berilgan *buyuk, ulug'* so'zlari *bino* so'zi bilan bog'lana olmaydi. *Suluv* so'zi *bola, yigit, shahar, diyor* so'zlari bilan bog'lana olmaydi.

Bunday mashqlar o'quvchilarni ma'nodosh so'zlar ichidan birikma, gap mazmuniga mosini tanlab ishlatishga o'rgatishda juda yaxshi samara beradi. Biroq bunday mashqlarni bajarishda o'qituvchi o'quvchilar bilan har bir so'zning ma'nosini tahlil qilishi, ma'nodosh so'zlarning farqini ochib berishi lozim.

275-mashq o'quvchilarni ma'nodosh so'zlarni aniqlash va guruhlashga o'rgatishga mo'ljallangan. Mashqning sharti quyidagicha: "O'qing. Ajratib ko'rsatilgan sifatlarga berilgan sifatlar ichidan yaqin ma'nolilarini topib namunadagidek yozing. Namuna: ko'rkam, chiroyli,..."

Mashqda quyidagi so'zlar berilgan: *Ko'rkam, sezgir, katta, chaqqon, chiroyli, epchil, ziyrak, ulkan, shod, jasur, xursand, qahramon.*

O'quvchilar mashqni quyidagicha bajaradi:

Ko'rkam, chiroyli; ziyrak, sezgir; ulkan, katta; shod, xursand; epchil, chaqqon; jasur, qahramon.

Shuni aytish kerakki, *qahramon* so'zi *jasur* so'ziga ma'nodosh bo'la olmaydi. Ularni so'z birikmasida bir ma'noni ifodalash uchun almashtirib bo'lmaydi. Masa-

lan, *jasur yigit* – *qahramon yigit* birikmalarida *jasur yigit* qahramon bo‘lmasligi mumkin. Qahramon so‘ziga “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da quyidagicha izoh berilgan: “shijoati, dovyurakligi, botirligi bilan shuhrat qozongan, jonbozlik mardlik qilib, o‘zini ko‘rsatgan shaxs”.

374-mashq fe‘l zamonlarini aniqlashga bag‘ishlangan bo‘lib, mashq matnidan so‘ng “Vaqt so‘ziga ma‘nodosh so‘zlar toping” degan topshiriq berilgan. O‘quvchilar bu topshiriqni quyidagicha bajaradi: *vaqt, payt, zamon, muddat*.

O‘qituvchi o‘quvchilarga bu so‘zlarning ma‘noviy farqini tushuntiradi.

402-mashq ham ma‘nodosh so‘zlarga bag‘ishlangan bo‘lib, uning sharti quyidagicha: “O‘qing. Ajratib ko‘rsatilgan fe‘llarga yaqin ma‘noli fe‘llarni tanlab, ularni namunadagidek yozing. Namuna: *gapirmoq-so‘zlam*oq”. Mashqda quyidagi fe‘llar berilgan: *Gapirmoq, yanglishmoq, eslamoq, tayyorlamoq, takrorlamoq, istamoq, chanqamoq, hozirlamoq, so‘zlam*oq, *qaytarmoq, adashmoq, xotirlamoq, suvsamoq, eshitmoq, bajarmoq, tinglamoq, ijro qilmoq, xohlamoq*.

O‘quvchilar bu mashqni quyidagicha bajaradi:

Gapirmoq – *so‘zlam*oq, *eslam*oq – *xotirlamoq*, *istamoq* – *xohlamoq*, *hozirlamoq* – *tayyorlamoq*, *takrorlamoq* – *qaytarmoq*, *suvsamoq* – *chanqamoq*, *tinglamoq* – *eshitmoq*, *ijro qilmoq* – *bajarmoq*.

Bu mashq o‘quvchilarga ma‘nodosh so‘zlarni aniqlashga o‘rgatishga mo‘ljallangan. O‘qituvchi mashq shartiga qo‘shimcha ravishda ma‘nodosh fe‘llarning farqini anglash va o‘z nutqida qo‘llashga doir topshiriq bersa, mashqning samaradorligi ancha ortadi.

4-sinf “Ona tili” darsligida ma‘nodosh so‘zlarga doir mashqlardan tashqari, ma‘nodosh so‘zlarga daxldor yana bir jihat o‘ziga tortadi. Darslikning ayrim o‘rinlarida o‘quvchilar uchun tushunarsiz so‘zlarga izoh berilgan. Ba’zi izohlarda tushunarsiz so‘zga ma‘nodosh so‘z keltirilgan. Masalan; *tug‘ro* – *gerb*, *qopqa* – *darvoza* (3-bet), *alp* – *bahodir*, *pahlavon* (5-bet), *iqbol* – *baxtli taqdir*, *baxt*, *omad*; *olqish* – *maqtash*, *ulug‘lash* (11-bet), *boy bermaslik* – *yutqazmaslik* (45-bet), *in‘om* – *sovg‘a*, *hadya* (47-bet), *azim* – *katta*, *ulkan* (49-bet), *og‘och* – *daraxt* (53-bet),

taft – harorat (77-bet), qal’a – qasr, qo‘rg‘on (80-bet), haykal – yodgorlik (83-bet), zaxmsiz – ozorsiz, jarohatsiz (93-bet), boqiy – abadiy, mangu, o‘lmas (103-bet), daromad – sof foyda, mablag‘ (106-bet), zarrin – yarqiroq (159-bet), yog‘iy – dushman (133-bet), inmasin – qo‘nmasin, o‘tirmasin (156-bet), siniqmoq – so‘lmoq, sarg‘aymoq (158-bet).

Demak, ma’nodosh so‘zlar notanish so‘z ma’nosini izohlashda foydalaniladigan samarali vositalardan biridir.

***Boshlang‘ich sinf ona tili darslarida ma’nodosh so‘zlar ustida
bajariladigan qo‘shimcha mashqlar***

Boshlang‘ich sinflarda ma’nodosh so‘zlarga oid quyidagicha qo‘shimcha mashqlardan foydalanish mumkin:

1. O‘quvchilarda o‘zbek tilidagi ma’nodosh so‘zlarni ajrata olish ko‘nikmasini shakllantirish uchun ularga kichikroq va tushunarli matndan ma’nodosh so‘zlarni topishni topshirish mumkin. Masalan, bunday mashqlarni quyidagicha matnda o‘tkazish mumkin.

Bahor

Bahor. Kunlar iliqlashgan. Daraxtlar oq, pushti gullarga burkangan. Moviy osmonni tez-tez bulut qoplab, yomg‘ir yog‘adi. Yomg‘irdan so‘ng zangori osmonda go‘zal kamalak paydo bo‘ladi. Kamalakning ko‘rkam ranglari ko‘zni quvontiradi. Baland tog‘larning yuksak cho‘qqilaridagi qorlar eriy boshlagan.

Topshiriqlar:

1. Matndan chiroyli, baland, moviy so‘zlariga ma’nodosh so‘zlarni topib, tagiga chizing.

2. Tagiga chizilgan so‘zlarni “Ma’nodosh so‘zlar” sarlavhasi ostida yozing. O‘quvchilar topshiriqni quyidagicha bajaradi:

Ma’nodosh so‘zlar:

Chiroyli = go‘zal, ko‘rkam.

Baland = yuksak.

Moviy = zangori.

2. Soʻzlar orasidagi maʼnodoshlik munosabatini tushunishga soʻzlar aralash holda berilgan roʻyxatdan maʼnodosh soʻzlarni aniqlash va guruhlashga oid mashqlar ham yordam beradi.

Birinchi vaqtda oʻquvchilarga faqat soʻzlar roʻyxati emas, ajratilgan sinonimik guruhlarning dominantasi ham beriladi.

Mashq. Quyida ajratib koʻrsatilgan soʻzlarga berilgan soʻzlar ichidan yaqin maʼnolilarni topib namunadagidek yozing.

Namuna: koʻrkam – chiroyli.

Koʻrkam, sezgir, katta, chaqqon, epchil, ziyrak, ulkan, shod, jasur, xursand, qahramon.

Mashqni quyidagicha bajaring: Avval “Maʼnodosh soʻzlar” deb sarlavha yozing. Sarlavha ostida esa ustuncha shaklida koʻrkam, epchil, ziyrak, ulkan, shod, jasur, soʻzlarini yozing.

Maʼnodosh soʻzlar

Koʻrkam –

Epchil-

Ziyrak –

Uulkan –

Shod –

Jasur –

Shundan soʻng soʻzlar roʻyxatini tartib bilan oʻqing va *koʻrkam, epchil, ziyrak, ulkan, shod, jasur* soʻzlariga maʼnodosh soʻzlarni bu soʻzlarning toʻgʻrisiga yozing. Oʻquvchilar bu topshiriqni quyidagicha bajaradi:

Koʻrkam – chiroyli;

Epchil – chaqqon;

Ziyrak – sezgir;

Uulkan – katta;

Shod – xursand;

Jasur – mard.

3. Berilgan soʻzga sinonim tanlash . Oʻqituvchi oʻtini oʻtganda *osmon* soʻzini, sifatni oʻtganda *mazali*, feʼlni oʻtganda *koʻnikmoq* soʻzlarini aytadi. Oʻquvchilar bu soʻzlarga sinonim tanlaydi: *osmon* – *koʻk, samo, falak*; *mazali* – *lazzatli, laziz, totli*; *koʻnikmoq* – *oʻrganmoq, odatlanmoq, odat qilmoq* kabi.

4. Tushirib qoldirilgan sinonim soʻzlarni oʻz oʻrniga qoʻyib, matnni koʻchirish. Bunda yozilishi kerak boʻlgan sinonim soʻzlar roʻyxati tekshirish uchun beriladi. Oʻquvchilar sinonimlarni oʻrniga qoʻyib, ularning qoʻllanilishidagi farqni tushuntiradi.

5. Maʼnodosh soʻzlardan mosini qoʻyib gaplarni koʻchirish. Buning uchun sinonim soʻzlar qatori qavs ichida beriladi, talaba gapning mazmuniga mosini tanlab gapni koʻchiradi: Daryo suvuni (bahor, koʻklam,) toshirar, odam qadrini (mehnat, ish) oshirar. Oltin (oʻt, olov, alanga)da, odam (ish, mehnat)da bilinadi. Birlashgan (yov, dushman)ni yengar.

6. Sinonim soʻzlar qatoridan foydalanib didaktik material tuzish va u bilan mashq ishlash. Buning uchun toʻrtta sinonimik qatordagi soʻzlar tanlanadi va 16 katakka aralash joylashtiriladi. Oʻqituvchi shu katakchalardagi bir soʻzni aytadi. Masalan, chiroyli. Oʻquvchilar shu soʻzga yaqin maʼnoli soʻz (sinonim)ni katakchalardan topib aytadi: *goʻzal, dilbar, sohibjamol, husndor, xushroy*. Sinonimik qatordagi soʻzlar bilan soʻz birikmasi tuziladi: chiroyli shahar, goʻzal manzara, sohibjamol malika va hokazo. Soʻngra oʻquvchilarga shu soʻz birikmalari ishtirokida gap tuzish taklif qilinadi.

7. Berilgan soʻzlarga maʼnodosh soʻz tanlab, ularni almashtirishga doir turli xildagi mashqlar ham soʻzlar orasidagi maʼnodoshlikni tushunishga yordam beradi.

1. Gaplardagi ajratib koʻrsatilgan soʻzlarni qavs ichida berilgan soʻzlarning qaysi biri bilan almashtirish mumkin?

1. Anhordan sharqirab *tinuq* suv oqiyapti (sovuq, zilol, shirin).

2. *Issiq* yoz boshlandi (toʻkin-sochin, ajoyib, jazirama) .

3. *Baland* tog‘larning cho‘qqisi qor bilan qoplangan (haybatli, ulkan, yuksak).

4. Bugun matematika darsida *qiyin* masalani yechdik (qiziqarli, og‘ir, g‘alati).

2. So‘z birikmalaridagi sifatlarni yaqin ma’noli so‘zlar bilan almashtiring.

Mayin shamol –

Toza uy –

Noto‘g‘ri javob –

Sezgir tulki –

Rost gap –

Og‘ir yuk –

Namuna: Mayin shamol – yoqimli shamol.

8. O‘quvchilar lug‘atini faollashtirish usullaridan biri sinonim so‘zlarning leksik birikuvchanligi ustida ishlashdir. U yoki bu sinonim so‘zni qanday so‘zlar bilan qo‘llash mumkin-u, qanday so‘zlar bilan qo‘llash mumkin emasligiga doir bunday ishni ma’nodosh so‘zlar vositasida so‘z birikmalari tuzishni o‘z ichiga olgan mashqlar ko‘rinishida bajarish lozim. Bunday mashqlarning ahamiyati shundaki, ular ma’nodosh so‘zlarni passiv bilishdan faol qo‘llashga o‘tishga yordam beradi.

Shunday mashqqa misol keltiramiz.

So‘zni uning ma’nosiga mos otlar bilan bog‘lab ko‘chiring.

Qari, keksa (ot, ayol, tol).

Kuchsiz, ojiz, nimjon (shamol, bola, kampir).

Toza, ozoda, beg‘ubor (suv, osmon, uy).

Uzoq, olis, yiroq (vaqt, yo‘l, shahar).

Tinch, sokin, (dengiz, hayot).

Namuna: Qari ot, qari tol, keksa ayol.

9. Sinonim so‘zlar ustida bajariladigan mashqlarning oxirgi maqsadi o‘quvchilarni fikrini ifodalash uchun o‘z lug‘at boyligidan sinonim so‘zlarni tanlab ishlatishga o‘rgatishdir. Shuning uchun ma’nodosh so‘zlar ustida bajariladigan

mashqlar tizimida o'quvchilarni o'z nutqida ma'nodosh so'zlarni qo'llashga o'rgatadigan ijodiy mashqlar alohida o'rin tutishi lozim. Bunday mashqlar rasmga qarab yoki o'tkazilgan sayohat, o'qilgan hikoya yuzasidan yoziladigan insho ko'rinishida bo'ladi. Masalan, tog'ga sayohat haqida yoziladigan inshoda o'qituvchi baland, yuksak (tog', cho'qqi), katta, ulkan (xarsang, qoya), toza, zilol (suv, havo), chiroyli, go'zal (gullar, manzara) kabi ma'nodosh so'zlarni qo'llashni taklif qiladi.

O'quvchilar berilgan barcha so'zga ma'nodosh so'z topa olmasligi mumkin. Shuning uchun ularga ma'nodosh so'zlar lug'ati kerak bo'ladi. Biroq hozirgi kunda boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun ma'nodosh so'zlar lug'ati mavjud emas. Binobarin, hozircha "O'zbek tilining izohli lug'ati" va Azim Hojiyev tomonidan tuzilgan "O'zbek tili sinonimlarining izohli lug'ati"dan (Toshkent: "O'qituvchi", 1974) foydalanishga to'g'ri keladi.

Boshlang'ich sinflarda antonimlar ustida ishlash

Boshlang'ich sinflar uchun ona tili fanidan tuzilgan amaliy dastur o'quvchilarni nafaqat ma'nodosh so'zlar, balki qarama-qarshi ma'noli so'zlar bilan ham amaliy jihatdan tanishtirishni ko'zda tutadi. Antonimlar – tilning juda kuchli uslubiy vositasi. Ular nutqni jonlantiradi, uni yanada ravshan va obrazli qiladi.

Bundan tashqari antonimlar ustida bajariladigan mashqlar o'quvchilardan qiyoslash, taqqoslash, zidlash kabi mantiqiy amallarni qo'llashi talab qiladi va bu bilan bolalarning fikrlash qobiliyatini o'stirishga yordam beradi.

Bizningcha, boshlang'ich sinflardagi lug'at ishi birinchi navbatda o'quvchilarning ona tili va o'qish kitobi darsliklarida mavjud so'zlarni faol o'zlashtirishiga yo'naltirilgan bo'lishi kerak. Shuning uchun antonimlar ustida bajariladigan mashqlar asosida ona tili va o'qish darsliklaridagi leksik material ustida bajarilishi kerak.

Biroq ona tili darsliklarida antonimlar amaliy jihatdan o'zlashtirish uchun mo'ljallangan mashqlarning juda kamligi o'qituvchining ishini birmuncha qiyinlashtiradi. Ammo darslikdagi bu yetishmovchilikni osonlik bilan bartaraf qilish

mumkin, chunki darslikda berilgan mashqlarning leksik tarkibida antonimga ega bo‘la oladigan, binobarin, qarama-qarshi ma’noli so‘zlar juftligi hosil qilinadigan mashqlardan foydalanish mumkin.

Boshlang‘ich siflarda qarama-qarshi ma’noli so‘zlar ustida quyidagi mashq turlaridan foydalanish mumkin:

- 1) berilgan so‘zlarga antonim topish;
- 2) ko‘rsatilgan matndan qarama-qarshi ma’noli so‘zlarni topish;
- 3) berilgan matndagi ajratib ko‘rsatilgan so‘zlarni ularning antonimi bilan almashtirish;
- 4) antonimik ma’noga ega bo‘lgan gaplarni yozib tugatish;
- 5) keltirilgan antonimik juftlik ishtirokida gap tuzish.

Berilgan so‘zlarga antonim tanlashga doir mashqlar qo‘yilgan maqsadga bog‘liq ravishda bolalarga turli ko‘rinishda taklif qilinishi mumkin. Boshida faqat antonim topish kerak bo‘lgan so‘zlar emas, balki shu antonimlarning o‘zi ham alohida ro‘yxat qilib beriladi. O‘quvchilarning vazifasi bu ro‘yxatdan kerakli so‘zlarni tanlab olishdan iborat bo‘ladi.

2-sinf ona tili darsligidagi [22] 143-mashqni ko‘rib o‘tamiz. Mashqda tuya, ot, fil, tulki, sigir, quyon kabi hayvonlarning, chumchuq, musicha kabi qushlarning rasmi berilgan. Rasmladan so‘ng quyidagicha topshiriq berilgan: Nuqtalar o‘rniga *katta* yoki *kichik* so‘zini qo‘yib, gaplarni yozing. Namuna: *O‘rdak g‘ozdan kichik.*

Shundan keyin quyidagi gaplar keltirilgan:

Ot tuyadan Sigir fildan Tulki quyondan Kaptar chumchuqdan

Bu mashq o‘quvchilarning antonim so‘zlar bilan ilk tanishuvidir.

Albatta, antonimlarni topishga oid mashqlar o‘quvchilarga antonimlardan o‘z nutqiy faoliyatida foydalana olish ko‘nikmalarini shakllantirish uchun yetarli emas. Buning uchun o‘quvchilar mustaqil ravishda o‘z lug‘at boyligidan antonim tanlaydigan mashqlar, shuningdek, o‘quvchilar yana mustaqil ravishda boshqa so‘zlar ichidan qarama-qarshi ma’noli so‘zlarni topib, ulardan juftlik hosil

qiladigan mashqlar zarur. Bunday mashqlarning ikkala turida ham misol keltiramiz.

1. Quyidagi soʻzlarga qarama-qarshi maʼnoli soʻzlar topib yozing.

Tor –.....

Baland –.....

Qora –.....

Katta –

Yoʻgʻon –

Issiq –.....

Och –

2. Quyidagi soʻzlar ichidan qarama-qarshi maʼnoli soʻzlarni topib, juft holda yozing. *Qattiq, eski, sodda, arzon, yangi, yumshoq, qimmat, ayyor, toʻgʻri, yengil, semiz, quvnoq, ogʻir, egri, baland, oriq, qisqa*. Qaysi soʻzlar ortiqcha boʻlib chiqadi? Nima uchun? Bu soʻzlarni alohida yozing.

Antonim sifatlar ustida bajariladigan mashqlar ichida oʻquvchi berilgan soʻzlarga ham sinonim, ham antonim soʻzlar topishi kerak boʻladigan kombinatsiyalangan mashqlar alohida oʻrin tutadi. Bunday mashqlarning ahamiyati shundaki, ular antonimlarni ham, sinonimlarni ham yaxshiroq oʻzlashtirishga yordam beradi.

Mana shunday mashqqa misol: Berilgan soʻzlarga avval yaqin maʼnoli, keyin esa qarama-qarshi maʼnoli soʻzlar tanlang.

Jasur,,,,

Toza,,,,

Orik,,,

Ozod,,,

Notanish,,,

Namuna : Jasur, qoʻrqmas – qoʻrqoq.

Antonim soʻzlar quyidagi belgilarga koʻra qarama-qarshi qoʻyiladi: ogʻirlik, harorat, makondagi joylashuvi, rangi, vaqtiga koʻra va hokazo.

Tajriba shuni ko'rsatadiki. 3, 4-sinf o'quvchilari antonimlarning umumiy semantik asosini bimalol aniqlay oladi. Bunday mashqni quyidagicha bajartirish mumkin.

Quyidagi qarama-qarshi ma'noli sifat juftliklaridan qaysilari og'irlik, ta'm, rang, joy, vaqt, kishining holatini bildirishini yozing.

Kasal – sog', uzoq – yaqin, oq – qora, shirin – achchiq, og'ir – yengil, erta – kech, shod – g'amgin.

Namuna : Rang: oq – qora.

Alohida sifatlarga antonim tanlashga oid mashqlar bilan birga qarama-qarshi ma'noli sifatlar aniq ma'noga ega bo'ladigan so'z birikmasi ustida bajariladigan mashqlar bajartirish ham zarur. So'z birikmasi ustida bajariladigan mashqlar ajratilgan sifatlarga qarama-qarshi ma'noli sifatlar topishdan iborat.

Quyidagi so'z birikmalaridagi ostida chizilgan sifatlarni qarama-qarshi ma'noli sifatlar bilan almashtiring.

Qiziqarli o'yin –

Og'ir yuk –

Rost gap –

Issiq kun –

Keng xona –

Namuna :

Keng xona – tor xona.

O'quvchilarga ayni bir sifatning o'zi qaysi ma'noda ishlatilganiga qarab har xil antonimlarga ega. Bo'lishi mumkinligini ko'rsatish uchun ularga quyidagicha mashqlarni taklif qilish mumkin. So'z birikmalaridagi ostiga chizilgan sifatlarni qarama-qarshi ma'noli sifatlar bilan almashtiring.

Og'ir yuk –

Og'ir masala –

To'g'ri tayoq –

To'g'ri javob –

O'quvchilar mashqni quyidagicha bajaradi.

Og'ir yuk – yengil yuk;

Og'ir masala – oson masala ;

To'g'ri tayoq – egri tayoq;

To'g'ri javob – noto'g'ri javob.

O'qituvchi savol beradi: O'ylab ko'ringlar, nima uchun ayni bir so'zga turlicha qarama-qarshi ma'noli so'zlarni yozdingiz?

Alohida so'zlar va so'z birikmalariga antonim topishdan tashqari boshlang'ich sinflarda matn ichidan qarama-qarshi ma'noli sifatlar topishga doir mashqlar ham bajartirish lozim. Buning uchun ona tili darsligidagi antonim sifatlar qo'llangan yoki antonim so'z topish mumkin bo'lgan gaplar uchraydigan mashqlar matnidan foydalanish mumkin. O'quvchilarga mashqdan qarama-qarshi ma'noli so'z tanlash mumkin bo'lgan sifatlarni topish topshirib, biz o'quvchida so'z va uning ma'nosiga e'tibor bilan qarash qobiliyatini tarbiyalaymiz va bu bilan bolalar lug'atini faollashtiramiz.

Antonimlarni ajratish uchun o'quvchilarga maxsus tanlangan matnlarni tavsiya qilish ham maqsadga muvofiq. Buning uchun ayniqsa maqol juda qulay vositadir.

Quyidagi maqollardagi qarama-qarshi ma'noli sifatlarni toping.

1. *Kattaga xizmatda, kichikka hurmatda bo'l.*
2. *Egri o'tirsang ham, to'g'ri gapir.*
3. *Yomon gap bosh qozig'i, yaxshi gap jon ozig'i.*
4. *Achchiq savol berib, shirin javob kutma.*
5. *Gapni oz so'zla, ishni ko'p ko'zla.*

Ona tili darslarida uyadosh so'zlar ustida ishlash

Uyadosh so'zlar ustida ishlash ham lug'at ishining muhim tarkibiy qismidir. Uyadosh so'zlar deganda bir turga oid narsa, harakat, belgini bildiruvchi so'zlar tushuniladi. Masalan, *ot – saman, to'riq, qorabayir, jiylon, yo'rg'a* kabi. Biror jinsga mansub narsa-daraxt, meva, gul, qovun, hayvon, baliq

va hokazoning turlari nomini bilish o'quvchilar lug'at boyligini oshiruvchi asosiy vositadir. Narsa-buyumlar turining nomini bilish o'quvchiga fikrni aniq ifodalashga imkon beradi. Masalan, 1-sinf o'quvchilari otning bolasini *otcha*, qo'yning bolasini *qo'ycha*, echkining bolasini *echkicha*, sigirning bolasini *sigircha* deb ataydi. O'qituvchi bu hayvonlarning bolasi alohida so'z bilan ifodalanishini aytadi: otning bolasi – toy, qo'yning bolasi – qo'zi, echkining bolasi – uloq, sigirning bolasi –buzoq. Buni bilgan o'quvchilar: Sigirimiz sigircha tug'di emas, Sigirimiz buzoqcha tug'di deb gap tuzadi. Uyadosh so'zlarni o'rganish jarayonida umumiy ma'noni va xususiy ma'noli so'zlar ustida, ularning ishlatilish o'rinlari ustida ishlash zarur. Bu ish uyadosh so'zlardan foydalanib, tabiat manzarasi tasviriga oid matn yaratish bilan yakunlanadi.

Uyadosh so'zlar bo'yicha quyidagi mashqlar bajarish mumkin:

a) umumiy nom – jins nomini ataydigan so'zlarni berib, ularning turini atovchi so'zlar topish. Masalan, o'quvchilarga daraxt, ot, idish, baliq kabi so'zlar beriladi. O'quvchilar quyidagicha uyadosh so'zlar topadi:

1. Daraxt – tol, terak, qayin, chinor, o'rik, jiya.
2. Ot – baytal, ayg'ir, saman, jiyron.
3. Idish – tovoq, kosa, payola, stakan, choynak, qozon.
4. Baliq – laqqa, cho'rtan, zog'ora.

O'qituvchi bu qatorlarni to'ldiradi. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, uyadosh so'zlar alohida-alohida narsalarni atab kelgani tufayli o'qituvchi bu so'zlar atagan narsa, hayvon, o'simliklarning rasmini ham o'quvchilarga ko'rsatsa bolalar yanada kengroq, batafsilroq ma'lumot oladi.

b) turli uyaga mansub so'zlar bir joyda, aralash holda beriladi. O'quvchilarga bu so'zlarni alohida-alohida uyaga ajratish topshiriladi. Masalan, quyidagi so'zlar beriladi: *atirgul, ro'mol, amiri, lola, salla, jambil, handalak, laqqa, nilufar, telpak, bo'rikalla, zog'ora, rayhon, do'ppi, cho'rtan,*

boltayutar, sadarayhon. O'quvchilar bu so'zlarni to'rt guruhga ajratadi: 1. Gul. 2. Qovun, 3. Bosh kiyim, 4. Baliq.

O'qituvchi ma'lum uyalarga umumiy nomi jins nomini bildiruvchi so'zlarni o'quvchilarga yozdirib, ularga bu jinsning turi, navi, xillarini bildiruvchi so'zlar va ularning ma'nosini topishni vazifa qilib beradi. O'quvchilar bu vazifani bajarishda turli lug'at, kitoblardan foydalanadi, izlanadi. Demak, uyadosh so'zlarni izlash o'quvchilarni lug'at bilan ishlashga o'rgatadi.

Uyadosh so'zlarni tushuntirishning eng samarali usuli xususiy ma'noli so'zlarning rasmini ko'rsatishdir. Masalan, uzum uyadoshlarini tushuntirishda o'quvchilarga *husayni, kishmish, kelinbarmoq, toyfi* kabi uzumlarning rasmi ko'rsatilishi kerak.

Bu yerda ona tili darslarida uyadosh so'zlar ustida ishlash jarayonini 4-sinf ona tili darsligi bilan ishlash misolida ko'rsatib beramiz. Boshlang'ich sinf ona tili darsliklarida uyadosh so'zlarga bag'ishlangan maxsus mashqlar bor. Misol uchun 2-sinf ona tili darsligidagi 172-mashqning sharti quyidagicha: Rasmda tasvirlangan hayvonlarning nomini ayting. Shartdan so'ng echki, it, maymun, sigir, ot, mushuk, bo'ri, yo'lbars rasmi berilgan. Rasmdan so'ng avval uy hayvonlari nomini, keyin yovvoyi hayvonlarning nomini yozing deb topshiriq berilgan.

Uy hayvonlari: sigir,

Yovvoyi hayvonlar: yo'lbars

O'quvchilar hayvonlar nomini shu ikki uyaga kiritish bilan tasnifni amalga oshiradi. Bu mashqqa qo'shimcha qilib o'quvchilarga gaplar tuzdirish mumkin: *Mushuk – uy hayvoni. Yo'lbars – yovvoyi hayvon.*

Shu darslikdagi 159-mashqning sharti quyidagicha: "Buzoq, bo'taloq, toychoq, qo'zichoq qaysi uy hayvonlarining bolasi" Hayvonlar nomini, ularning bolalari nomi bilan yonma-yon yozing. Namuna: Sigir – buzoq,

Bu mashq o‘quvchilar lug‘at boyligini oshirishda juda katta ahamiyatga ega. Bolalar hayvonlar bolasi nomini bilmasa, otning bolasi, qo‘yning bolasi, sigirning bolasi kabi so‘z birikmalaridan foydalanadi. Bu esa ularning nutqini kambag‘allashtiradi.

O‘qituvchi o‘quvchilarga umumiy nomni bildiruvchi so‘zni aytib, uning turlarini bildiruvchi so‘zlarni topishni vazifa qilib berishi mumkin.

Qush: bulbul, chittak,

Daraxt: terak, tol,

Meva: olma, nok,

Hasharot: qo‘ng‘iz, chumoli, kapalak

Shundan so‘ng har bir uyadosh so‘zning ma‘nosi ustida ishlanadi. Masalan, Bulbul qanday qush? Olma qanday meva?

2-sinf ona tili darsligida ayrim o‘simlik, qush, hayvonlarga bag‘ishlangan matnlar bor: “Na‘matak” (98-mashq), Sa‘va (100-mashq), “Kashtan daraxti” (223-mashq), “Gulbeor” (309-mashq), “Chumchuq” (312-mashq), shotut haqidagi matn (313-mashq). Bunday matnlar o‘quvchilarning muayyan qush, hayvon, hasharot, o‘simlik haqidagi tasavvurini kengaytiradi.

O‘qituvchi o‘quvchilarga darsda yoki uyda shunday matnlar tuzishni topshirishi ham mumkin.

O‘qish darslarida uyadosh so‘zlar ustida ishlash. O‘qish darslarida ham o‘quvchilar nutqini uyadosh so‘zlar bilan boyitish imkoniyati katta. O‘qish darslarida uyadosh so‘zlar ustida ishlashda “O‘qish kitobi” darsligidagi badiiy matnlarda qo‘llangan uyadosh so‘zlar ustida ish olib boriladi.

3-sinf “O‘qish kitobi” darsligidagi “Oltin kuz” matnida meva va qush uyadoshlariga mansub so‘zlar qo‘llangan. Masalan, mana bu gapda mevalar nomi uyushib kelgan: *Kuzning birinchi oyida nok, olma, shaftoli, uzum, anjir va anorlar g‘arq pishadi.*

Quyidagi gapda esa qushlar nomi uyushib kelgan: *Kuz kelib, havo soviy boshlaganda **turnalar, chugurchiqlar, qaldirg'ochlar, uzunqanotlar, ko'kqarg'alar** yurtimizdan issiq tomonlarga uchib ketadi.*

O'quvchilar matnni o'qib bo'lgach, o'quvchilar bilan quyidagicha savol javob beradi:

- O'quvchilar, matndagi qush nomini bildiruvchi so'zlarni topib ayting.
- Turna, chug'urchiq, qaldirg'och, uzunqanot, ko'kqarg'a.
- Chug'uchiq qanaqa qush?
- Uzunqanot-chi?
- Ko'kqarg'a-chi?

O'quvchilar bu savollarga javob bera olmasa, o'qituvchi lug'atdan bu so'zlarning izohini o'qitadi. Buning uchun "O'zbek tilining izohli lug'ati" va F. Safarov, S. Safarovning "Boshlang'ich sinf o'quvcilari uchun izohli lug'at" kitobidan foydalanilish mumkin.

Chug'urchiq – chumchuqsimonlar turiga mansub, qora patli, g'ala yuradigan, yerda va darxtda harakatlanishga moslashgan, hasharot va mevalar bilan oziqlanadigan qush .

Uzunqanot – qaldirg'ochlarning qanotli bo'yiga nisbatan uzun bir turi .

Ko'kqarg'a – yashil-ko'k patli ko'klamda keladigan qush.

Birgina so'z bilan berilgan izoh yetarli emas. O'qituvchi o'quvchilarga bu qushlarning rasmini ham ko'rsatishi zarur.

Matnda qo'llangan *nok, shaftoli, olma, uzum, anor* so'zlari anglatgan mevalar o'quvchilarga tanish. Shuning uchun ular ustida alohida to'xtalishning zarurati yo'q.

Matnda quyidagicha gap bor: Tuyoqli jonivorlarning ham hayoti sezilarli o'zgaradi. Bu gapdagi "tuyoqli jonivorlar" so'z birikmasiga izoh berish lozim. O'qituvchi bu birikmaga quyidagicha izoh beradi: "O'quvchilar tuyoqli jonivorlar deganda tuyog'i bor hayvonlar tushuladi. Bularga ot, sigir, qo'y, echki, tuya, eshak, bug'u, kiyik kabi hayvonlar kiradi".

4-sinf “O‘qish kitobi” darsligida Sh.Sa’dullayevning “Qovun sayli” hikoyasi berilgan. Bu hikoya qovun va tarvuz uyadoshlariga mansub so‘zlar qo‘llangan. O‘qituvchi bu hikoyani o‘qitish jarayonida o‘quvchilarga quyidagicha savol beradi:

– O‘quvchilar, hikoyada qovun nomini bildiruvchi qanday so‘zlar qo‘llangan?
– Handalak, umbirvoqi, ko‘kalapish, doniyor so‘zlari, – deb javob beradi o‘quvchilar.

O‘qituvchi: Kelinglar o‘quvchilar, handalak, umbirvoqi, ko‘kalapish, doniyor qanday qovun ekanligini lug‘atdan o‘qiymiz, – deb taklif qiladi.

O‘quvchilar bu so‘zlarni lug‘atdan topib o‘qiydi:

Handalak – qovunning yumaloq, maydaroq, xushbo‘y eti, yumshoq, ertaroq yetishadigan bir turi .

Umbirvoqi – shakli tuxumsimon tusi sariq aralash qoramtir yashil, sersuv, shirin, kechpishar qovun .

O‘quvchilar izohni o‘qiganidan so‘ng o‘qituvchi ularga bu qovunlarning rasmini ko‘rsatadi.

Shundan so‘ng o‘qituvchi o‘quvchilarga qo‘zivoy tarvuz haqida ma’lumot beradi: Qo‘zivoy – cho‘ziq-sharsimon, yuzasi silliq, po‘sti qoramtir yashil, eti pushti rangli, sersuv, kechpishar tarvuz navi .

Darslikda berilgan “Qo‘rqo‘q” hikoyasida qo‘y uyadoshlik qatoriga manzub *qo‘y, sovliq qo‘zichoq* so‘zlari uchraydi. Ushbu so‘zlar qo‘llangan gaplarni keltiramiz .

1. Katta sovliq qo‘rg‘oni tun ichidan sho‘ng‘ib chiqadi .
2. U qo‘yni ko‘rgan zahoti xuddi yo‘ldosh topilganday qo‘rquvni unutdi .
3. Yashin yalt etganda, sel betida qalqib oqib borayotgan qo‘zichoq ko‘zi tushdi.

Bu gapda qo‘llangan *sovliq, qo‘zichoq* so‘zlari uyadosh so‘z bo‘lsa, *qo‘y* so‘zi jins nomini bildiruvchi uya so‘zdir.

Bu matndagi uyadosh soʻzlarni oʻquvchilar faol lugʻatiga kiritish uchun quyidagicha ish olib borish mumkin.

1. Oʻqituvchi oʻquvchilar savol-javob qiladi.

– Oʻquvchilar, matndan qoʻy maʼnosini bildiruvchi soʻzlarni topinglar-chi?

– Qoʻy, sovliq, qoʻzichoq.

– Qoʻzichoq nima, bolalar?

– Qoʻyning bolasi.

– Sovliq-chi?

Oʻquvchilar, albatta, bunga javob bera olmaydi. Shunda oʻqituvchi oʻquvchilarga bu soʻzning maʼnosini lugʻatdan topib oʻqishni taklif qiladi Oʻquvchilar topib oʻqiydi.

– Sovliq – qoʻzilagan, sogʻiladigan qoʻy: ona qoʻy.

– Oʻquvchilar, qoʻyning erkagi nima deb atalishini bilasizmi?

– Qoʻchqor deyiladi.

– Qoʻzichoq, qoʻchqor, sovliq soʻzlarini bitta soʻz bilan nima deb atash mumkin?

– Qoʻy deb atash mumkin.

– Demak, oʻquvchilar qoʻy soʻzi umumiy nomni, qoʻzichoq, qoʻchqor, sovliq soʻzlari uning turlarini bildirar ekan.

2. Shundan soʻng oʻqituvchi bu soʻzlar ishtirokida gap yoki kichik matn tuzishni topshirishi mumkin.

4-sinf “Oʻqish kitobi” darsligida shoir Mirtemirning “Qush tili” sheʼri keltirilgan. Bu sheʼrda bir qancha qushning nomi keltirilgan:

Qushlar, hey, ketmang uzoq,

Qoʻymayman sizga tuzoq.

Boʻztoʻrgʻay, boʻzlashaylik,

Turumtoy, soʻzlashaylik

Qaldirgʻoch, quvlashaylik

Betilmoch, quvnashaylik

Sa'vaoy, sayrashaylik
Soyma-soy yayrashaylik
Qushlar, hey, ketmang uzoq,
Qo'ymayman sizga tuzoq.
Cho'chimang, hoy chumchuqlar,
Laylak-u, chug'urchuqlar
Ko'kqarg'a-yu, zarg'aldoq
Bulduriq ham tuvaloq
Suqsur, oqqush, tustovuq
Sayranglar menga yovuq
O'ylamangki, otgum tosh,
O'ylamangki, men bebosh
Ketmang yiroq, qushlar hey,
Go'yo yorug' tushlar hey
Qush yurti – men sevgan yurt
To'qay, tolzor, qopchig'oy
Mendan qochma, hoy burgut,
Do'stlashaylik, qarchig'ay
Kaklik, to'ti, bedana,
Sepay tariq, sedana
Keling ha, sirlashaylik,
Keling ha, tillashaylik

Bu she'rni o'tishda qush uyadoshlari ustida quyidagicha ish olib boriladi.

1.O'qituvchi o'quvchilarga she'rdagi qush nomini bildiruvchi so'zlarni o'qishni aytadi.

O'quvchilar bu so'zlarni topib o'qiydi: – Bozto'rg'ay, turumtoy, qaldirg'och, sa'vaoy, chumchuq, laylak, chug'urchiq, ko'kqarg'a, zarg'aldoq, buulduriq, tuvaloq, suqsur, oqqush, tustovuq, burgut, qarcig'ay, kaklik, to'ti, bedana.

O'qituvchi shunday savol berdi:

– Bu qushlardan qaysilarini bilasiz?

– O'quvchilar qaldirg'och, chumchuq, laylak, burgut, to'ti kabi qushlarni bilishini aytadi.

2. Shundan so'ng o'qituvchi o'quvchilarga ular bilmaydigan qushlar haqida ma'lumot berdi. U o'quvchilarga bu qushlarning izohini "Boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun izohli lug'at"dan topib o'qishni taklif qiladi. O'quvchilar topib o'qiydi:

Bo'zturg'ay – to'rg'aylar oilasiga mansub bo'z rangli, asosan qumloq va sho'r joylarda yashovchi qush.

Turumtoy – yitqich qushlar turkumining lochinsimonlar oilasiga mansub o'rmon va tog'lik joylarda yashaydigan qush. .

Tustovuq – tovuqlar zotiga mansub, patlari chiroyli asosan to'qaylarda yashaydigan qush; qirg'ovul – .

Sa'va – rang – barang patli sayroqi qush.

Chug'urchiq – chunchuqsimonlar turiga mansub qora patli gala bo'lib yuradigan, hashrot va mevalar bilan oziqlanadigan qush.

Ko'kqarg'a – yashil, ko'k patli ko'klamda kelaidgan qush.

Zarg'aldoq – qanotlari qoramtir, o'zi sariq sayroqi qush .

Bulduruq – kaptarsimonlar oilasiga mansub, ola-bula patli, ovlanadigan cho'l qushi, qorabovur.

Suqsur – o'rdaksimonlar oilasiga mansub, patlari uzun va ingichka qush .

Qarchig'ay – kalta qayrilma tumshuqli, tirnoqlari uzun va o'tkir, ovga solinadigan yirtqich qush.

Kaklik – tovuqsimonlar oilasiga mansub sayroqi tog' qushi.

To'ti – tropik o'rmonlarida yashaydigan, ko'pchilik turi chiroyli, rang-barang qush.

Bedana – tovuqsimonlar turkumining qirg'ovulsimonlar oilasiga mansub parranda, kichik sayroqi qush.

O'qituvchi qush nomlarining izohini o'qitish baravarida o'quvcilarga ularning rasmini ham ko'rsatib ham boradi.

3. Shundan so'ng o'qituvchi she'rdagi qushlarni turli jihatdan tasniflashga o'tadi. U shunday deydi:

– O'quvchilar, mana ko'rdingizlar, qushlar ko'rinishi va xususiyatiga ko'ra turlicha bo'lar ekan.

– Endi sizlarga bir topshriq, daftaringizda she'rdagi qushlarni 2 guruhga: yirtqich va hasharotxo'r qushlar guruhiga bo'lib yozing.

O'quvchilar qushlarni 2 ga bo'lib boradi:

Yirtqich qushlar: turumtoy, burgut, qaldirg'och;

hasharotxo'r qushlar: bo'zturg'ay, qaldirg'och, sa'va, chumchuq, laylak, chug'urchiq, ko'kqarg'a, zarg'aldoq, bulduriq, tuvaloq, suqsur, oqqush, tustovuq, kaklik, to'ti, bedana.

– Endi o'quvchilar, bu qushlarni sayroqi qushlar va sayramaydigan qushlarga ajtaramiz.

O'quvchilar ajratadi.

Sayroqi qushlar

Sa'va

Zarg'aldoq

Kaklik

Bedana

Bo'zto'rg'ay

Qaldirg'och

Chug'urchiq

Oqqush

Tustovuq

Burgut

Qarchig'ay

O'qituvchi bu tasnifni amalga oshirshda o'quvchilarga yordam beradi.

Sayramaydigan qushlar

Turumtoy

Chumchuq

Laylak

Ko'kqarg'a

Bulduriq

Tuvaloq

Suqsur

Tasnif amalga oshirilgandan so'ng o'qituvchi shunday savol beradi: – Qaysi guruhga mansub so'zlar *sayradi* so'zi bilan bog'lana oladi?

O'quvchilar sayroqi qushlar guruhidagi so'zlar deb javob beradi.

4. Shundan so'ng o'qituvchi o'quvchilarga qush nomlarini qatnashtirib 4 – 5 ta gap tuzishni topshiradi.

Bunday topshiriqlarni bajarish natijasida o'quvchilar nutqi qush uyadoshlariga mansub so'zlar bilan boyiydi. Ularning qushlar haqidagi tasavvuri kengayadi.

Darslikdagi “Tushovli to'y” hikoyasida ot uyadoshlariga oid saman, toy, qashqa, ayg'ir so'zlari uchraydi. Bu hikoyani o'tishda uyadosh so'zlar ustida quyidagi ish olib boriladi. O'qituvchi hikoyadan ot ma'nosini bildiruvchi so'zni topishni so'raydi. O'quvchilar *saman, toy, qashqa, ayg'ir* so'zlarini topib aytadi. Shundan so'ng o'qituvchi bu so'zlarning ma'nosini lug'atdan topib o'qishni taklif qiladi. O'quvchilar bu so'zlarning ma'nosini lug'atdan topib o'qiydi.

Saman och, malla, sarg'ish tusli ot.

Toy otning bir yoshdan 2 yoshgacha bo'lgan bolasi.

Qashqa ot mol yoki peshonasidagi oq joy oq nishona, shunday nishonali ot – mol .

Ayg'ir – 3-4 yoshli erkak ot, umuman erkak ot.

Shundan so'ng o'qituvchi o'quvchilar bilan quyidagicha savol-javob qiladi. O'quvchilar toy otning bir yoshdan ikki yoshgacha bolasi bo'lsa, otning bir yoshgacha bo'lgan bolasi nima deyiladi?

O'quvchilar javob berolmasa, o'qituvchi shunday izoh beradi:

– Otning bir yoshgacha bo'lgan bolasi, o'quvchilar, qulun deyiladi. Ikki yoshdan uch yoshgacha bo'lgan bolasi esa qo'non, 3 yoshdan katta ot esa do'non deyiladi.

– Ayg'ir erkak ot bo'lsa, urg'ochi ot nima deyiladi?

O'quvchilarning ko'pchiligi, albatta, buni bilmaydi. Shuning uchun o'qituvchining o'zi izoh beradi.

– Urg‘ochi ot baytal deyiladi, bolali baytal esa biya deyiladi.

Darslikdagi Yusuf Xos Xojib qalamiga mansub “Bahor ta’rifida” matnida rang va qush uyadoshlariga mansub so‘zlar qo‘llangan. Quyidagi gapda rang bildiruvchi sifatlar bahor faslini juda go‘zal tarzda tasvirlashga xizmat qilgan: *Uyquga kirgan daraxtlar Yashil to‘n kiydi, oq, sariq, ko‘k, qizil rangli hurir yopinchiqlar bilan bezandi.* Quyidagi parchada esa adib qush uyadoshlaridan mahorat bilan foydalangan:

G‘oz, o‘rdak, oqqush, qilquyruqlar osmonni to‘ldirib qag‘illashib yuqori-quyi uchmoqda. Mag‘rur turnalar ko‘kda ovozini baralla yangratmoqda, tizilgan tuya karvonidek uchmoqda.

Kaklik xush ovoz bilan sayrab, qah-qah urib kulmoqda, uning tumshug‘i qon kabi qizil, qoshi esa qop-qora.

Bu parchadagi kaklik, qilquyruq so‘zlari o‘quvchilar uchun notanish.

O‘qituvchi matnni o‘qib bo‘lgach, o‘quvchilar bilan quyidagicha savol-javob qiladi:

– O‘quvchilar, matnda rang ma’nosini bildiruvchi qanday so‘zlar qo‘llanilgan?

– Yashil, oq, sariq, ko‘k, qizil so‘zlari.

– O‘quvchilar qizil, sariq ranglarning ham turli xil ko‘rinishlari bor. Masalan, qizil rangning *pushti, gulobi, qirmizi* kabi turlari, sariq rangning *za’faron, zarg‘aldoq, sarg‘ish, malla* kabi turlari bor.

Shunday deb o‘qituvchi bu ranglarning rasmini ko‘rsatadi.

Shundan so‘ng matndagi qush nomlari ustida ishlanadi. O‘qituvchi o‘quvchilarga matndan qushlar nomini bildiruvchi so‘zlarni toptirib, ularning izohini lug‘atdan o‘qitadi.

O‘quvchilar qushlar haqida ma’lumot olgandan so‘ng o‘qituvchi o‘quvchilarga shunday deb savol beradi :

– Yozuvchi qushlar hayotini qanday tasvirlagan? Matndan qushlar haqidagi gaplarni o‘qing.

O'quvchilar matndagi qushlarning xatti-harakati tasvirlangan gaplarni o'qiydi.

Matndagi *qilquyruq* so'zi o'quvchilar uchun tushunarsiz. Shuning uchun o'qituvchi bu so'zning izohini lug'atdan o'qib beradi. Qilquyruq – dumi uzun va ingichka qush. So'ng bu qushning rasmini ko'rsatadi.

“Jala darakchisi” she'ridagi jala so'zi yomg'ir so'zining uyadoshidir. Jala so'ziga “Boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun izohli lug'at”da “shiddatli yomg'ir” deb izoh berilgan.

O'qituvchi jala so'zining ma'nosini izohlagach, o'quvchilar bilan quyidagicha savol-javob qiladi.

– O'quvchilar, jala yomg'irning bir turi ekan. Yomg'ir esa yog'inning bir turi. Aytinglar-chi tabiatda yana qanday yog'in turlari uchraydi ?

– Qor, do'l, – deb javob beradi o'quvchilar.

– O'quvchilar, bulardan tashqari tabiatda *shudring*, *qirov*, *bulduriq* kabi yog'in turlari ham uchraydi. Shudring – bahor, yozda kechasi havodan tushadigan musaffo tomchi. Kuzatgan bo'lsangizlar tongda daraxtkar bargida, maysalarda, gullar yuzida suv tomchilari yaltirab turadi. Ana shu tomchilar shudring deyiladi.

Qirov esa kech kuzda yerning yoki narsalarning betida hosil bo'ladigan yupqa qor zarralaridir. Qirov bulduriq ham deyiladi.

“Navro'z – bahor bayrami” matnida shirinlik, ko'kat, non, taom uyadoshlariga mansub so'zlar qo'llangan.

O'qituvchi bu matnni o'quvchilarga o'qitgach, quyidagicha topshiriq beradi: Matndan shirinlik, ko'kat, non, taomni bildiruvchi so'zlarni topib, daftaringizga yozing.

O'quvchilar yozadi:

Shirinliklar: shinni, qiyom, qandolat.

Non: chalpak, kulcha, patir, lochira.

Ko'katlar: yalpiz, ismaloq.

O'qituvchi bu so'zlarning ma'nosini lug'atdan o'qib beradi va ular bildirgan narsalarning rasmini ko'rsatadi.

Boshlang'ich sinf o'qish darslarida yuqorida ko'rsatilgan tarzda ishlash o'quvchilar nutqini uyadosh so'zlar bilan boyitadi, ularning o'simlik, hayvon, meva va boshqa hodisalar haqidagi tasavvurini kengaytiradi.

Ko'p ma'noli so'zlar ustida ishlash. Mantiqiy mashqlar.

Ko'p ma'noli so'zlar ustida ishlash. Darsliklarda ko'p ma'noli so'zlar uchrab turadi, lekin o'quvchilar uning ko'p ma'noli so'zlar uchrab turadi, lekin o'quvchilar uning ko'p ma'noli so'z ekanini bilmaydilar. Ular so'z birikmalari, gap ichida taqqoslab tushuntiriladi.

O'quvchilarga ko'p ma'noli so'z gap ichida ajratilib ko'rsatilib, uning ma'nosini tushuntirish so'raladi, so'ng o'zlariga ko'p ma'noli so'zlarni turli ma'nolarda qo'llab birikma, gap tuzdiriladi.

O'quvchilar nutqini boyitishda badiiy asardagi tasviriyy vositalarni, maqollarni yod oldirish ham muhim ahamiyatga ega bo'ladi.

Mantiqiy mashqlar. So'zlarnig biror mavzuga doir guruhini tuzish: Dorivor o'simliklar: qoqi o't, otquloq, kiyik o't va h.

Bir guruhdagi so'zlarni umumlashtirib nomlash; olma, olcha, behi – mevali daraxtlar.

Ortiqcha so'zni top: chumchuq, kaptar, musicha, mushuk, (mushuk ortiqcha).

Predmet bildirgan so'zlar bilan belgi bildirgan so'zlarni aniqlash.

Belgi bildirgan so'zlarni ma'nosiga ko'ra guruhlash.

Yaxshi hislatlarni bildirgan so'zlarni guruhlash va h.

Bunday mashqlar savod o'rgatish, ona tili, o'qish darslarida qo'llaniladi. Mavzu bilan bog'liq holda takomillashtirib, mukammallashtirib boriladi. Nazariy ma'lumotlarga asoslanib: matnda berilgan otlarning belgilarini ifodalaydigan sifatlarni tanlab qo'yish, gapda sifat bilan bog'langan otni (so'z birikmasini) aniqlab yozish; otga mos sifatlar tanlab predmetni tasvirlash, berilgan sifatlar yoki so'z birikmasi bilan gap tuzish kabi mashqlardan foydalaniladi. Mashq materialini

tanlashda –roq qo‘shimchasi bilan qo‘llangan yaxshiroq, aqilliroq kabi, shuningdek, tip-tiniq, sap-sariq kabi sifatlar ko‘proq bo‘lishiga e‘tibor beriladi. O‘quvchilarning mustaqilligi oshgan sayin mashq topshiriqlari ham asta-sekin murakkablashtira boriladi. Shunday qilib, sifatni o‘zlashtirishda uni ot bilan o‘zaro bog‘liq holda o‘rganishga asoslanadi.

Boshlang‘ich sinflar o‘quv dasturida ona tili, o‘qish bolalarning lug‘atini boyitish. Bog‘lanishli nutqni o‘stirish, adabiy-estetik tafakkurini kamol toptirish, nutq madaniyatini shakllantirish, nutq ta’sirchanligini ta’minlashning muhim omilidir deyiladi. Bu vazifalar grammatik mavzularni o‘rganish, mashq matnlarini kuzatish va tahlil qilish, maxsus lug‘aviy-grammatik mashqlar orqali bajariladi.

Ona tili o‘qitishning bosh maqsadi ham tilning jamiyatda tutgan o‘rni, vazifasi bilan belgilanadi. Til aloqa vositasi – so‘zlovchi fikr-mulohazalarini til orqali bayon qiladi, tinglovchi esa til vositalari orqali ro‘yobga chiqqan fikrni anglatadi.

Ona tili fani o‘qituvchilarni fikr bayon qilish va uni o‘qib olish faoliyatiga tayyorlaydi. Fikr til vositasida ro‘yobga chiqar ekan, har bir kishi tilni va undan foydalanishni bilishi zarur. Tilni bilish uning grammatik – qonun qoidalarini, ta’rifini o‘zlashtirishgina emas, balki ona tilning boy imkoniyatlaridan amaliy foydalana bilishdir, ya’ni fikrini og‘zaki va yozma shaklda to‘g‘ri, tushunarli va savodli ifodalay bilishdir. Bunga erishish uchun ona tili darslarida lug‘at ustida ishlashga alohida e‘tibor qaratish lozim.

Lug‘at ishida so‘zning ma’nosi talaffuzi va imlosi e‘tiborda tutiladi. Shular ustida ishlashdan asosiy maqsad ehtiyoj sezilgan paytda o‘quvchilarning nutqda foydalanishlariga erishish, o‘zgalar nutqini anglashlarini ta’minlashdir. Buning uchun o‘qituvchi ona tili darslarida qo‘llangan har bir so‘zning, ta’limiy jarayonlarda: ekskursiya, o‘zaro suhbat, turli tadbirlarda, ishlatilgan so‘zlarning ma’nosiga e‘tibor bilan qarashi, ularning qaysilari maxsus ishlashni taqozo etishini belgilab olish kerak.

Tilning lug‘at boyligini o‘quvchilar tomonidan o‘zlashtirilishi uchun ona tili

darslarida soʻzlarning quyidagi maʼnolari bilan tanishtiriladi.

1. Oʻquvchilarni notanish soʻz va iboralar bilan tanishtirish.

Oʻquvchilar darslikdagi soʻz va iboralarga birinchi marta duch kelayotgan boʻlishi mumkin. Bu soʻz yangi paydo boʻlgan soʻz boʻlmasa ham oʻquvchi uning maʼnosini bilmaydi, demak, oʻquvchi uchun yangi soʻz hisoblanadi. Masalan, 1-sinf “Ona tili” darsligida habib (doʻst) zarparda (oyna oʻrniga shaffof qogʻoz yopishtirilgan deraza parda), (magʻrur (kekkaygan, magʻrur-kamtar), kamol (har tomonlama yetuk, toʻkis, kamol topmoq-xazon boʻlmoq), xaroba (qarovsiz qolgan vayrona), qardosh (doʻst, birodar, qarindosh-urugʻ), safdosh (harbiy xizmatda birga, tashkilotda birga), xavza (daryo va koʻllarga qoʻyiladigan, uni tashkil etadigan irmoqlar yoki majmui rasm koʻrsatiladi), sarkarda (qoʻmondon, lashkarboshi), zeb (bezak, koʻrk, husn), ziynat (goʻzallik uchun xizmat qiluvchi buyum), qasr (xashamatli saroy, koʻshk) kabi soʻzlarga duch keladilar. Bunday soʻzlarning maʼnosini sinonimlar keltirib kengaytirish yoʻli bilan qarshi maʼnoli soʻzlar bilan izoh berish, gap tuzish orqali maʼnosini yechish, rasmlar orqali tushuncha hosil qilish mumkin. Bunday ishlash oʻquvchilarda soʻz maʼnolariga nisbatan sezgirlikni yuzaga keltiradi.

2. Oʻquvchilarni soʻzning yangi maʼnolari bilan tanishtirish. Oʻquvchilar koʻp maʼnoli soʻzlarning bir maʼnosini tushunsa, boshqa maʼnosini bildirmasliklari mumkin. Bolalar soʻzlarning hamma maʼnolarini birdaniga oʻzlashtirib ololmaydilar. Ularning maʼnosini oʻzlashtirish bosqichma-bosqich amalga oshiriladi. 1-2 sinfda koʻp maʼnoli soʻzning bir-ikki maʼnosi bilan tanishsa, 3-4-sinflarda yana boshqa maʼnolarini bilib oladi. Tilning barcha sathlarini: fonetika, leksika, soʻz tarkibi, morfologiya, sintaksis (boshlangʻich sinfda bu boʻlimlar “Tovushlar va harflar”, “Soʻz”, “Gap”, “Bogʻlanishli nutq” deb nomlanadi)ni oʻrganish jarayonida tasviriy ifodalar, iboralar, maʼnodosh, shakldosh, qarama-qarshi maʼnoli soʻzlarning maʼnolari turli ish turlari asosida tushuntirib boriladi. 1-sinf ona tili darsligida fikr buzuvchi-koʻchma maʼnoli ibora berilgan, uni soat buzuvchi birikmasi bilan taqqoslang. Qaysi birikma boshqa maʼnoda qoʻllanayapti? (soat

buzuq) Qaysi birikma boshqa ma'noda qo'llanayapti? (fikri buzuv). Fikri buzuv birikmasi qanday ma'noni ifodalayapti? Bolalar o'ylab, niyati yomon kishilarni fikri buzuv deyishadi deb izoh beriladilar. Ko'rinadiki, taqqoslash usuli so'z ma'nolarini izohlashda samarali usul sanaladi. Quloq o'tib, tanbeh yedi, ko'zi o'ynar, qalbi olov, til topishdi, rohatini totdi iboralarining ma'nosi ustida ham shu tarzda ishlanadi.

1-sinf darsligida Xiva ona tarix tilmochi, ...bilan egachi, urush yo'lini taqqa bekitdik, biz ma'nosiga zeb bersak, rediskaga akaman, karvon bo'lib kelamiz (Turnalar), chehrasiga tabassum yugurdi, bahor oq bulutni yetaklab ketdi, 2-sinf darsligida dov-daraxtning soch-soqolini qirishdi. Biz oqlagan daraxtlar oppoq paypoq kiyishdi kabi badiiy-tasviriy til vositalari ustida ishlash o'quvchini til zar, uni tilida qo'llovchi zargar bo'lishiga undaydi.

3. O'quvchilar tilida kam qo'llaniladigan so'zlar ma'nosi ustida ishlash. Adabiy tilga oid ba'zi so'zlar o'quvchilar nutqida kam qo'llaniladi. Bu so'zning ma'nosini o'quvchi yetarli darajada tushunmaydi. Uning o'rnida oddiy so'zlarni qo'llaydi. O'qituvchi ularni kitobiy so'zlar bilan almashtirish uchun nutqida qo'llashga majbur etadigan vaziyat yaratishi, ehtiyojni yuzaga keltirish zarur. Masalan, jim –tinch, osuda-osoyishta, yurakdan-dildan, soat strelkasi-soat millari, garmdori-qalampir, minut-daqiqa, rayon-tuman kabi.

So'zlarning qo'llanishini faolashtirish uchun yozma ishlar o'tkazilayotganda ham o'quvchilar e'tiborini ayrim so'zlarni boshqasi bilan almashtirishlari ta'kidlandi. Masalan, 1-sinfda rasmlar asosida og'zaki hikoya tuzayotgan o'quvchilarning nutq elementlari biri-biridan farqli bo'lishi –biri ikkinchisining so'zini qaytarmasligi talab qilinadi. Masalan, shirinsuxan so'zi o'rnida shirinso'z, nasim-tonggi yel (shamol), tanbeh berdi –dashnom berdi, zilol suv-tiniq suv, kichik mo'jaz, tik-adl, nafis-nozik, ishbilarmon –ishning ko'zini biladigan kabi...

Yozma bayon yozishga tayyorlanish jarayonida ham (2-sinf) so'zlarni boshqasi bilan almashtirishga, kitobiy so'zlar tanlashga e'tibor berish lozim.

Darsliklarda bola hissiyotiga ta'sir qiluvchi ko'chma ma'nodagi badiiy

ifodalar ko‘p qo‘llangan, ular ustida maqsadga muvofiq ishlash o‘quvchi nutqini jozibador qiladi, ularning nutqiy adabiy tilga yaqinlashtiradi.

4. Yangi paydo bo‘lgan so‘z ma’nolari ustida ishlash. Bunday so‘zlar darslikda kam qo‘llaniladi. Bunday so‘zlarning bolalar hayoti bilan bog‘liq bo‘lganlarini ajratib olib “Bilib qo‘ygan yaxshi” rubrikasi ostida ishlansa o‘quvchining nutqi zamon bilan baravar rivojlanib boradi.

5. Grammatik atamalar ma’nosi bilan tanishtirish. Grammatik atamalarning avvalo to‘g‘ri talaffuzi, imlosi o‘rgatiladi. Shundan so‘ng misollar asosida uni mazmuni ochiladi. Qoidani o‘qitish va mashqlar bajarish orqali atama ma’nosini to‘laqonli anglashlariga erishiladi.

Lug‘at ustida ishlashda quyidagi metodik usullardan foydalaniladi:

1. So‘z ma’nolarini taqqoslash va ularni sharhlash. Bu usul ko‘chma ma’noli so‘z va iboralar, paronim so‘zlar, shakli bir xil so‘zlar ma’nosi, imlosi, talaffuzini izohlashda qo‘llaniladi. Urush-urush: ikki kishining janjallashib qolishi –urish; ikki xalq, ikki davlat orasidagi jang-urush. Bu so‘zlarning talaffuzi ham ikki xil.

2. So‘zlarning kuzatish usuli orqali so‘zlarning imlosini, ma’nosini va talaffuzini o‘rgatish. Bu usul o‘zakdosh so‘zlarni o‘rganish jarayonida, ko‘m-ko‘k, oppoq, qip-qizil sifatlarining (qizil, oq, ko‘k) ma’no nozikliklari, imlosi, talaffuzini o‘rgatishda qo‘llaniladi. Masalan: Gul: guldon, gulchi, gulzor, gulli, gulsiz, gulla so‘zlarning tarkibini kuzatadilar. Bu so‘zlar ma’nosidagi farqni izohlaydilar va tilning yangi so‘zlar hisobiga boyib borishini anglay boshlaydilar. Shunday o‘rinda o‘qituvchi so‘zlarni o‘z so‘ziga aylantirishi orqali aniq fikr yuritishga o‘rganish o‘quvchining burchi ekanini aytishi lozim.

Kuzatish usuli shakllari o‘zgarayotgan so‘zlarning imlosini o‘rganishda ham qo‘llaniladi: og‘iz+im –og‘zim, singil+im-singlim, u+ga-unga.

3. So‘zlarni belgilariga ko‘ra guruhlash usuli. Guruhlash aqliy faoliyat usuli bo‘lib, u ona tili mashg‘ulotlarida o‘quvchilarning so‘z boyligini oshirishda muhimdir. Bu usul so‘zlarning anglatayotgan ma’nosi, turkumi, yasalishi, imlosi, uyasi kabilarga ajratish imkonini beradi. Guruhlash kuzatish va taqqoslash usuli

bilan bog‘liq. So‘zlarni guruhlash uchun avvalo ular kuzatiladi, so‘ng taqqoslanadi. Bu jarayonda ularning o‘xshash va farqli tomonlari ajratiladi: Masalan, qavm-qarindoshlik bo‘yicha guruhlash:

1. Ota urug‘i: ota, amaki, amma, dada, oppoqdada, buvi, buva.
2. Ona urug‘i: ona, xola, tog‘a, oyi, buvi, buva.

Sifatlarda a)xususiyat bildiruvchi sifat: sho‘x, og‘ir, bosiq, aqlli, aqlsiz, xayoli, hissiz, andishali, dangasa, tanbal, ishchan, mehnatsevar va h. b) ta‘m bildiruvchi sifat: shirin, achchiq, nordon, taxir, sho‘r, mazali, bemaza, chuchmal va h.

Guruhlash musobaqa tarzida uyushtirilishi mumkin.

Ma‘lum bir guruhdagi so‘zlar ro‘yxatini tuzish ishini alfavit asosida yozdirish ham mumkin. Guruhlashda quyidagi topshiriqlardan foydalanish mumkin.

1. Bolalar o‘yinlari nomining lug‘atini tuzing.
2. O‘zingiz bilgan shoir nomlari ro‘yxatini tuzing.
3. Ertak nomlari ro‘yxatini tuzing.
4. Joy nomlari ro‘yxatini tuzing.
5. Ohangdosh so‘zlar ro‘yxatini tuzing.
6. Ma‘nodosh so‘zlar ro‘yxatini tuzing.

Bular o‘rganilayotgan mavzularga, mashq matnlariga bog‘liq holda tashkil etiladi.

So‘zlarning izohli lug‘atini sinf va maktab matnlariga bog‘liq holda tashkil etiladi.

So‘zlarning izohli lug‘atini sinf va maktab miqyosida tuzib, osib, umumiste‘molga kiritish mumkin.

“O‘quvchilar pochtasi” tashkil etiladi. O‘quvchilar qaysi so‘zning ma‘nosini bilib olishda qiynalsalar, shu so‘zni yozib yashikka tashlaydilar. Hafta oxiridagi darsda shu so‘zlar ma‘nosi, imlosi izohi o‘tkaziladi.

***Mavzuni takrorlash va mustahkamlash uchun savollar hamda
topshiriqlar:***

-
1. Maktabda lug'at ustida ishlashning asosiy yo'llarini tushuntiring.
 2. «Lug'at ustida ishlashda o'quvchilarning bilish faolligi va mustaqilligini oshirish» mavzusida axborot tayyorlang.
 3. Izohli lug'atlar, sinonimlar, antonimlar, frazeologik lug'atlardan foydalanib, 1 -4- sinflar uchun ikkitadan leksik mashq tuzing.
 4. Mantiqiy mashqlar haqida ma'lumot bering.

18-MAVZU: BOG'LANISHLI NUTQ VA UNI O'STIRISH VAZIFALARI.

Tayanch atamalar: gap, gap ustida ishlash, gap bo'laklari, sintaksis, so'z birikmasi, morfologiya, gapning bosh bo'laklari, nutq, bog'lanishli nutq, bayon, insho.

18.1. Bog'lanishli nutq haqida umumiy tushuncha.

Fikrni bayon etish ehtiyojini amalga oshirishga qaratilgan, tugallangan mavzuni ifodalaydigan, logik va grammatik qoidalar asosida tuzilgan, mustaqil, tugallangan va o'zaro bog'langan ma'noli qismlarga bo'linadigan nutq **bog'lanishli nutq** deyiladi.

Bog'lanishli nutq birligi sifatida hikoya, maqola, roman, monografiya, doklad, hisobot kabilarni, maktab sharoitida esa o'qituvchi bergan savolga o'quvchilarning keng, mukammal og'zaki javobini, yozma bayon va inshoni olish mumkin.

Boshlang'ich sinflar metodikasida bog'lanishli nutqqa oid mashq turlariga quyidagilarni kiritish mumkin:

- 1) berilgan savolga keng, mukammal javob;
- 2) o'qilgan asarni tahlil qilish, grammatik materialni o'rganish; o'quvchilar lug'atini faallashtirish bilan bog'liq holda har xil matnli mashqlar;
- 3) muntazam o'tkazilgan kuzatishlarni yozish, ob-havo kundaligini yuritish;
- 4) o'qilgan matnni turli variantda og'zaki qayta hikoyalash;

5) berilgan mavzu, rasm, kuzatishga oid boshlab berilgan yoki oxiri berilgan hikoya, reja yoki syujet asosida o'quvchilarning og'zaki hikoyasi;

Bu mashqlarning hammasi nazariyasiz, amaliy tarzda beriladi. Bunday mashqlarni takroriy ishlatmaslik yoki asosiylarini tushirib qoldirmaslik uchun nutqiy mashqlarning aniq rejasi tuzib olinadi.

Bog'lanishli nutqdan mashqlarning turli xil bo'lishida, avvalo, material manbaiga, tematikaga, shuningdek, janriga, til xususiyatiga, mashq turiga rioya qilinadi.

18.2.Bog'lanishli nutqqa oid aniq ko'nikmalar

O'quvchilar nutqini o'stirish ularga aniq ko'nikmalarni singdirish demakdir. Boshlang'ich sinf o'quvchilari mustaqil mashq sifatida bog'lanishli nutqni o'stirishdan quyidagi ko'nikmalarni bilib oladilar:

1. Mavzuni tushunish, chegarasini aniqlash va uni nisbatan to'liq yoritish ko'nikmasi. Masalan, «Biz uy ishlarida ota-onamizga qanday yordamlashamiz?» mavzusi berilsa, o'quvchilar aniq bajargan ishlari haqida hikoya qiladilar. Ular mavzuni yaxshi tushunishlari uchun bayon matni qayta hikoya qildiriladi, inshoda esa berilgan mavzu yuzasidan mustaqil hikoyalash mashq qilinadi.

2. Inshoni asosiy fikrga bo'ysundirish ko'nikmasi. Bolalar ishi ma'lum fikrni (tabiatning ajoyib tasvirini idrok etish, o'zlarining baxtli hayotidan g'ururlanish, mehnatga va mehnatkash insonlarga muhabbatni) ifodalaydi.

3. Hikoya, insho uchun mavzuga taalluqli, uni yoritishga zarur bo'lgan materialni yig'ish. Bu bayonga ham taalluqli bo'lib, namunaviy matn tahlil qilinadi, mazmunini to'g'ri tushunish ustida ishlanadi, asosiy mazmun ajratiladi.

O'qituvchidan o'quvchini navbatdagi inshoga tayyorlashda shu mashqning pedagogik maqsadini, o'quvchilarni nimaga o'rgatishni, tafakkuri va nutqini qanday boyitishni, shuningdek, mashqlar izchilligida shu inshoning tutgan o'rnini aniq ko'z oldiga keltirish talab etiladi. SHuning uchun o'quvchilarning bog'lanishli nutqini o'stirishga oid mashq turlarining bir yillik rejasini tuzib olish tavsiya

etiladi. Rejada o'quvchilar yoshiga mos bayon va inshoning barcha turlari hisobga olinishi zarur.

Metodik an'anaga ko'ra matnli mashqlar **tasvirlash**, **hikoya qilish** va **muhokamaga** bo'linadi. Boshlang'ich sinflarda bular, asosan, **tasvir** yoki **muhokama** elementlari bo'lgan hikoya tarzida uchraydi.

Har uchala janr uchun foydalaniladigan material xarakterida ham, qurilishida ham, til vositalarini tanlashda ham o'z xususiyatlari mavjud. Insho yoki bayonga tayyorlanayotganda o'qituvchi (yoki o'quvchi) matnning janr xususiyatlarini hisobga oladi.

Hikoya boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun mos janr hisoblanadi, chunki u jo'shqin, jonli, ta'sirchan bo'ladi. «O'qish kitobi»da bunday hikoyalar ko'plab berilgan.

Tasvirda syujet, qatnashuvchi shaxslar bo'lmaydi; unda tabiat, ayrim predmet va hodisalar tasvirlanadi. O'quvchilar «O'qish kitobi»da berilgan ko'pgina tasviriy matnlarni o'qiydilar, ularni qayta hikoya qiladilar, bayon, ayrim narsa yoki hodisalarni tasvirlab insho ham yozadilar. Masalan, «Bizning sinfimiz», «Bahor keldi» kabi. Tasvirga xos xususiyatlar shundan iboratki, unda sifatlash, taqqoslash, metaforalar ko'p bo'ladi. Tasvir o'quvchilar uchun hikoyaga nisbatan qiyin janr hisoblanadi, shuning uchun boshlang'ich sinflarda ko'proq tasvir elementlari bo'lgan hikoya tarzidagi bayon va insho yozdiriladi.

Muhokama bog'lanishli matnning anchagina qiyin shakli hisoblanadi, shuning uchun boshlang'ich sinflar dasturida muhokama tarzida insho yozdirish tavsiya etilmaydi; o'quvchilar inshoda muhokama elementlaridangina foydalanadilar. Masalan, «Qushlar uyasini nima uchun buzish mumkin emas», «Paxta – bizning milliy boyligimiz» mavzularida og'zaki hikoya tuzdirilsa yoki insho yozdirilsa, muhokama elementi, albatta, bo'ladi.

O'qituvchi bog'lanishli nutqni rejalashtirganda, turli janrda mashq qilishni ko'zda tutadi va o'quvchilarga hikoya, tasvir va muhokama elementlarini o'rgata boradi. Bunda ko'proq hikoya tarzidagi matn tuzdirishga ahamiyat beradi.

Bolalarning bog'lanishli nutqni egallash darajasiga qarab, matnga tasvir va muhokama elementlari kiritib boriladi.

18.3. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining bog'lanishli nutqini o'stirishda inretfaol usullardan foydalanish.

Interfaol metod – ta'lim jarayonida o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasidagi faollikni oshirish orqali ularning o'zaro harakati ta'sir ostida bilimlarni o'zlashtirishni kafolatlash, shaxsiy sifatlarni rivojlanishiga xizmat qiladi. Ushbu usullarni qo'llash dars sifati va samaradorligini oshirishga yordam beradi. Uning asosiy mezonlari– norasmiy bahs– munozaralar o'tkazish, o'quv materialini erkin bayon etish, mustaqil o'qish, o'rganish, seminarlar o'tkazish, o'quvchilarni tashabbus ko'rsatishlariga imkoniyatlar yaratilishi, kichik guruh, katta guruh, sinf jamoasi bo'lib ishlash uchun topshiriq, vazifalar berish, yozma ishlar bajarish va boshqalarda iborat. Interfaollik, bu – o'zaro ikki kishi faolligi, ya'ni, bundan o'quv- biluv jarayoni o'zaro suhbat tariqasida dialog shaklida (kompyuter aloqasi) yoki o'qituvchi – o'quvchilarning o'zaro muloqotlari asosida kechadi. Interfaollik – o'zaro faollik, harakat, ta'sirchanlik, o'quvchi – o'qituvchi, o'quvchi – o'quvchi (sub'yekti –sub'yekti) suhbatlarida sodir bo'ladi. Interfaol metodlarning bosh maqsadi - o'quv jarayoni uchun eng qulay muhit va vaziyat yaratish orqali o'quvchining faol, erkin, ijodiy fikr yuritish, uni ehtiyoj, qiziqishlari, ichki imkoniyatlarni ishga solishga muhit yaratish. Bunday darslar shunday kechadiki, bu jarayonda bironta ham o'quvchi chetda qolmay, eshitgan, o'qigan, ko'rgan bilgan fikr mulohazalarini ochiq oydin bildirish imkoniyatlariga ega bo'ladilar . O'zaro fikr almashish jarayoni hosil bo'ladi . Bolalarda bilim olishga havas, qiziqish ortadi, o'zaro do'stona munosabatlar shakllanadi . Boshlang'ich ta'limda o'quvchilarning yosh hususiyatlari, savodxonlik darajalari, shaxsiy tabiyatlariga ko'ra didaktik o'yinlar orqali evristik suhbatlar loyihalashtirish asosidagi metodlar keng qo'llanilmoqda. Agar o'qitish jarayonida har bir o'quvchi o'zining o'zlashtirish imkoniyati darajasida topshiriqlar olib ishlaganida u yuqori sifat va samaradorlikni ta'minlagan bo'lar edi. Bunday holatni faqat tabaqalashtirgan

ta'lim orqaligina amalga oshirish mumkin. Endi ta'lim jarayonlarini didaktik o'yinlar orqali amallarga oshirish haqida fikr yuritamiz: Interfaol o'yinli metodlar o'quvchi faoliyatini faollashtirish va jadallashtirishga asoslangan. Ular o'quvchi shaxsidagi ijodiy imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish va rivojlantirishning amaliy yechimlarini aniqlash va amalga oshirishda katta ahamiyatga ega. Interfaol o'yinlarning asosiy turlari: intellektual (aqlli) va harakatli hamda aralash o'yinlardan iborat. Bular o'quvchilarda aqliy, jismoniy, axloqiy, ma'naviy, ma'rifiy, psixologik, estetik, badiiy, tadbirkorlik, bunyodkorlik, mehnat, kasbiy ko'nikmalarni rivojlanishiga yordam beradi. Bu metod o'quvchini ichki imkoniyatlarini ishga tushishiga, o'ylashga, erkin fikr yuritishga, muloqotga, ijodkorlikka yetaklaydi. Ayniqsa, unda atrof –muhit, hayotni bilishga qiziqish ortadi, uchragan qiyinchilik, to'siqlarni qanday yengish va tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantiradi. Ta'lim – tarbiya jarayonida asosan o'quvchilarda ta'lim olish motivlarini, ularni turi yo'lanishlardagi qobiliyat va qiziqishlarini oshiradigan, biror kasbga moyilliklarini ko'rsatadigan, didaktik o'yinlardan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Interfaol o'yinlar nazariy, amaliy, jismoniy, rolli, ishchanlik va boshqa yo'nalishdagi turlarga ajratiladi. Ular o'quvchilarda talil qilish, hisoblash, o'lchash, yasash, sinash, kuzatish, solishtirish, xulosa chiqarish, mutaqil qaror qabul qilish, guruh yoki mustaqil jamoa tarkibida ishlash, nutq o'stirish, til o'rgatish yangi bilimlar olish faoliyatlarini rivojlantiradi. Umumiy o'yinlar nazariyasiga ko'ra, mavjud barcha o'yin turlarini tasniflashga ularni funksional, mavzuli, konstruktiv, didaktik, sport va harbiy o'yinlarga ajratiladi. Interfaol o'yin turlarini tanlashda quyidagi mezonlarga rioya qilish yaxshi natijalar beradi. -ishtirokchilarni tarkibi bo'yicha, ya'ni o'g'il bolalar, qiz bolalar yoki aralash guruhlar uchun o'yinlar: -ishtirokchilarning soni bo'yicha -yakka, juftlikda, kichik guruh, katta guruh, sinf jamoasi, sinflararo va ommaviy tarzda o'yinlar : - o'yin jarayoni bo'yicha fikrlash, o'ylash, topag'onlik, harakatlar asoslangan, musobaqa va boshqalarga yo'naltirilgan; - vaqt me'yori bo'yicha –dars, mashg'ulot vaqtining reja bo'yicha ajratilgan qismi, o'yin maqsadiga erishguncha,

g`oliblar aniqlanguncha davom etadigan o`yinlar. Ayrim didaktik o`yinli dars shakllari: -ishchanlik o`yini darsi –mavzu bo`yicha masalalarni hal qilish jarayonida o`quvchilarning faol ishtirok etishini ta`minlash orqali yangi bilimlarni o`zlashtirish mashqi; - rolly oyin darsi –mavzu bo`yicha masalarni o`rganishda o`quvchilarga oldindan ma`lum rollarni taqsimlash va dars jarayonida shu rollarni bajarishlarini tashkil etish asosida bilimlarini mustahkamlash; -teatrlashtirilgan dars- mavzu bilan bog`liq sahna ko`rinishlarini tashkil etish orqali dars mavzusi bo`yicha chuqur, aniq ma`lumotlar berish; - “Kim oshdi savdosi ” darsi- o`quv fani, ayrim bo`limi bo`yicha bilimlarini har bir o`quvchi qanchalik ko`proq bilishini namoyish etish ; -yarmarka darsi- mavzuni bo`laklarga bo`lish oldindan o`zlashtirgan o`quvchilarning o`zaro muloqatlari asosida qiziqarli tushuntirish orqali o`tiladigan darslar ; - o`yin darsi- mavzuni sahnalashtirilgan holdagi konsert shaklida ifodalash mashqlari bo`lib, o`quvchilarni faollashtirish va bilimlarini mustahkamlash imkoniyatini beradi. –integral (integral)dars - boshqa darslarga doir va integratsiyalash uchun qulay bo`lgan mavzular bo`yicha tashkil qilingan dars bo`lib, o`quvchilarning turli fanlarga qiziqishlarini orttirib, ta`lim jarayonidagi faolligini taminlaylik. Bularning bari o`quvchilarga fanlararo bog`liqlikni o`rgatish orqali ularda olam tuzilishini ilmiy asoslarini to`liq idrok etish va ilmiy dunyoqarashlarini shakllantirish, ijodiy tafakkurlarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Interfaol usullarning asosiy maqsad va vazifalari quyidagilardan iborat: 1. O`quvchilarni mustaqil, ijodiy, tanqidiy, mantiqiy fikrlashga o`rgatish; 2. Muammoli vaziyatni amaliy va hayotiy topshiriqlar asosida yechish; 3. O`z-o`zini fikrlashga majbur etish; 4. Faollashtirish; 5.O`quvchilarni tashkilotchilik va yo`naltiruvchanlikka undash; 6. Do`stona munosabatlarni shakllantirish; Interfaol metodlarda o`qitishning mohiyati quyidagicha: - o`rgatuvchi ham o`rganuvchi ham ma`lumotlar bilan faol ishlashi; - o`quvchilarni mustaqil fikrlashga undashi va o`rgatishi; - o`qituvchiga «o`quvchilarni fikrlashga o`rgatish uchun» xizmat qilsa, o`quvchilarga esa, «fikrlashni o`rganishlari uchun» xizmat qilishi; Interfaol usullardan foydalanish: 1. Individuallashtirish. 2. Kichik guruhlargaaajratish. 3.

Tabaqalashtirish. 4. O`rgatish va o`rganish jarayonida demokratik, do`stona muhitni yaratish. 5. O`zaro muloqot, hamkorliklikni tashkil etish. Interfaol metodlarni qo`llashda foydalaniladigan vositalar: 1. Darsliklar, qo`shimcha o`quv adabiyotlar. 2. Texnika vositalari. 3. Tapqatma materiallar. 4. Multimediyalar. 5. Slaydlar. 6. Ko`rgazmali qurollar. 7. Didaktik o`yinlar. O`quvchi shaxsiga qaratilgan ta`lim, o`quvchining faolligini oshirish, mustaqil, ijodiy fikrlashga o`rgatish, mustaqilligini, erkinligini ta`min etish, qiziqishlari asosida (motivatsiya) ish yuritish, ichki imkoniyatlarni ishga solish, o`z qiziqishlari orqali qo`shimcha ta`lim olishga yo`llash, o`z- o`zini rivojlantirishni o`z ichiga oladi.

Mavzuni takrorlash va mustahkamlash uchun savollar hamda topshiriqlar:

1. *Bog'lanishli nutqni o'stirish jarayonida o'quvchilarda hosil qilinadigan asosiy ko'nikmalarni ayting.*
2. *«O'quvchilar bog'lanishli nutqini o'stirishda namunaviy matnning o`rni» mavzusida ahborot tayyorlang.*
3. *Hikoya tarzidagi matnni og'zaki qisqartirib yoki tanlab qayta xikoyalashga bag'ishlangan dars ishlanmasini tayyorlang.*
4. *3- sinf «o'qish kitobi»dagi hikoyalarning biridan foydalanib, ijodiy qayta hikoyalash uchun matn tuzing. Qayta hikoyalashdagi ijodiy elementni ayting.*
5. *4- sinf o'quvchilari yozgan bayon matnini tahlil qilish chizmasini tuzing va shu asosda bir o'quvchi bayonini tahlil qiling.*

19-MAVZU: BOG'LANISHLI NUTQ. OG'ZAKI QAYTA HIKOYA QILISH VA YOZMA BAYON.

Tayanch atamalar: gap, gap ustida ishlash, gap bo'laklari, sintaksis, so'z birikmasi, morfologiya, gapning bosh bo'laklari, og'zaki va yozma nutq, qayta hikoyalash, tanlab hikoyalash, qisqartirib qayta hikoyalash, ijodiy qayta hikoyalash, bayon.

19.1.Og'zaki va yozma qayta hikoyalash qo'yiladigan talablar.

Bayon o'qib berilgan namunaviy matnni, matn mazmunini ma'lum tayyorgarlikdan so'ng yozma qayta hikoyalashdir.

Namunaviy matn og'zaki va yozma hikoya qilinadi. Bayon yozishga tayyorgarlik o'qish darslarida o'qilgan asar matnnini qayta hikoyalash, savollarga javob berish, rejatuzish, reja asosida qayta hikoyalash jarayonida boshlanadi. Ona tili darslarida mashq ishlash jarayonida tayyorgarlik yozma shalda oshiriladi. Har qanday qayta hikoyalash asosida bayon yozish mumkin. Bayon bu kichik hajmdagi tuzilishi sodda matn tanlanadi. Keyin u murakkablashtirilib boriladi. Hikoya shaklidagi matnda asta-sekin tasvir muhokama elementlari bor matn tanlanadi. Qatnashuvchilari soni ko'paytirib boriladi. Bayon asta-sekin ijodiy xarakter kasb etib boradi. Boshlang'ich sinf dasturiga ikkinchi sinfda o'ttiz bir so'zli matn tanlanadi. So'roqlar yordamida bayonlar yoziladi. Uchinchi sinfda qirq oltmish so'zli matn to'rtinchi 70-90 so'zli mustaqil tuzilgan reja asosida bayon yoziladi.

Bayonning ahamiyati:

- bolalarda adabiy nutq to'g'ri shakllanadi
- nutq madaniyati egallanadi
- badiiy uslub singdiriladi
- badiiy tilga sezgirlik oshiriladi

Bayonning mavzulari:

- kishilarning hayoti, mehnati, yutuqlari ifodalangan matn
- tabiat bilan bog'langan matn
- fan-texnika madaniyat yutuqlarga oid matn

Bayon mavzusi o'quvchilarni bilimini kengaytiradi. Dunyoqarashini shakllantiradi. Qayta hikoyalashda til materiallaridan nutq aborotlaridan sintaktik qurilishdan foydalana olish zarur. Qayta hikoyalashda maxsus tayyorgarlikda quyidagi talablarga rioya qilinadi.

1) Qayta hikoyalash turi haqida o'quvchilarni ogohlantiradi. Matnga yaqinlashtirilib, tanlab, qisqartirilib, ijodiy qayta hikoyalaniadi.

2) Suhbat, matn mazmuni tahlil qilinadi. Tili oborotlari, gaplari aniqlanadi

-
- 3) Qayta hikoyalanişni puxtalash uchun ifodali o‘qish.
 - 4) Matnni kompozitsiyali qismlarga bo‘lish sarlavha, reja tuzish.
 - 5) Matnni qayta hikoyalash kamchiliklarni tuzatish.
 - 6) Qayta hikoyalashni bolalar hayoti bilan bog‘lash.

To‘liq yoki matnga yaqin qayta hikoyalash va bayon.

To‘liq qayta hikoyalash uchun hikoya tanlanadi. Boshlang‘ich sinflarda ko‘p o‘tkaziladi. Bir kishining hikoya tarzidagi matn bo‘ladi. Matnda keyinchalik qahramonlarni tabiat tasvirini muhokama elementlarini bo‘lishi zarur.

Qayta hikoyalash uchun tuzilgan savollar har bir gapga qaratilmasdan umumlashtiruvchi harakterda bo‘lishi kerak.

To‘liq bayonga tayyorgarlik:

2-sinf ona tili: 49,57,147,146,172,187-mashqlar.

To‘liq bayonda uchraydigan kamchiliklar:

- a) Hikoyani to‘g‘r boshlashni bilmaslik
- b) Matn mazmunini davom ettira olmaslik:
- v) Tushunmasdan noto‘g‘ri bayon qilish
- g) Bayon qilishda til kambag‘illigi

Bu kamchiliklarni yo‘qotish uchun:

- a) Matnni qismlarga bo‘lish
- b) Qismlarga sarlavha topish
- v) Reja tuzish
- g) Reja asosida qayta hikoyalash

Til kambag‘al bo‘lmasligi uchun til materiallari ustida ishlash. Bayon yozish quyidagicha uyushtiriladi.

- 1) Bolalarga bir- ikki marta o‘qib beriladi.
- 2) Suhbat: qismlarga bo‘lish, mazmuniy bog‘lanishlarni aniqlab reja tuzish.
- 3) Lug‘at ishi (so‘z ma‘nosi va imlosi)
- 4) Muhim til birliklariga diqqat qilish.
- 5) Gaplar tuzdirish.

6) Qayta hikoyalash.

7) Yozish.

Tanlab qayta hikoyalash matnning tor mavzusi, kichikroq so‘roqqa oid qism tanlanadi. Masalan: o‘qilgan matndagi qahramonlarning ko‘rinishi, ikki qahramonning to‘qnashuvi, tabiat tasviri tanlanadi.

Tanlab hikoyalash turlari:

1) qahramonning tashqi ko‘rinishini tanlab qayta hikoyalash, masalan, Odinaning qo‘y boqib kelgandan so‘ng boyni uni jazolashi;

2) tabiat tasvir. Matnning bir qismini unga chizilgan rasm asosida qayta hikoyalash;

3) o‘qituvchining topshirig‘i bilan hikoyaning bir epizodini qayta hikoyalash;

4) berilgan mavzu asarning turli o‘rinlaridan parchalar olib qayta hikoyalash.

5) qisqartirib qayta hikoyalashda quyidagi savollardan foydalaniladi:

6) har bir qismni bir gap bilan aytish, 1-qismdan asosiy gap qaysi?

7) ijodiy qayta hikoyalashning bir necha turi bor:

1) shaxsni o‘zgartirib qayta hikoyalash va bayon;

2) hikoyadagi biror qahramon tilidan qayta hikoyalash va bayon;

3) matnni ijodiy to‘ldirib qayta hikoyalash va bayon;

4) so‘z bilan tasvirlash yoki sahnalashtirish.

Bunda quyidagi topshiriqlar bajariladi: “Siz shunday holatda o‘zingizni qanday sezasiz? Bular rasmlarda tasvirlangan deb o‘ylang. Shu voqealar ko‘z oldingizdan o‘tayaptimi? Siz ko‘rgansiz, eshityapsiz o‘zingiz tasvirladim deb o‘ylang”.

Qahramonning tashqi ko‘rinishini o‘ylashingiz mumkin. Suhbat orqali asosiy joylari ajratib olinadi. Reja tuziladi. Reja asosiy o‘rinlarni ifodalashi zarur.

Tekshiruv bayoni asosan o‘quvchilarni bilimini aniqlash maqsadida o‘tkaziladi. O‘quvchi bilimidagi sayoz o‘rinlarni belgilab olish, xato kamchiliklarni bartaraf etish choralari rejalashtirish. Tekshiruv bayoni bir o‘quv yilida 2-3 marta o‘tkaziladi. Uning turi to‘liq ta’limiy bayonnikabi kabi o‘tkazilish

tartibi ham bayon turidan kelib chiqib, ta'limiy bayon kabi uyushtiriladi. Farqi shundaki, yozish jarayonida o'qituvchi o'quvchilarga yordam ko'rsatmaydi, bu bayon turi 3-4 sinflarda chorak oxirida yoki biror katta bo'lim o'tib bo'lingach o'tkaziladi. Masalan: ona tilidan so'z turkumlaridan ot, sifat, son, olmosh, fe'l o'tib bo'lingach, ularga doir bilimlarni aniqlash maqsadida o'tkaziladi.

Mavzuni takrorlash va mustahkamlash uchun savollar hamda topshiriqlar:

1. *Bog'lanishli nutqni o'stirish jarayonida o'quvchilarda hosil qilinadigan asosiy ko'nikmalarni ayting.*
2. *«O'quvchilar bog'lanishli nutqini o'stirishda namunaviy matnning o'rni» mavzusida ahborot tayyorlang.*
3. *Hikoya tarzidagi matnni og'zaki qisqartirib yoki tanlab qayta hikoyalashga bag'ishlangan dars ishlanmasini tayyorlang.*
4. *3- sinf «o'qish kitobi»dagi hikoyalarning biridan foydalanib, ijodiy qayta hikoyalash uchun matn tuzing. Qayta hikoyalashdagi ijodiy elementni ayting.*
5. *4- sinf o'quvchilari yozgan bayon matnini tahlil qilish chizmasini tuzing va shu asosda bir o'quvchi bayonini tahlil qiling.*

20-MAVZU: BOG'LANISHLI NUTQ. OG'ZAKI HIKOYA VA YOZMA INSHO.

Tayanch atamalar: gap, gap ustida ishlash, gap bo'laklari, sintaksis, so'z birikmasi, morfologiya, gapning bosh bo'laklari, og'zaki va yozma insho, insho yozishga tayyorlash, insho tahlili, qayta hikoyalash, tanlab hikoyalash, qisqartirib qayta hikoyalash, ijodiy qayta hikoyalash, bayon.

20.1.Og'zaki va yozma insho turlari.

Insho turlari. Insho ijodiy ishning eng yuqori shakli bo'lib, maktabda alohida o'rin tutadi; barcha nutqqa oid mashqlar ma'lum mazmunda inshoga bo'ysunadi. Insho 1-sinfda kichik og'zaki axborot va ehtirosli hikoyadan boshlanib, o'z fikrini ifodalashga, o'quvchi shaxsining tashkil topishiga xizmat qiladigan, ta'lim-tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lgan jiddiy rejali aqliy ishga aylanadi. Insho shaxsni

shakllantirishda foydali vosita bo'lib, his-hayajon uyg'otadi, aqliy mustaqillikka, fikrlashga, ko'rgan-kechirganlari va o'zlashtirganlarini baholashga, kuzatuvchanlikka, voqea-hodisalar o'rtasidagi sabab-natija bog'lanishni topishga, ularni qiyoslashga, xulosa chiqarishga o'rgatadi. Insho fikrni tartibga soladi, o'quvchilarda o'ziga, o'z kuchi va imkoniyatiga ishonch tug'diradi. "Insho" asli arabcha so'z bo'lib, ma'nosi "yaratish", "bino qilish", "boshlash" demakdir. Bu co'zning ma'nosi hozirda ancha torayib, asosan, o'quvchi va talabalar tomonidan yoziladigan ijodiy yozma ish ma'nosida qo'llanadi. Insho – ijodiy ish bo'lib, u o'quvchidan faollik, qiziqish, fikr bildirishni talab qiladi. Material tayyorlash, uni tartibga solish, insho kompozitsiyasi va rejasi haqida o'ylash, mantiqiy bog'lanishni belgilash, so'z, so'z birikmasini tanlash, gap tuzish va uni o'zaro bog'lash, imloni tekshirish kabi barcha murakkab ishlar o'quvchidan aqliy kuchini to'la ishga solish bilan birga, o'z ma'naviy faoliyatini boshqarish ko'nikmasini ham talab etadi. Inshoda til nazariyasi nutq tajribasi bilan qo'shiladi. O'quvchi inshoni mustaqil, ijodiy xarakterda bo'lgani uchun, «o'ziniki»ni yozgani uchun ham sevadi. Maktab rivojining barcha bosqichlarida bolalarning mustaqil tuzgan hikoyasi – inshoga alohida ahamiyat berilgan. Maktablar yangi, o'quvchilar nutqini o'stirish, aqliy, ijodiy o'sishiga mo'ljallangan dasturga o'tishi munosabati bilan uning ahamiyati yanada o'sdi. Og'zaki va yozma inshoga o'rgatish jarayonida o'quvchilarda mavzuni tushunish va yoritish, o'z inshosini aniq fikrga bo'ysundirish, material to'plash, uni tartibga solish va joylashtirish, reja tuzish va reja asosida yozish, mazmunga va nutq vaziyatiga mos ravishda til vositalaridan foydalanish, yozgan inshosini takomillashtirish ko'nikmalari hosil qilinadi. Bulardan tashqari, «texnik» vazifalar ham amalga oshiriladi, ya'ni matnni yozishda imlo qoidalari va husnixatga e'tibor berish, matnni xatboshidan yozish, hoshiyaga rioya qilish kabi talablarga ham amal qilinadi. Og'zaki va yozma insho material manbaiga, mustaqillik darajasiga, tayyorlash usuli, janri va til xususiyatiga qarab tasnif qilinadi. Insho material manbaiga ko'ra quyidagi uchga bo'linadi: 1) o'quvchining o'zi ko'rgan-bilganlari, eshitganlari haqidagi, ya'ni mehnat,

kuzatishlar, ekskursiyalar, o`yinlar, o`z tajribasi va boshqa jonli materiallar asosidagi insho; 2) kitob materiali, rasmlar, film, spektakl, o`qituvchi hikoyasi va boshqa manbalar asosidagi insho; Mustaqillik darajasiga, tayyorgarlik ko`rish metodiga ko`ra insho ikki turli bo`ladi: 1) sinf o`quvchilari uchun umumiy bir mavzu asosida jamoaviy tayyorgarlikdan so`ng yoziladigan insho; 2) alohida mavzu asosida individual tayyorgarlikdan so`ng yoziladigan individual insho. Janriga ko`ra hikoya, tasvir, muhokama tarzidagi insholarga bo`linadi. Boshlang`ich sinflarda tasvir va muhokama elementlari mavjud bo`lgan hikoya tarzidagi inshodan ko`proq foydalaniladi. Inshoni tasnif qilish ta`limiy vazifalarni chuqur anglash va metodik vositalarni tanlashga, shuningdek, ish turlarini zaruriy yo`nalishda, baravar taqsimlashga yordam beradi. Boshlang`ich sinflarda yozdiriladigan inshoning muhim turlaridan biri kichik yoshdagi o`quvchilarning shaxsiy hayotiy tajribasiga asoslangan inshodir. Rasm asosidagi insho maktablarda tez-tez o`tkaziladi, chunki rasm bolalar nutqiy ijodini, tasavvurini boyitishga xizmat qiladi. Rasm bolalar sezgisiga ta`sir etadi, hayotning bola tajribasida hali uchramagan tomonlarini ochadi. Rasm o`quvchilarga tanish bo`lgan hodisalarni chuqur anglashga ham yordam beradi. Rasm asosidagi inshoning uch asosiy turi bor: 1) rasmlar seriyasi yoki rasmlari asosida yoziladigan hikoya tarzidagi insho; 2) syujetli, o`quvchilarni o`ylashga, faraz qilishga undaydigan bir rasm asosida yoziladigan hikoya tarzidagi insho; O`quvchilar avval rasmlar seriyasi asosida, so`ng bir rasm asosida, undan so`ng tasviri insho yozish (rasmni tasvirlash)ga o`rgatiladi. Dasturga ko`ra, 1-sinf o`quvchilari o`yinlari, mehnatlari, voqea-hodisalar haqidagi taassurotlari asosida o`qituvchi rahbarligida hikoya tuzishlari va uni ma`lum tayyorgarlikdan so`ng yozishlari, 2 - sinfda rasmlar seriyasi asosida kichik hikoya tuzish va uni jamoa tarzda tuzilgan reja asosida yozish, tabiatni kuzatish va mehnat jarayoni haqida, bolalarning o`yinlari, ishlari, sayillari haqida, avval o`qituvchi rahbarligida, keyin mustaqil ravishda kichik hikoya tuzish va uni yozish, shaxsiy ishlari haqida xat yoza olishlari, 3 - sinfda rasmlar (bir mavzuga oid bir necha rasm, syujetli bir rasm, rasmni tasvirlash) asosida hayotiy tajribalari,

kuzatishlari, ekskursiyalardan olgan taassurotlari asosida rejani, avval jamoaviy ravishda, keyin mustaqil tuzib hikoya qilish va uni yozishlari talab etiladi. Boshlang'ich sinflarda insho ta'limiy xarakterda bo'ladi, 3-sinfdagina tekshiruv insho o'tkazish mumkin. Rag'batlantirish maqsadida ta'limiy insholar ham baholanadi, lekin salbiy baho qo'yish tavsiya etilmaydi. O'quvchilar tarbiyasida inshoning ahamiyati. Inshoning tarbiyaviy ahamiyati tanlanadigan mavzuga, shuningdek, insho ustida o'quvchilar qanchalik mustaqil ishlashi va qiziqishiga, insho g'oyasiga ham bog'liq. Insho bolalarning voqea-hodisalarni chuqur his etishiga yordam beradi, izchil fikrlashga o'rgatadi, tilga va adabiy ijodga qiziqishlarini o'stiradi. Bolalar eng qiziqarli va o'zlariga yaqin voqea-hodisalar haqida hikoya qiladilar va yozadilar, ularning inshosi mustaqil ishlash malakasini o'stiradi, ommaviy faollikni oshiradi. Tanlangan mavzuning g'oyaviy yo'nalishini ochish tarbiyaviy vazifani hal qilishga imkon beradi. Bu jihatdan mehnat, mehnat qahramonlari haqidagi, bolalarning hayoti, maktab, tug'ilib o'sgan qishlog'i yoki shahri haqidagi, urush qahramonlari haqidagi mavzular ayniqsa qulay. Bu mavzulardagi insholar mehnat kishilariga, qahramonlarga chuqur hurmatni tarbiyalaydi. Insho jamiyat hayotini tushunishga o'rgatadi. Tabiatga, kishilarga, ularning yaxshilikka intilishlari va harakatlariga, mehnatga va mehnat mahsuliga muhabbatni tarbiyalaydi, kishilar xatti-harakatidagi chiroyli jihatlarni egallashga, hozirgi zamon axloqiy talablarini anglashda o'quvchilarga yordam beradi. Inshoning tarbiyaviy ahamiyatini oshirish uchun quyidagilarga rioya qilish talab etiladi: 1. Osondan qiyinga tamoyiliga rioya qilgan holda og'zaki va yozma inshoni muntazam o'tkazib borish bilan o'quvchilarda mustaqillikni tarbiyalash. Mustaqil insho o'quvchilar faolligini o'stiradi. 2. Inshoni hayot bilan bog'lash. Bunda kuzatishlar asosidagi insho, kundalik yuritish, qilingan ishlar yuzasidan «hisobot» tarzidagi insho, xat, maqola, o'qilgan kitob haqida taqriz kabilarning tarbiyaviy ahamiyati juda katta. «Vatan» so'zini aytish bilan kishining bolalikda o'sib-ulg'aygan joyi tasviri ko'z oldida paydo bo'ladi. Ishlab chiqarishga ekskursiya materiali asosida mehnat haqidagi insho yangi tarbiyaviy imkoniyatlarni ochib

beradi: unda bolalar ishlab chiqarishdagi muvaffaqiyat va qiyinchiliklar, ilg'or kishilar haqidagi, kasb va mutaxassislik haqidagi, texnika haqidagi ma'lumotlardan foydalanadilar. Ishlab chiqarishga ekskursiya va mehnatni tasvirlash bilan bog'liq holda kasb haqida suhbatlashishga to'g'ri keladi va bu inshoda o'z aksini topadi. Mehnat haqidagi insho gazetaga maqola shaklida yozilishi mumkin. Mehnat yoki ishlab chiqarish haqidagi insho mavzulariga «Bizning qishloq», «Karam uzish», «Bog'da», «Bizning jamoa xo'jaligimiz», «Pochtada», «Do'konda», «Paxtakorlarga yordamimiz», «Bizning hashar», «Maktab yer uchastkasida», «Daraxt o'tqazish» kabilar kiradi. «Men nimalarni bilaman?» mavzusidagi tanlovga bolalar juda qiziqadilar. Tanlov bolalarning mehnat ko'nikmalarini aniqlabgina qolmay, ularni uyda, polizda, bog'da ishlashga rag'batlantiradi. Maqsad kishilarga foyda keltiruvchi mehnatga hurmatni tarbiyalashdir. Qishloq maktab o'quvchilari otaonalariga sabzavotlar ekish, hosilni yig'ish, o'tin tayyorlash kabi ishlarda qanday yordamlashganliklari haqida yozadilar. Sinfda mehnat haqidagi insho muhokama qilinadi. Bolalar foydali, zaruriy ijtimoiy faoliyat sifatida mehnatning mohiyatini tushuntiradilar. Ular har qanday mehnat e'zozlanishini aytadilar. Kelajak haqida «Kim bo'lishni xohlayman?» mavzusida tayyorgarliksiz hikoya qilish tarzidagi insho ham katta tarbiyaviy kuchga ega. Juda yaxshi yozilgan inshoni sinfda ifodali o'qib berish va tahlil qilish bolalarni tarbiyalaydi. Ba'zi maktablarda bolalar inshosi va hatto bolalar she'rlari to'plami tuziladi, yaxshi yozilgan hikoya uchun tanlov e'lon qilinadi. Insho mavzusi va uni yoritish. Mavzu insho predmeti bo'lib, uning mazmunini tashkil etadi. Mavzuga qarab inshoda aks ettiriladigan materiallar, dalillar, hodisalar tanlanadi. Inshoning to'g'ri va to'liq bo'lishi o'qituvchi mavzuni qanday shakllantirishi, o'quvchilar uni qanday tushunishlariga bog'liq. Insho ustida ishlashda mavzu tanlash, uni rejalashtirishda esa og'zaki va yozma insho mavzusini belgilab olish muhim rol o'ynaydi. O'quvchilar mavzuni yoritishga 1- sinfdan boshlab o'rganadilar. Ular mavzuga oid gap tuzadilar. Masalan, bahor havosi haqida, ona qishlog'i (shahri) haqida, qo'rqqoq quyon, ayyor tulki haqida gap tuzadilar. Keyin savollar asosida bir

mavzuga oid bir necha gap tuzib, uni yozadilar. Insho uchun iloji boricha tor – aniq chegaralash mumkin bo'lgan mavzuni tavsiya qilish foydali. «Kuz» mavzusi o'quvchilar uchun juda keng mavzu bo'lib, bunda o'quvchi umuman kuz haqida, kuzda qilinadigan ishlar haqida yozishi mumkin, u yozadi – gaplarining aniq chegarasini bilmaydi. O'quvchilarga kuzga oid «Paxta terimiga yordam», «Kuzkunlarining birida», «Bog'da olma terdik», «Pomidor terishga yordamlashdik», «Kech kuzda bog' manzarasi» kabi mavzularni tavsiya qilish mumkin. Og'zaki va yozma insho ustida ishlashda mavzu berib, uni yoritishni talab qilishdan tashqari, avval material to'plash va shu yig'ilgan materiallar asosida mavzuni shakllantirishni tavsiya qilish ham mumkin. Masalan, kech kuzda tabiatni kuzatish va material yig'ish tavsiya qilinadi, kuzatishlar «Kech kuzda» mavzusida insho yozish bilan yakunlanadi. Bunda o'quvchilar mavzuni to'liq yoritadilar. Insho rejasini tuzish. Reja har qanday og'zaki yoki yozma hikoya qilishning zaruriy pog'onasi, uning «loyihasi»dir. Qishi o'z nutqi haqida o'ylab, asosiy gaplarini belgilab oladi. Insho uchun reja tuzish shuning uchun ham zarur. 1-sinfda reja rolini o'qituvchi savollari, ya'ni so'roq gaplar tarzidagi reja bajaradi; 2-sinfda reja o'qituvchi rahbarligida jamoaviy tarzda tuziladi; 3-4-sinflarda esa mustaqil tuziladi. Boshlang'ich sinflarda 3-5 talik oddiy reja tavsiya qilinadi. Bolalar avval o'qigan hikoyalariga reja tuzadilar va uni reja asosida qayta hikoya qiladilar, keyin bayon rejasini tuzadilar, so'ng bir mavzuga oid bir necha rasm (rasmlar seriyasi) asosidagi insho rejasini, ya'ni rasmlari reja tuzadilar, inshoga sarlavha topadilar. Shundan so'ng tasvirlangan voqea-harakatlar aniq ajratilgan, reja tuzishga qulay bo'lgan rasm yoki kuzatishlar asosida yoziladigan insho rejasini tuzishga o'tiladi. Reja tuzishga o'rgatishda oldin nima haqida to'xtalish, keyin uni qanday davom ettirish, undan so'ng nima haqda aytish, nihoyat, hikoyani qanday tugatish kerakligini o'quvchilarga tushuntirish foydali usul hisoblanadi. Reja avval so'roq gap tarzida, keyin darak gap, oxiri nominativ gap tarzida tuziladi. Reja ko'pincha insho yozishdan oldin unga tayyorlanish jarayonida (rasm asosida yoziladigan insho rejasi kabi) tuziladi. Ba'zan rejani ekskursiya, kuzatishdan oldin, unga

tayyorgarlik jarayonida tuzish maqsadga muvofiq. Ekskursiya, kuzatish, ijtimoiy foydali mehnat rejasi shu ishlar bajarilishidan oldin yoki ular yuzasidan material to'plash, insho uchun material tanlash va uni tartibga solish jarayonida tuziladi. Bunday reja insho yozishdan oldin ko'rib chiqilib, unga ayrim aniqliklar kiritiladi. Inshoni yozishga tayyorlash. Og'zaki yoki yozma inshoning turi va vazifasiga qarab unga tayyorgarlik ko'riladi. Inshoga tayyorgarlikni o'qituvchi boshqaradi, bunga o'quvchilarni ishtirok ettiradi, ularning o'ta faolligi va mustaqilligiga erishadi. Tayyorlik deganda, birinchidan, o'quvchilarda nimanidir tasvirlashga, hikoya qilishga talab uyg'otadigan vaziyat yaratish; ikkinchidan, insho uchun yetarli bo'lgan zarur material yig'ish; uchinchidan, mavzuga oid, uni yoritishga mos bo'lgan til vositalarini tanlash tushuniladi. Inshoga tayyorlik inshoni yozishdan bir necha kun ilgari boshlanadi, darsdan tashqari vaqtlarda va boshqa darslar jarayonida ham olib boriladi. Og'zaki yoki yozma insho ustida ishlash quyidagi uch bosqichga bo'linadi: 1) material yig'ish, ya'ni kuzatish, ekskursiya, mehnat jarayoni, rasmni ko'rib chiqish, kinofilm, spektaklni ko'rish, badiiy va boshqa adabiyotlarni o'qish; 2) mavzuga va uni yoritishga mos material tanlash, uni tartibga solish, joylashtirish, ya'ni suhbat, muhokama qilish, zarur materialni ajratish, reja tuzish, lug'at ustida ishlash, imlo va leksik tomondan tayyorlash va hokazo; Birinchi va ikkinchi bosqichdagi ishlar, odatda, darsdan tashqari vaqtda bajariladi. Masalan, ekskursiya asosidagi insho uchun material yig'ish uni yozishdan ancha ilgari boshlanadi; tabiat hodisalarini kuzatish bir hafta, hatto undan ko'proq davom etadi; rasmlar esa insho yozishdan oldin ko'riladi. Shunday qilib, insho yozish yoki og'zaki hikoya qilish darsi ilgari bajarilgan ishlarning yakunidir. Insho darsining umumlashtiruvchilik roli bog'lanishli nutq sohasidagi ko'nikmalarni egallash me'yoriga qarab ortib boradi. Insho darsining qurilishi tayyorlov bosqichining xarakteriga bog'liq. Tayyorlov bosqichida qancha ko'p ishlansa, insho darsida matn ustida shuncha chuqur ishlash imkoniyati yaratiladi. Insho yozishdan oldin yoki og'zaki hikoyalashda yig'ilgan materiallarni o'quvchilar yodiga tushirish, ularda qiziqish uyg'otish, yozishga yoki hikoya

qilishga xohish uygʻotish zarur. Insho yozish darsida quyidagi bosqichlarga rioya qilinadi: 1. Mavzuni, inshoning vazifasini eʼlon qilish (yoki yodga tushirish), uni oʻquvchilar bilan muhokama qilish. 2. Kuzatish davrida toʻplangan materialni tartibga solish yoki material yigʻish (masalan, rasmga qarab insho yozish uchun rasmni koʻrish) maqsadida suhbat oʻtkazish. Keyingi ona tili darsining ikkinchi qismidan 15-25 minut vaqt ajratib, tekshirilgan insholar yuzasidan yakuniy mashgʻulot oʻtkaziladi (insho tahlil qilinib, xatolar ustida ishlanadi). Oʻqituvchi har bir insho turi uchun oʻquv vazifasini belgilab oladi. Masalan, rasmlar seriyasi asosida birinchi marta yozdiriladigan insho uchun quyidagi vazifalar belgilab olinadi: 1. Oʻquvchilarni inshoning yangi turi boʻlgan rasmlar seriyasi asosidagi insho bilan tanishtirish. 2. Rasmi reja asosida matn rejasini tuzish. Oʻquvchilarning mustaqillik darajasi oʻsib borгани sayin, inshoga talab ham orta boradi. Oʻquvchilar inshosini tahlil qilish. Nutq oʻstirish metodikasida oʻquvchilar inshosi uchun baho meʼyori muhim masala hisoblanadi. Tabiiyki, bunda yuqorida bayon etilgan asosiy talablarga rioya qilinadi. Oʻquvchilar inshosini baholashda quyidagilar hisobga olinadi: 1. Insho mavzusining yoritilishi (Mazmun mavzuga mosmi, yaʼni yetarli yoritilganmi, haqiqatga mos keladimi?). 2. Reja, kompozitsiya, izchillik (reja toʻgʻri tuzilganmi, materialni bayon qilish tartibi rejaga mos keladimi, mazmunda takror yoʻqmi, zarur oʻrinlar tushib qolmaganmi, izchillik buzilmaganmi, asosiy fikr aniqmi, xulosa chiqarilganmi?). 3. Janri, uslubi (hikoya tarzidagi matnda tasviriy va muhokama elementlari bormi, uslubda xatoga yoʻl qoʻyilmaganmi, insho mavzusi va vaziyatni yoritish vazifasini janr va uslub oqlay oladimi, badiiylik elementlari bormi?). 4. Insho hajmi (soʻz, gap soni; lakonizm yoki koʻp soʻzlilik). Oʻquvchilar inshosiga qoʻyilgan bunday talablar uni baholashda real yondashishga imkon beradi.

20.2. Oʻquvchilar inshosini tahlil qilish va undan keyingi ishlar.

Insho bola shaxsini shakllantirish vositasi. Bolalar voqea-hodisalarni sinchiklab kuzatishni oʻrganadi, fikrini izchil yoritishga oʻrganadi. Adabiy tilni egallaydi.

Insho mavzusi: qahramonlik, mehnatsevarlik, vatanparvarlik, maktab, ilm-xosiyati, ota-onalarga munosabat, kattalarga hurmat, tabiat, bayramlar, hayvonot dunyosi, yaxshilik, yomonlik, odob-ahloq mavzularida bo'lishi o'quvchilarning shunday ahloqiy xulqqa ega bo'lishida muhim rol o'ynaydi. Inshoning tarbiyaviy ahamiyatini oshirish uchun:

1. Osondan qiyinga tamoyiliga amal qilish. Inshoni muntazam o'tkazib borilsa, o'quvchilarda mustaqillikni tarbiyalaydi.

2. Inshoni hayot bilan bog'lash. Kuzatishlar, kundalik yuritish, qilingan ishlar yuzasidan hisobot, xat, maqola, taqriz shaklida yozishning ahamiyati katta.

3. Insho uchun maktab va o'qituvchining tarbiyaviy vazifalariga mos mavzu tanlash. Mehnat, vatan, ahloqiy muammolar haqidagi mavzular kiradi.

4. Insho ustida ishlashda ishning emotsional darajasini oshirish. Tabiatni qiziqarli, obrazli, ta'sirli qilib tasvirlash.

Mavzular: "Bizning qishloq", "Jamoamiz dalasida", "Paxta boyligimiz", "Daraxt o'tqazish", "Polizda", "Bizning gulzor", "Varrak", "Kim bo'lsam ekan?", "Onam o'qituvchi", "Bu mening bobom".

Eng yaxshi insho sinfda o'qib beriladi. Konkurs e'lon qilinadi. Mavzu inshoning predmeti, uning mazmunini tashkil etadi. Mavzuga qarab material to'planadi, faktlar yig'iladi. Insho mavzusini to'liq yoritish uchun uni tushunishga bog'liq. Eng asosiy narsa insho uchun mavzu tanlash. Mavzu tartiblangan, chegaralangan bo'lishi lozim. Mavzular: "Karam uzish", "Uzumzorda", "Paxta terimi", "Kuz kunlarining birida", "Kech kuzda kolxoz bog'i", "Qorbo'ron o'ynadik", "Yozgi ta'tilning bir kunida"...

Mavzuni yoritish uchun o'quvchilarga topshiriqlar beriladi. M: "Uzumzorda" mavzusida insho yozish uchun: Uzumzor qishloqning qayerida joylashgan? U yerda kim bog'bon bo'lib ishlaydi? Qanday uzum turlari bor? Siz u yerga borganda nima qildingiz?

Uzumzorni tasvirlovchi so'z, birikmalar to'plang. Gaplar tuzing. Boqqa o'zingizning munosabatingizni bildiring. Topshiriqlar yozdiriladi, material

to'planadi. To'plangan materiallar og'zaki savol-javob yo'li bilan aniqlanadi, kamchiliklar tuzatiladi, reja tuziladi, so'zlatiladi, so'ng yozishga ruxsat beriladi. Reja-bu loyiha. Har bir og'zaki va yozma hikoya qilishning zaruriy pog'onasi – reja.

1-sinfda reja so'roq gap shaklida, o'qituvchi tomonidan tuzib beriladi. 2-sinfda o'qituvchi rahbarligida o'quvchilar bilan jamoa bo'lib tuziladi. Unda ham asosan so'roq gap shaklida bo'ladi. 3-sinfda jamoa bo'lib tuziladi, darak gap shaklida bo'ladi. 4-sinfda mustaqil tuziladi, darak gap, atov gap (ba'zi qismi) shaklida bo'ladi.

Reja 2,3,5 qismli bo'ladi. O'quvchilar o'qigan hikoyasiga reja tuzib, qayta hikoyalaydilar. So'ng insho rejasini tuzadilar. So'ng seriyali rasm asosida reja tuzadilar, inshoga sarlavha topadilar. So'ng syujetli rasm va kuzatishlar asosda reja tuzishga o'tadilar.

Reja tuzishga o'rganishdan oldin nima to'xtatilinadi; keyin qanday davom ettiriladi, so'ng nima haqida gapiriladi, nima bilan tugatiladi deb yo'l-yo'riq beriladi.

Reja insho yozishga tayyorgarlik davrida tuziladi.

Mavzu e'lon qilingach, ekskursiya kuzatishdan oldin tuzib olinsa, insho muvaffaqiyatli yoziladi.

Inshoga tayyorgarlikni o'qituvchi boshqaradi.

Tayyorgarlik davrida:

- 1) hikoya qilishga talab uyg'otadigan vaziyat yaratish;
- 2) insho uchun material yig'ish;
- 3) til vositalarini tanlash.

Tayyorgarlik insho yozilishidan bir necha kun oldin boshlanadi. Darsdan tashqari vaqtlarda, boshqa dars jarayonida ham tayyorgarlik ko'riladi. Insho ustida ishlash 3 bosqichda:

- 1) material to'plash; kuzatish, ekskursiya, rasmni ko'rib chiqish, kinofilm, spektakl ko'rish, badiiy adabiyotlar o'qish;

2) mavzuga doir mos materiallar tanlash, sistema solish joylashtirish, suhbat, muhokama qilish, zarur materiallarni ajratish, reja tuzish, lug‘at ustida ishlash, imlo va leksik tomondan tayyorgarlik ko‘rish

3) inshoni nutqiy shakllantirish; insho matnni tuzish, yozish takomillashtirish, xatolarini to‘g‘rilash, tekshirish.

1-2-bosqichlardagilar darsdan tashqari paytlarda bajariladi.

Tayyorlov bosqichida qancha ko‘p ishlansa, insho sifatli bo‘ladi. Darsda yig‘ilgan materiallar yodiga tushirilsa, yozishga qiziqish uyg‘otiladi.

1-sinfda insho yozish bir dars, 2-sinfda bir dars keyingi soatdan 15-20 daqiqa, 3-4 sinfda bir-bir yarim, ba‘zan 2 dars ajratiladi.

Xatolar ustida ishlashga 20-25 daqiqa ajratiladi.

1) mavzuni e‘lon qilish, uni o‘quvchilar bilan muhokama qilish

2) to‘plangan materiallarni sistemaga solish, rasm asosida bo‘lsa, rasmni ko‘rish, suhbat o‘tkazish.

3) reja tuzish yoki oldin tuzilgan rejaga aniqlik kiritish

4) Matnni nutqiy tayyorlash, zarur so‘zlarni yozish, birikma gap, bog‘lanishli nutq tuzish, imlosi qiyin so‘zlarni tushuntirish;

5) Inshoni yozish, o‘qituvchi ayrim o‘quvchilarga individual yordam beradi.

6) Insho tekshiriladi, o‘quvchilar tuzatishlari bo‘lsa, baho pasaytirilmaydi (o‘quvchilar tekshiradi).

7) O‘qituvchi 2 kun ichida inshoni tekshiradi.

Inshoni baholashda quyidagilar hisobga olinadi:

1) mavzuning yoritilishi

2) reja, kompozitsiya, izchillik, xulosa chiqarilganmi?

3) Janri, uslubi, tasvir muhokama elementlari bormi? Badiiy elementlari bormi?

4) Insho hajmi

5) Leksikasi

6) Sintaksisi

7) Imloviy, ishoraviy savodxonligi

8) Husnixat, xat boshi, hoshiya.

20.3. Nutqiy xatolar va ularni bartaraf etish yo'llari

Nutqiy xatolarga noto'g'ri (noo'rin) tanlangan so'zlar, noto'g'ri tuzilgan gaplar, morfologik shakllarni noto'g'ri ishlatish kiradi. Boshlang'ich sinflarda bunday xatolar ustida ishlash ancha qiyin, chunki ularni to'g'rilash va oldini olish uchun ona tili dasturida berilgan qisqa nazariy ma'lumot yetarli emas. Bolalar nutqini takomillashtirish ustida rejali, muntazam ish olib borish uchun asosiy nutqiy xatolar turini bilish zarur. Bunday nutqiy xatolarni o'rganish, shuningdek, ularning kelib chiqish sabablarini tekshirish xatolarni to'g'rilash va oldini olish uchun zamin hozirlaydi.

Nutqiy xatolar uch turga ajratiladi: **lug'aviy-uslubiy, morfologik-uslubiy, sintaktik- uslubiy.**

Boshlang'ich sinf o'quvchilari nutqida lug'aviy-uslubiy xatolar ko'proq uchraydi. Bunday xatolarga quyidagilar kiradi:

1. Bir so'zni qayta-qayta ishlatish. Bunday xatoning kelib chiqishiga sabab, birinchidan, o'quvchi so'zni ishlatishga kam e'tibor beradi va faol lug'atidagi so'zdan takroriy foydalanadi; ikkinchidan, o'quvchining so'z boyligi kam, sinonimlarni bilmaydi, takrorlanadigan so'zlar o'rniga olmoshlardan foydalana olmaydi.

Agar o'qituvchi bir so'zni qayta-qayta ishlatmaslik uchun uning ma'nodoshlaridan yoki shu so'z o'rniga olmoshlardan foydalanish kerakligini yaxshi tushuntirsa, kichik yoshdagi o'quvchi matnni e'tibor bilan o'qib, takrorlarini nisbatan tez tuzata oladi.

2. So'zning ma'nosini yoki ma'no qirrasini tushunmaslik natijasida uni aniq ma'nosida ishlata olmaslik. Bunday xato bolaning nutqi yaxshi rivojlanmaganligi, so'z boyligining kamligi sababli yuzaga keladi.

3. Shevaga xos so'zlardan foydalanish. O'quvchilar bunday so'zlarni otalarining nutqi va nutqiy sharoit ta'sirida qo'llaydilar. Ularda adabiy tilda

qo'llanadigan tushunchalarni shakllantirish asosida shevaga xos so'zlarni ishlatmaslik ko'nikmasi hosil qilinadi.

Leksik xatolar xilma-xil bo'lgani uchun uni to'g'rilash va tushuntirish usullari ham turlicha, ammo bunday xatolarning oldini olishning umumiy yo'li bor: bu yaxshi nutqiy sharoit yaratish, o'qilgan va qayta hikoya qilingan matnni til tomondan tahlil qilish, matndagi so'zlarning ma'no qirrasini tushuntirishdir.

Morfologik-uslubiy, sintaktik – uslubiy, mantiqiy xatolar. Morfologik-uslubiy xatolarga so'z shaklini, so'z o'zgartuvchi va so'z yasovchi qo'shimchalarni noto'g'ri qo'llashdan kelib chiqadigan xatolar kiradi.

Sintaktik-uslubiy xatolarga so'z birikmasi va gap tuzishga oid xatolar kiradi. Bunday xatolar juda xilma-xildir. Kompozitsion, mantiqiy va dalillarni noto'g'ri bayon qilish nutqiy xato hisoblanmaydi.

Tipik kompozitsion xatoga insho, hikoya, bayonning tuzilgan rejaga mos kelmasligi, ya'ni voqea, kuzatishlarni bayon etishda izchillikning buzilishi kiradi. Inshoga tayyorgarlik vaqtida o'quvchilar kuzatish, material to'plash, dalillarni tanlashda tartibsiz, rejasiz ish tutsalar, hikoyani qanday boshlash, keyin nimalar haqida yozish va uni qanday tugatishni aniq ko'z oldilariga keltira olmaydilar, natijada kompozitsion xatoga yo'l qo'yadilar. Bunday xato hikoya mazmunini to'liq qamrab ololmaslik, materialni o'z o'rniga joylashtira olmaslik natijasidir. Inshoni rejali, izchil yozish ko'nikmasi murakkab ko'nikma bo'lib, u o'quvchilarda muntazam bajariladigan mashqlar yordamida asta shakllana boradi.

Mantiqiy xatolar:

1. Tasvirlanayotgan voqea-hodisa uchun zarur bo'lgan so'z, ba'zan zarur lavha, dalil tushirib qoldiriladi. Bunday xatoning sababini tushunish uchun o'quvchining insho yozish vaqtidagi rihiy holatini kuzatish talab etiladi. U sekin yozadi, ammo ishga berilib ketib, tez fikrlaydi, ya'ni u hikoya mazmunini biladi, ammo tez fikrlash va sekin yozish natijasida ayrim o'rinlar yozuvda aks etmay qoladi.

2. Mantiqiy izchillik buziladi. Masalan, *Zavodda paxtadan ip yigiriladi.*

Terimchi paxtani, paxta terish mashinasida teradi. Bunday mantiqiy xatolarni o'quvchilar matnni qayta o'qish va tahlil qilish jarayonida oson to'g'rilaydilar.

Xatolarni to'g'rilash va ularning oldini olish O'quvchilar yo'l qo'ygan xatolarni guruhlash, ularning turlarini aniqlash va har bir xatoning kelib chiqish sabablarini o'rganish asosida nutqqa oid xatolarni to'g'rilash va ularning oldini olish tizimi ishlab chiqiladi. Bunda quyidagilarga e'tibor beriladi:

- nutqqa oid xatolarni o'quvchilar daftari to'g'rilash;
- sinf o'quvchilari uchun umumiy bo'lgan nutqqa oid xatolar ustida sinfda ishlash (buning uchun darsning 15-20 daqiqalik qismi ajratiladi va tekshirilgan insho va bayon tahlil qilinadi, o'quvchilarning yo'l qo'yilgan xatoni mustaqil ravishda topishiga va uni to'g'rilashiga imkon beriladi);
- ayrim individual xatolar ustida darsdan tashqari vaqtda ishlash, xatoni topish, tushuntirish va to'g'rilash;
- yo'l qo'yilishi mumkin bo'lgan nutqiy xatolarning oldini olishga qaratilgan uslubiy mashqlar tizimi (o'qish va grammatika darslarida matnni til tomonidan tahlil qilish o'quvchilar yo'l qo'ygan xato ustida ishlash uchun asos bo'lib xizmat qiladi);
- o'quvchilarni tuziladigan matn leksikasidan, ayrim sintaktik qurilmalardan foydalanishga tayyorlash maqsadida har bir hikoya, insho, bayondan oldin uni til jihatidan mashq qilish;
- imkoni bo'lsa, grammatik mavzu o'rganilayotganda, shu mavzu xatoning oldini olish uchun asos bo'lib xizmat qilishini ko'rsatish, tushuntirish;
- o'quvchilarni yozgan insho va bayonlarini o'zlari tekshirishiga va mustaqil takomillashtirishi ("tahrir qilish")ga maxsus o'rgatish.

Ko'rsatilgan yo'nalishlarning hammasi har bir sinf o'quvchilari uchun, ayniqsa, 3-va 4-sinf o'quvchilari uchun muvofiq keladi. Nutqiy xatolarni to'g'rilash va oldini olish til ustida ishlash bilan bog'lab, maqsadga muvofiq holda uyushtiriladi.

O'quvchilar og'zaki va yozma nutqida yo'l qo'ygan nutqiy xatolarni o'z vaqtida to'g'rilab borish zarur. O'quvchi yo'l qo'ygan xatosining to'g'ri variantini o'zlashtirsin, imkoni bo'lsa, xatoning kelib chiqish sababini tushunsin. Xatoni to'g'rilashning eng foydali usuli yo'l qo'ygan xatosini o'quvchining o'zi to'g'rilashi hisoblanadi, agar o'quvchi xatosini to'g'rilay olmasa, uni o'qituvchi to'g'rilaydi. Xato turiga qarab to'g'rilanadi: gap yoki so'z birikmasi qayta tuziladi, so'z boshqasi bilan almashtiriladi, zarur so'z qo'shiladi, ortiqchasi ustidan chiziladi.

Insho yoki bayonni tahlil qilish darsida xatolar ustida ishlash maqsadi uchun darsning ikkinchi qismi 20-25 daqiqasi ajratiladi. O'qituvchi o'quvchilar insho yoki bayonni qanday yozganlari haqida qisqa tushuncha berib, eng yaxshi yozilgan matnni o'qib beradi, mazmundagi, mavzuni yoritishdagi kamchiliklar, imloviy va nutqiy xatolar aniqlanadi. Yo'l qo'yilgan xatoni to'g'rilash yo'li tushuntiriladi. Shundan so'ng xato ustida birgalikda ishlanadi: o'qituvchi yo'l qo'yilgan xatoning bir turini to'g'rilash yuzasidan topshiriq beradi: „Noo'rin ishlatilgan so'zni boshqasi bilan almashtiring“. Xatosi bor matnni o'qib yoki yozib beradi, o'quvchilar yo'l qo'yilgan xatoni topadilar, maqsadga muvofiq so'z bilan almashtirib, uni to'g'rilaydilar va tushuntiradilar.

Ayrim o'quvchilar yo'l qo'ygan individual xatolar darsdan tashqari vaqtda, qo'shimcha mashg'ulot jarayonida to'g'rilanadi. O'quvchi bilan individual suhbatda ham, sinfda jamoa bo'lib ishlash jarayonidagi kabi bolalarning aqliy faolligiga, ya'ni u xatosi nimadaligini tushunibgina qolmay, balki uni to'g'rilashi va tushuntirishiga erishish muhimdir.

Grammatikaga oid mavzuni o'rganishda o'quvchilar yo'l qo'yishi mumkin bo'lgan xatoning oldini olish uchun mazkur mavzu ularga qanday imkoniyatlar yaratishi tushuntiriladi. Masalan, „Olmosh“ mavzusini o'rganganda, kishilik olmoshlarining takrorlangan so'zlar o'rnida qanday ishlatilishi o'quvchilarga misollar bilan tushuntirilsa, ular ham insho yoki bayon yozishda shunga rioya qiladilar. O'quvchilarning og'zaki va yozma nutqini o'stirishdagi muvaffaqiyat quyidagi **uch asosiy** omilga bog'liq:

-
- so'zga e'tibor bilan munosabatda bo'lish, o'quvchilarning ko'p mutolaa qilishi, atrofidagi kishilarning to'g'ri va ifodali nutqi, ya'ni nutqiy sharoit;
 - bolalarning nutqiy tajribasi qanday tashkil etilishi;
 - nutq o'stirishda o'qituvchining til nazariyasiga, grammatikaga, leksikologiya va stilistika elementlariga asoslanish ko'nikmasi.

Mavzuni takrorlash va mustahkamlash uchun savollar hamda topshiriqlar:

1. Hikoya va tasvir janrida badiiy uslubda insho yozing.
2. Tabiatni kuzatish asosida yoziladigan inshoga tayyorlanish va uni o'tkazish bosqichlarini tushuntiring.
3. O'quv yilining yarmi uchun insho va bayon o'tkazish rejasini tuzing.
4. O'quvchilar dafgarini tekshiring va nutqiy hatoning xar biriga misol tanlang. Hatoning kelib chiqish sababini va uni bartaraf qilish yo'llarini tushuntiring.
5. Nutqiy hatolar ustida ishlash darsining bir qismi (20-25 min.) rejasini tuzing.
6. Uzingiz ilgari yozgan matnni taxrir qilib ko'ring. Tuzatishlaringizni sanang va turini ayting.
7. O'quvchilarning og'zaki va yozma nutqini o'stirishdagi muvaffaqiyatga erishishning uch omilini misollar bilan tushuntiring.

Test savollari

1. Ona tili darslarining tiplari qaysi qatorda to'g'ri ko'rsatilgan?

A) Yangi materialni o'rgatish va mustahkamlash ; o'tganlarni takrorlash va malaka hosil qilish; bilim va malakalarni umumlashtirish; bilim va malakalarni tekshirish

B) O'tilgan mavzuni so'rash , yangi mavzuni bayon qilish, yangi mavzuni mustahkamlash

D) O'quvchilar bilimini baholash , o'quvchilar bilimini kengaytirish va mustahkamlash

E) O'tilgan mavzuni so'rash , uy vazifasi ustida ishlash, yangi bilim berish

2. Jufti bor jarangli undoshlar berilgan qatorni aniqlang.

A) y , l B) m , n D) d , g
E) r , ng

3. Jufti yo'q jarangli undoshlar qaysi qatorda berilgan?

A) z , j B) b , d D) l , r
E) g , v

4. Qaysi qatorda jufti bor jarangsiz undoshlar joylashtirilgan?

- A) sh, p B) q, h D) g, g'
E) A va D javoblar to'g'ri

5. Diktant so'zining ma'nosi -

A) aytib bermoq, aytib turmoq, so'zlamoq, gapirmoq

B) o'ylamoq, fikrlamoq, yozmoq, o'qimoq

D) o'tkazmoq, eshittirmoq, izlamoq, chizmoq

E) to'g'ri javob berilmagan

6. Ta'limiy diktant turlarining soni -

- A) 5 ta B) 6 ta D) 7 ta E) 8 ta

7. 3-sinfda lug'at diktantdagi so'zlar soni -

- A) 8 so'z B) 10 - 12 so'z
D) 12 - 15 so'z E) 17 - 19 so'z

8. 4-sinfda lug'at diktantdagi so'zlar soni -

- A) 12 - 15 so'z B) 10 - 12 so'z
D) 14 - 16 so'z E) 8 - 10 so'z

9. 2-sinfda lug'at diktantdagi so'zlar soni -

- A) 12 - 15 so'z B) 10 - 12 so'z
D) 8 so'z E) to'g'ri javob berilmagan

10. 2-sinfda o'quv yili oxirida tekshirish diktantidagi so'zlar soni -

- A) 25 - 30 ta B) 45 - 55 ta
D) 55 - 65 ta E) 35 - 45 ta

11. 4-sinfda o'quv yilining birinchi yarmi oxirida tekshirish diktantidagi so'zlar soni - A) 25 - 30 ta

- B) 65 - 70 ta D) 55 - 65 ta
E) 45 - 55 ta

12. 3-sinfda o'quv yilining oxirida tekshirish diktantidagi so'zlar soni -

- A) 35 - 45 ta B) 45 - 55 ta
D) 55 - 65 ta E) 65 - 70 ta

13. Saylanma diktantni qaysi sinflarda o'tkazish maqsadga muvofiq?

- A) 1-sinfda B) 3 - 4 - sinfda
D) 2-sinfda E) 1- 2 - sinfda

14. Diktant maqsadiga ko'ra necha turli bo'ladi?

- A) 4 B) 3 D) 7 E) 2

15. 1 - 4 - sinflarda ta'limiy diktantning qaysi turidan keng foydalaniladi?

- A) Ijodiy diktant B) Saylanma diktant D) Erkin diktant
E) Izohli diktant

16. 1-sinf Ona tili darsligining muallifi -

- A) Qosimova K. va boshqalar
B) Fuzailov S. va boshqalar
D) Ikromova R. va boshqalar
E) G'afforova T. va boshqalar

17. 2-sinf Ona tili darsligining mualliflari -

- A) Ikromova R. va boshqalar
B) Qosimova K. va boshqalar
D) G'afforova T. va boshqalar
E) Fuzailov S. va boshqalar

18. 3-sinf Ona tili darsligining mualliflari -

- A) Fuzailov S. va boshqalar
B) Ikromova R. va boshqalar
D) Qosimova K. va boshqalar
E) G'afforova T. va boshqalar

19. 4-sinf Ona tili darsligining mualliflari -

- A) G'afforova T. va boshqalar
B) Qosimova K. va boshqalar
D) Fuzailov S. va boshqalar
E) Ikromova R. va boshqalar

20. „O'zbek tilining asosiy imlo qoidalari“ qachon tasdiqlangan?

- A) 1993-yil 2-sentabr
B) 1995-yil 21-dekabr D) 1995-yil 24-avgust E) 1996-yil 1-sentabr

21. „Matnning umumiy mazmunini saqlagan holda ayrim so'z yoki so'z birikmalarini boshqa so'z yoki so'z birikmalari bilan almashtirib yozish“ ta'limiy diktantning qaysi turiga xos?

A) Lugʻat diktant B) Oʻz diktant yoki yoddan yozuv D) Erkin diktant E) Koʻrsatish diktanti

22. “Xususiy xato” –

A) koʻpchilik oʻquvchilarda uchraydigan xatolardir B) ayrim oʻquvchilarda uchraydigan xatolardir D) bunday xatolar yoʻq E) A va B javoblar toʻgʻri

23. Diktantda qaysi xatolar hisobga olinmaydi?

A) oʻquvchilarga oʻrgatilmagan qoidalar yuzasidan qilingan xatolar;
B) gap oxirida nuqta qoʻyilmagan boʻlsa-yu, keyingi gapni bosh harf bilan yozsa;
D) gap maʼnosini buzmaganda holda biror soʻzni boshqa soʻz bilan almashtirib yozsa;
E) A, B, D javoblardagi holatlarda

24. „1-sinfda ona tili darslari“ nomli oʻquv-metodik qoʻllanmaning mualliflari –

A) Xudoyberganova M. va boshqalar B) Qosimova K. va boshqalar D) Shodmonqulova D. va boshqalar E) Gʻulomova X. va boshqalar

25. „2-sinfda ona tili darslari“ nomli oʻquv-metodik qoʻllanmaning mualliflari

A) Qosimova K. va boshqalar B) Shodmonqulova D. va boshqalar D) Xudoyberganova M. va boshqalar E) Gʻulomova X. va boshqalar

26. „3-sinfda ona tili darslari“ nomli oʻquv-metodik qoʻllanmaning mualliflari –

A) Gʻulomova X. va boshqalar B) Xudoyberganova M. va boshqalar D) Qosimova K. va boshqalar E) Shodmonqulova D. va boshqalar

27. „4-sinfda ona tili darslari“ nomli oʻquv-metodik qoʻllanmaning mualliflari

A) Xudoyberganova M. va boshqalar B) Gʻulomova X. va boshqalar D) Shodmonqulova D. va boshqalar E) Qosimova K. va boshqalar

28. „Boshlangʻich sinflarda ona tili oʻqitish metodikasi“ nomli qoʻllanmaning muallifi kim?

A) Roziqov O. B) Qosimova K. D) Ikromova R. E) Shodmonqulova D.

29. Oʻquvchilar nutqiga qoʻyilgan talablar qaysi javobda toʻgʻri koʻrsatilgan?

A) mazmundorlik, mantiqiylik B) aniqlik, boylik, tushunarli D) ifodalilik, toʻgʻrilik E) yuqorida koʻrsatilganlarning barchasi

30. Fikrni bayon etish ehtiyojini amalga oshirishga qaratilgan, tugallangan mavzuni ifodalaydigan, mantiqiy va grammatik qoidalar asosida tuzilgan, mustaqil, tugallangan va oʻzaro bogʻlangan, maʼnoli qismlarga boʻlinadigan nutq –

A) hikoya deyiladi B) bogʻlanishli nutq deyiladi D) ichki nutq deyiladi E) tashqi nutq deyiladi

31. Oʻqib berilgan namunaviy matn mazmunini maʼlum tayyorgarlikdan soʻng yozma qayta hikoyalash –

A) inshor B) bayon D) hikoya E) ertak

32. Insho material manbaiga koʻra necha turga boʻlinadi?

A) 2 turga B) 5 turga D) 3 turga E) 4 turga

33. Insho janriga koʻra –

A) hikoya tarzidagi insho
B) tasvir tarzidagi insho D) muhokama tarzidagi insho
E) yuqorida sanalganlarning barchasi

34. Rasm asosidagi inshoning nechta turi mavjud?

A) 2 ta turi B) 3 ta turi
D) 4 ta turi E) 5 ta turi

35. Og‘zaki yoki yozma insho ustida ishlash necha bosqichga bo‘linadi?

A) 2 bosqichga B) 3 bosqichga
D) 4 bosqichga E) 5 bosqichga

36. Nutqiy xatolar –

A) lug‘aviy-uslubiy xatolar
B) morfologik-uslubiy xatolar
D) sintaktik-uslubiy xatolar
E) yuqorida sanalganlarning barchasi

37. Maktabda lug‘at ustida ishlash metodikasining asosiy yo‘nalishlari nechta?

A) 2 ta B) 3 ta D) 4 ta E) 5 ta

38. Tilda mavjud bo‘lgan barcha so‘z va iboralarining yig‘indisi –

A) lug‘at tarkibi yoki leksika deyiladi B) olinma so‘zlar deyiladi
D) iboralar deyiladi
E) to‘g‘ri javob berilmagan

39. Ikki jildlik „O‘zbek tilining izohli lug‘ati“ dagi so‘zlar miqdori –

A) 50 000 B) 65 000 D) 60 000 E) 55 000

40. Besh jildlik „O‘zbek tilining izohli lug‘ati“ dagi so‘zlar miqdori –

A) 60 000 B) 70 000 D) 75 000 E) 80 000

41. Talaffuzi, yozilishi har xil bo‘lgan, bir umumiy tushuncha (ma‘no) ifodalaydigan so‘zlar –

A) ma‘nodosh (sinonim) so‘zlardir
B) shakldosh (omonim) so‘zlardir
D) zid ma‘noli (antonim) so‘zlardir
E) to‘g‘ri javob berilmagan

42. Berilgan javoblar orasidan undalmaga berilgan ta‘rifning eng to‘lig‘i va to‘g‘risini belgilang.

A) Undalma gapning boshi, o‘rtasi, oxirida keladi.

B) So‘zlovchining nutqi qaratilgan shaxsni ifodalagan so‘zga undalma deyiladi.

D) So‘zlovchining nutqi qaratilgan shaxs va narsalarni ifodalagan so‘zlarga undalma deyiladi.

E) Undalma gapning o‘rtasida kelgan bo‘lsa, uning ikki tomoniga vergul qo‘yiladi.

43. Berilgan gaplarning qay birida murakkab va shaxsga qaratilgan undalma qatnashgan?

A) O‘g‘lim, dadangning ishi ko‘payib ketdi. B) Bahor, ketma bizning bog‘lardan.

D) Quyosh, nurlaringni to‘ka ber tinmay.

E) Ey aziz bolalar, Vatanga munosib posbon bo‘lib yetishing.

44. Keltirilgan qoidalarining qay birida undalmaning o‘rni to‘liq ko‘rsatilgan?

A) Undalma gapning boshida keladi. B) Undalma gapning boshi, o‘rtasi, oxirida keladi.

D) Undalma gapning oxirida keladi. E) Undalma gapning o‘rtasida keladi.

45. Punktuatsiya qanday prinsiplarga asoslanadi?

A) semantik prinsipga
B) sintaktik prinsipga

D) intonatsion prinsipga
E) yuqorida sanalganlarning barchasi

46. „Punktuatsiya ham, yozuv kabi, kishilar orasidagi aloqaning

muhim vositalaridan biri sanaladi“.
Matn muallifini aniqlang.

- A) Abdurahmonov G'. B) Shoabdurahmonov Sh. D) Nazarov K. E) Egamberdiyev B.

47. „Tinish belgilari fikrni aniq va tez uqib olishga hamda o‘zgalarga uqtirishga yordam beradi“.
Matn muallifi kim?

- A) Shoabdurahmonov Sh. B) Nazarov K. D) Abdurahmonov G'. E) Egamberdiyev B.

48. Imloviy (orfografik) mashqlarga qaysilar kiradi?

- A) grammatik-imloviy (orfografik) tahlil B) ko‘chirib yozuv; diktantlar D) leksik-grammatik tahlil; bayonlar E) yuqorida sanalganlarning barchasi

49. Ko‘rib idrok qilingan so‘z, gap, matnni yozma shaklda berish –

- A) ko‘chirib yozuvdir B) diktantdir D) saylanma diktantdir E) to‘g‘ri javob berilmagan

50. Boshlang‘ich sinflarda insho tahlili va xatolar ustida ishlash uchun qancha vaqt ajratiladi?

- A) 5 – 10 daqiqa B) 10 – 15 daqiqa D) 15 – 20 daqiqa E) 20 – 25 daqiqa

51. Ona tili mashg‘ulotlarini tashkil etishda qanday reja turlaridan foydalaniladi?

- A) Yillik va yarim yillik reja B) Choraklik reja D) Mavzuiy reja E) yuqorida sanalganlarning barchasi

52. Talaffuzga asoslangan yozuv qoidalari qaysi prinsipga kiradi?

- A) Shakliy B) Morfologik D) Fonetik E) to‘g‘ri javob berilmagan

53. So‘zning eng kichik, bo‘linmaydigan ma’noli qismi

- A) asos morfemadir B) affiks morfemadir D) morfemadir E) to‘g‘ri javob berilmagan

54. So‘zlarni leksik-grammatik turkumlarga ajratishda qanday belgilarga asoslanadi?

- A) leksik ma’nosi B) morfologik D) sintaktik E) yuqorida sanalganlarning barchasi

55. Boshlang‘ich sinflarda „Sifat“ mavzusi qanday izchillikda o‘rganiladi?

- A) sifat bilan dastlabki tanishtirish B) sifat haqida tushuncha berish D) shu grammatik mavzu bilan bog‘liq holda ayrim sifatning yozilishini o‘zlashtirish E) yuqorida sanalganlarning barchasi

56. 1-sinfda o‘quv yili oxirida tekshirish diktantidagi so‘zlar soni –

- A) 25 – 30 so‘z B) 35 – 45 so‘z D) 15 so‘z E) to‘g‘ri javob berilmagan

57. 4-sinfda o‘quv yilining oxirida tekshirish diktantidagi so‘zlar soni –

- A) 45 – 55 ta so‘z B) 55 – 65 ta so‘z D) 65 – 70 ta so‘z E) 75 – 80 ta so‘z

58. Diktant maqsadiga ko‘ra necha turli bo‘ladi?

- A) 3 turli B) 5 turli D) 7 turli E) 2 turli

59. Ovoz (sonor) tovushlar berilgan qatorni aniqlang.

- A) b, d, j B) k, g, g' D) m, n, l E) f, p, t

60. O‘zbek tilida qaysi harflar ikkitadan nutq tovushini ifodalaydi?

- A) ch, ng B) sh, h D) j, s E) to‘g‘ri javob berilmagan

61. Tutuq belgisi qaysi o‘rinlarda qo‘llanilishini belgilang.

A) So'z bo'g'inlarini ajratib ko'rsatish uchun;

B) So'zda a, e, u unli tovushlaridan so'ng ovoz biroz

tutilib, shu unlining cho'ziqroq talaffuz qilinishini ifodalash uchun;

D) Sh harflari ikki tovushni ifodalagani uchun;

E) A, B va D javoblardagi o'rinlarda

62. Xato yozilgan so'zlar qatorini aniqlang.

A) Ota-ona, katta-kichik
B) Otau-ona, kattayu-kichik

D) Ota-yu ona, katta-yu kichik
E) to'g'ri javob berilmagan

63. Bo'g'in ko'chirish qoidasiga amal qilingan so'zlar qatorini ko'rsating.

A) Ya-ngi, de-ngiz, lan-gar
B) Ing-liz, ko'n-gil, so'n-gi

D) Ton-gi, uzan-gi, bir-in-chi
E) A va B javoblar to'g'ri

64. Bo'g'in ko'chirish qoidasiga amal qilinmagan so'zlar qatorini aniqlang.

A) Ikir-chikir, qop-qop, u-bu
B) Ra'-no, ma'-no, mudo-faa

D) Ko'-ngil, to-ngi, so'ng-gi
E) Sin-gil, ken-gash, den-giz

65. U harfi o'rniga o' harfini qo'yib ma'nosini o'zgartirish mumkin bo'lgan so'zlar qatorini belgilang.

A) Bur, qul, qush B) Tur, ulush, qum D) Sur, buz, bug'u E) Tuz, tutun, tush

66. Qaysi qatordagi so'zlarda „ng“ harflar birikmasi bitta tovushni ifodalashga xizmat qilgan?

A) Mangu, tanga, menga B) Senga, unga, bunga D) Ingliz, kongress, Ngiliy

E) Kengash, yangi, yengi

67. Lablangan unlilarni aniqlang.

A) a, I B) e, o D) o', u
E) to'g'ri javob berilmagan

68. O'rta keng unlilar qaysi qatorda joylashganini aniqlang.

A) i, u B) o, o'
D) a, e E) to'g'ri javob berilmagan

69. Tor unlilar berilgan qatorni belgilang.

A) o, o' B) i, u D) a, e
E) D va B javoblar

70. Keng unlilar qatorini aniqlang.

A) i, u B) a, e D) o, o'
E) A va D javoblar

71. Lablanmagan unlilar qatorini belgilang.

A) i, e B) o', u D) to'g'ri javob berilmagan
E) o'zbek tilida bunday unlilar yo'q

72. Jarangsiz undosh tovushlar berilgan qatorni aniqlang.

A) v, g, l, r B) m, n, d, z
D) s, sh, ch, x E) b, j, g', ng

73. Jarangli undosh tovushlar berilgan qatorni belgilang.

A) k, t, s B) q, h, p D) ch, sh, x E) y, g, r

74. Bo'g'inga noto'g'ri ajratilgan so'zlar qatorini aniqlang.

A) So'-ngi, si-ngil, tong-gi
B) Ko'ng-li, lan-gar, in-gliz D) Yan-gi, ko'n-gil, ing-liz

E) To-ngi, mang-lay, tan-ga

75. Xato yozilgan so'zlar qatorini belgilang.

A) shox, shoh, uxlamog
B) uhlamoq, hol, xol D) xo'sh, hush, es-hushli

E) xushhabar, xushyor, baxodir

76. Imlo belgilari soni to'g'ri ko'rsatilgan qatorni aniqlang.

- A) 5 ta B) 4 ta D) 3 ta
E) 2 ta

77. Sonlarning imlosi to'g'ri ko'rsatilgan qatorni belgilang.

- A) 25 dekabr 2008 yil
B) XII-sessiya
D) III-sinf E) 2009-yilning 10-yanvari

78. Yonma-yon keladigan undoshlar imlosi imlo qoidalarining nechanchi moddasida berilgan?

- A) 34-modda B) 7-modda
D) 31-modda
E) 5-modda

79. So'zboshida qo'llanmaydigan harfiy birikmani belgilang.

- A) sh B) ng
D) ch E) o'zbek tilida bunday birikma yo'q

80. Qaysi qatordagi so'zlar to'g'ri yozilgan?

- A) hashak, raxmat
B) lovilla, gurilla
D) Qayyum, Ayyub
E) shovilla, bulduruq

81. O'zlashma so'zlarning bo'g'inlari chegarasida ikki undosh kelsa, ular keyingi satrga –

- A) ko'chirilmaydi
B) birgalikda ko'chiriladi
D) biri oldingi satrda qoldirilib, ikkinchisi ko'chiriladi

E) o'zbek tilida bunday qoida yo'q

82. Bir tovushni ko'rsatuvchi harflar birikmasi –

- A) birgalikda ko'chiriladi
B) biri qoldirilib, ikkinchisi ko'chiriladi
D) bunday qoida yo'q
E) to'g'ri javob berilmagan

83. Yildan yilga, tomдан tomga kabi birinchi qismi chiqish kelishigida, ikkinchi qismi jo'nalish kelishigida bo'lgan birikmalar –

- A) chiziqcha bilan yoziladi
B) ajratib yoziladi D) to'g'ri javob berilmagan

84. Belgining ortiq darajasini bildiruvchi ko'pdan ko'p, tekindan tekin, yangidan yangi kabilar

- A) ajratib yoziladi B) chiziqcha bilan yoziladi
D) to'g'ri javob berilmagan

85. Marosim, afsona kabilarni bildiruvchi qo'shma otlar –

- A) qo'shib yoziladi B) ajratib yoziladi
D) chiziqcha bilan yoziladi
E) to'g'ri javob berilmagan

86. Takror taqlid so'zlarga qo'shimcha qo'shish bilan yasalgan ot va fe'llar –

- A) ajratib yoziladi
B) chiziqcha bilan yoziladi D) qo'shib yoziladi

E) o'zbek tilida bunday holat uchramaydi

87. Taqlid so'zlardan fe'l yasovchi -illa qo'shimchasi so'z tarkibida v va u tovushi bo'lganda –

- A) -illa aytiladi va shunday yoziladi B) -ulla aytiladi va shunday yoziladi

D) bunday qoida yo'q
E) to'g'ri javob berilmagan

88. Qaysi so'zlarga I, II shaxs egalik qo'shimchalari qo'shilganda bir y tovushi qo'shib aytiladi va shunday yoziladi?

- A) mavqe, mavzu B) orzu, bobo
D) parta, maktab E) kitob, qalam

89. Qaysi olmoshlarga -ni, -ning, -niki qo'shimchalari qo'shilganda n tovushi aytilmaydi va yozilmaydi?

- A) Kim, nima, qayer B) Men, sen
D) U, bu, o'sha E) Hamma, barcha

90. Qaysi olmoshlarga -da, -dan, -day, -dagi, -ga, -gach, -cha qo'shimchalari qo'shilganda n tovushi qo'shib aytiladi va shunday yoziladi?

A) barcha , hamma B) bu , shu D) men , biz E) kim , nima

91. To'g'ri yozilgan so'zlar qatorini aniqlang.

A) dardi bedavo, nuqtayi nazar B) tekidan-tekina, ko'pdan-ko'p

D) tomdan-tomga , qizigandan-qizidi E) yangidan-yangi , dardi sar

92. Qaysi qatorda chiziqcha noto'g'ri qo'llangan?

A) kutaman-a, yashang-e B) to'ppa-to'g'ri, qip-qizil

D) uyma-uy , rang-barang E) tomdan-tomga , tekidan-tekina

93. Qaysi qatorda bo'g'in ko'chirish qoidasiga amal qilingan?

A) Qar-DU, O'z-MU, a-da-biy B) sin-gi , ko'n-gil , ton-gi

D) sing-lim, ko'ng-li , tong-gi E) pesh-ayvon , o-qi-la, mu-do-faa

94. Yonma-yon keladigan unlilar imlosi imlo qoidalarining nechanchi moddasida berilgan?

A) 4-moddasida B) 11-moddasida D) 7-moddasida E) 31-moddasida

95. Yuklama-qo'shimchalarning qaysilari so'zlarga qo'shib yoziladi?

A) -e, -ey B) -ov, -gina D) -chi, -a E) -ku, -da

96. Yuklama-qo'shimchalarning qaysilari so'zlarga chiziqcha yordamida yoziladi?

A) -mi B) -oq D) -gina E) -ku

97. Xatosiz yozilgan so'zlar qatorini aniqlang.

A) O'rta Chirchiq, Ko'hna Urganch B) yangiyo'l, to'rtko'l , xalqobod

D) foto-apparat, elektro-texnika E) suv osti, bayram oldi

98. -(a)r (inkori -mas) qo'shimchasi bilan tugaydigan qo'shma ot va qo'shma sifatlar

A) ajratib yoziladi B) qo'shib yoziladi D) chiziqcha bilan yoziladi

E) o'zbek tilida bunday holat uchramaydi

99. Murakkab son qismlari –

A) qo'shib yoziladi B) ajratib yoziladi D) to'g'ri javob berilmagan E) A va B javoblar to'g'ri

100.

O'zbekiston

Respublikasining „Davlat tili haqida “gi Qonuniga o'zgartirishlar va qo'shimchalar kiritish to'g'risida “ gi Qonuni qabul qilingan sanani aniqlang.

A) 1995-yil 21-dekabr B) 1995-yil 24-avgust D) 1993-yil 2-sentabr E) to'g'ri javob berilmagan

GLOSSARIY

Adabiy til - milliy tilning ma'lum qoidalarga bo'ysundirilgan, muayyan qolipga solingan, olimlar, mutaxassislar tomonidan ishlov berilgan, doim silliqalashtirilib, mukammallashtirilib boriladigan shakli.

Affikslar orfoepiyasi - qo'shimchalar talaffuzi.

Akkomodatsiya - unli va undosh tovushlarning bir-biriga ta'siri natijasida o'zaro moslashuvidir.

Arab raqamlari - avval Hindistonda yaratilib, keyinchalik buyuk vatandoshimiz Muhammad Xorazmiy xizmatlari tufayli Arabiston, Ispaniya va butun Yevropaga tarqalgan raqamlar.

Assimilatsiya - so'z tarkibidagi bir xil toifadagi fonemalardan biri ikkinchisini o'ziga aynan yoki qisman o'xshatib olishi.

Bilim – shaxsning ongida tushunchalar, sxemalar, ma'lum obrazlar ko'rinishida aks etuvchi borliq haqidagi tizimlashtirilgan ilmiy ma'lumotlar majmui

Bilim olish – borliqni idrok etish, o'rganish, mashq qilish va muayyan tajriba asosida xulq-atvor hamda faoliyat ko'nikma, malakalarining mustahkamlanib, mavjud bilimlarning takomillashib, boyib borish jarayoni.

Bilish- obyektiv borliqning inson ongida aks etish shakli; ilmiy bilimlarni o'zlashtirish jarayoni.

Bo'lishli fe'llar - bajarilgan, bajarilayotgan va bajariladigan harakatni ifodalaydi: yozdi, yozyapti, yozmoqchi. Bo'lishlilikni hosil qiluvchi maxsus qo'shimcha yo'q.

Bo'lishsiz fe'llar - bajarilmagan, bajarilmayotgan, bajarilmaydigan harakatni bildiradi: yozmadi, yozmayapti, yozmoqchi emas. Bo'lishsiz fe'llar fe'l negiziga -ma qo'shimchasini qo'shish, fe'llardan keyin emas, yo'q so'zlarini keltirish, fe'llardan oldin na so'zini keltirish yoki ohang yordamida hosil qilinadi: Kelmadi. Yozgani yo'q. Na yozdi, na o'qidi. Boradi, boradi-ya! (bormaydi)

Buyruq gaplar buyurish, iltimos, maslahat kabilarni ifoda qiluvchi gaplar buyruq gaplar deyiladi

Baho – ta’lim oluvchilarga ularning ta’lim olishi, bilimlarni o’zlashtirishga nisbatan ijodiy yondashishini rag’batlantirish maqsadida ta’sir ko’rsatish vositasi.

Bakalavriat - mutaxassisliklar yo’nalishi bo’yicha fundamental va amaliy bilim beradigan, ta’lim olish muddati kamida to’rt yil davom etadigan tayanch oliy ta’lim.

Boshlang’ich ta’lim - o’quvchilarga murakkab bo’lmagan ilmiy bilimlarni berish asosida ularda o’qish, yozish va hisoblashga oid dastlabki bilim, ko’nikma hamda malakalarni shakllantirish asosida ularda shaxsiy gigiena va sog’lom turmush tarzi elementlarini hosil qilish bosqichi

Boshlang’ich ta’lim pedagogikasi – boshlang’ich sinflar o’quvchilarini tarbiyalash, ularga ta’lim berish, ularning o’ziga xos psixologik hamda fiziologik xususiyatlarini tadqiq etish, shuningdek, ularni intellektual, ma’naviy-axloqiy va jismoniy jihatdan kamolotga etkazish masalalarini o’rganadi.

Didaktik o’yin – o’rganilayotgan obyekt, hodisa va jarayonlarni modellashtirish asosida o’quvchining bilishga bo’lgan qiziqishi va faollik darajasini rag’batlantiruvchi o’quv faoliyati turi.

Didaktik tizim (yunoncha «systema» – yaxlit, qismlarda tashkil topgan, birlashtirish) – ma’lum mezonlari asosida ta’lim jarayoning yaxlit holatini belgilash, ajratib ko’rsatish.

Didaktik tashxis maqsadi – o’quv jarayonining samaradorligini aniqlash, baholash va tahlil qilish.

Didaktika tamoyillari (lotin tilidan «principium» - har qanday nazariyaning asosiy, boshlang’ich, dastlabki holati) – ta’limni tashkil etishga qo’yilgan me’yoriy talablarni ifodalovchi, shuningdek, ta’lim jarayonining asosiy maqsadi va qonuniyatlariga muvofiq uning dastlabki holatini belgilovchi qarashlari.

Didaktika (ta’lim nazariyasi) – (yunoncha «didaktikos» “o’rgatuvchi”, «didasko» – “o’rganuvchi”) - ta’limning nazariy jihatlarini (ta’lim jarayonining

mohiyati, tamoyillari, qonuniyatlari, o'qituvchi va o'quvchi faoliyati mazmuni, ta'lim maqsadi, shakl, metod, vositalari, natijasi, ta'lim jarayonini takomillashtirish yo'llari va hokazo muammolari)ni o'rganuvchi fan.

Differensiatsiya tamoyili - shakli yoki talaffuzi bir xil bo'lgan so'zlar yozuvda turli shartli belgilar vositasida (yoki ba'zan ma'noga ko'ra) farqlanadigan tamoyil.

Dissimilatsiya - ikkita aynan yoki qisman bir xil fonemadan biri o'zgarib, noo'xshash fonemaga aylanishi.

Dunyoqarash - tabiat, jamiyat, tafakkur hamda shaxs faoliyati mazmunining rivojlanib borishini belgilab beruvchi dialektik qarashlar va e'tiqodlar tizimi.

Dars - bevosita o'qituvchi rahbarligida muayyan o'quvchilar guruhi bilan olib boriladigan ta'lim jarayonining asosiy shakli

Darslik – muayyan fan bo'yicha ta'lim maqsadi, o'quv dasturi va didaktik talablarga muvofiq belgilangan ilmiy bilimlar to'g'risidagi ma'lumotlarni beruvchi manba

Eliziya - Unli tovush bilan tugagan so'zga unli bilan boshlanadigan so'zning qo'shilishi natijasida birinchi so'z oxiridagi unlining tishishi.

Empirik metod - Empirik metod o'qituvchilarning ish tajribasini o'rganish, yangiliklarini tanlash, umumlashtirish, baholash va ommalashtirish, o'qituvchi va o'quvchilar faoliyatining darajasini aniqlash

Etimologik (yoki grafik) tamoyil - boshqa tillardan (masalan, arab, rus yoki rus tili orqali boshqa tillardan) kirgan so'zlar o'zi mansub bo'lgan tildagi shaklini o'zbek imlosida ham saqlagan holda yoziladigan tamoyil.

Fonetik tamoyil - so'zlar va so'z tarkibidagi affikslar qanday talaffuz qilinsa, xuddi o'shanday yoziladigan tamoyil.

Fonetik o'zgarish - nutq zanjiridagi fonemalarning turlicha o'zgarishlari

Fonografik yozuv - tilning fonetik tomonlarini ham aks ettirishga imkon yaratdigan yozuv.

Gap– grammatik jihatdan shakllangan, tugallangan intonatsiyaga ega bo‘lgan bir so‘z yoki so‘zlar bog‘lanmasidan iborat fikr ifodalovchi eng kichik va asosiy sintaktik birlik gap deyiladi .

Grafika - fonetik-fonologik, leksik va morfologik birliklarni ifodalash uchun qo‘llanadigan optik-grafik (*ingl. optic – qaraydigan, ko‘radigan degani*⁴) belgilar haqidagi bo‘lim.

Grammatika va imlo metodikasi - grammatika va imlo metodikasi elementar to‘g‘ri yozuvga va husnixatga o‘rgatishni, grammatik tushunchalarni, boshlang‘ich imlo malakasini shakllantirishni o‘z ichiga oladi.

Grammatika - yunoncha «grammatike» so‘zidan olingan bo‘lib, aslida ”yozish san’ati” ma’nosini bildiradi. Manbalarga qaraganda, u qo‘shma so‘zlar tarkibiga kiradi. (1-89-b): *gramma* – yozuv belgisi, chiziq degani. Dastlab u, darhaqiqat, yozuv tilini tekshirish bilan shug‘ullangan. Shu sababli ham u “yozuv san'ati” ma'nosini bildirgan. Biroq ijtimoiy hayot va fan taraqqiyoti bilan bog‘liq ravishda grammatika tushunchasining doirasi kengayib, yozuvi bo‘lmagan jonli tillarni ham tekshira boshlagan, lekin nomi o‘zgarmagan. Grammatikada so‘zlarning umumiy leksik-grammatik kategoriyalari, so‘zlarning o‘zgarishi natijasida yuzaga keladigan so‘z - shakllar, so‘zlarning o‘zgarishini ta'minlovchi omillar, so‘zlarning bog‘lanishi, buning natijasida yuzaga keladigan bog‘lanmalar, bu jarayonni yuzaga keltiruvchi omillar, qonun-qoidalar, usullar o‘rganiladi.

Intonatsiya–intonatsiya ham turli sintaktik aloqalarni ifodalashda xizmat qiladigan vositadir. Biror gruppada intonatsion o‘zgarish bo‘lar ekan, bu odatda sintaktik bo‘linishning, mazmunning boshqaligini ko‘rsatadi. Masalan : qalin muqovali-kitob (muqova qalin). – qalin - muqovali kitob (kitob qalin). U - ahmoq odam emas (u aqlli)- U ahmoq, odam emas. (U aqlli emas,ahmoq).

Kombinator o‘zgarishlar - so‘z tarkibidagi fonemalarning o‘zaro‘ta’siriga ko‘ra o‘zgarishi.

⁴ Англо-русский словарь. Составитель В.К.Мюллер. Москва, 1971, стр.528.

Mavzu doirasi - ma'lum bir belgilangan mavzu

Maxsus belgilar - alifboda berilmagan maxsus belgilar.

Metateza - soʻz tarkibidagi tovushlar oʻrin almashishi.

Metodika tamoyillari - metodika tamoyillari oʻqituvchi bilan oʻquvchining maqsadga muvofiq faoliyatini belgilashga, ularning birgalikdagi ishlarida qulay yoʻnalishini tanlashga yordam beradi, metodikaning fan sifatida nazariy asoslash elementlaridan biri boʻlib xizmat qiladi.

Morfologik tamoyil - soʻzlar va ularning tarkibiy qismlari talaffuz qilinishiga qarab emas, asliga muvofiq yoziladigan tamoyil.

Nutq - tilning ma'lum paytda va ma'lum oʻrinda namoyon boʻlishidir.

Oʻqish fanining vazifasi - Oʻqish fanining vazifasi birinchi navbatda bolalarni tez (meʼyorida), toʻgʻri, ongli va ifodali oʻqish malakalari bilan qurollantirish hisoblanadi.

Oʻrgatish—tarbiyalanuvchilar ijtimoiy xulq-atvor koʻnikmalari, odatlarini shakllantirish maqsadida rejali va izchil tashkil qilinadigan turli harakatlar, amaliy ishlar.

Oʻzlashtirish – taʼlim jarayonida ustuvor oʻrin tutuvchi ijtimoiy talablarga muvofiq shaxs tomonidan muayyan xatti-harakat va xulq usullarining egallanishi.

Olmoshlar - olmoshlar ergash gaplarning bosh gapga bogʻlanishida va matn qismlarining oʻzaro bogʻlanishida xizmat qiladi. Masalan, Toleim shuki, Vatanda bir guliston tanladim. Bu gapda ergash gapni bosh gapga bogʻlashda-ki yuklamasi ishtirok etish bilan birga, olmosh mazmunliy “puch” soʻz boʻlganligi uchun keyingi gap ana shu “puch” soʻzning maʼnosini izohlash, uni “toʻldirish” uchun xizmat qilmoqda. Demak, olmosh asosida ikki gap bogʻlanadi.

Ona tili oʻqitish metodikasi fani - Ona tili oʻqitish metodikasi fani taʼlim berish sharoitida ona tilini egallash, yaʼni nutqni, oʻqish va yozishni, fonetika, grammatika bilib olish jarayoni hisoblanadi.

Ona tili o'qitish metodikasi tamoyillari - Ona tili o'qitish metodikasi tamoyillari o'qituvchi bilan o'quvchi o'rtasidagi o'quv mehnatining yo'nalishlarini belgilab beradi.

Orfoepiya - tilshunoslikning adabiy til talaffuz me'yorlarini o'rganuvchi sohasidir.

Orfografiya - so'zlar va ularning shakllarini yozish haqidagi qoidalar tizimidir.

Piktografik yozuv - rasmlarga asoslangan yozuv turi.

Pozitsion o'zgarishlar - so'z tarkibidagi tovushlarning o'rniga ko'ra o'zgarishi.

Progressiv assimilyatsiya - assimilyatsiyada oldingi fonema o'zidan keyin fonemani o'ziga o'xshatadi:

Regressiv assimilyatsiya - keyingi fonema o'zidan oldingi fonemani o'ziga o'xshatishi.

Savod o'rgatish metodikasi - savod o'rgatish metodikasi elementar o'qish va yozishga o'rgatadi.

Sintaksis - grekcha syntax so'zidan olingan bo'lib, tuzish degan ma'noni bildiradi. Shundan ham ko'rinib turibdiki, sintaksis tayyor, avvaldan mavjud bo'lgan narsalarni emas, nutq jarayonida tuziladigan, hosil qilinadigan birliklarni o'rganadi. Sintaksisning o'rganish obyektlari mohiyat e'tibori bilan kamida ikki mustaqil so'zdan hosil qilingan tuzilma, bog'lanma xususiyatiga ega bo'lishi va bu bog'lanmalar ham bizning xotiramizda saqlanmagan bo'lishi, ayni nutq jarayonida hosil qilinishi lozim. Sintaktik aloqa o'zaro mazmuniy munosabatda bo'lgan sintaktik birliklar qismlarining so'z birikmasi, gap va matn tarkibida shakliy bog'lanishidir.

So'roq gap—so'zlovchiga noma'lum bo'lgan biror voqea - hodisa, harakat-holat, belgi haqidagi so'roqni bildirgan gap.

So'z o'zgartuvchi qo'shimchalar. Bular kelishik, egalik, shaxs-son qo'shimchalaridan iboratdir.

Talaffuz me'yorlari - adabiy til uchun joriy qilingan me'yor.

Tamoyil - qoidalar jamlanmasi.

Tarixiy-an'anaviy tamoyil - boshqa tillardan (masalan, arab, rus yoki rus tili orqali boshqa tillardan) o'zlashgan so'zlar hozir ham o'tmishdagi shakliga muvofiq yoziladigan tamoyil.

Til - ma'lum xalq tomonidan ishlatiladigan, uzoq tarixga ega bo'lgan hodisa.

To'ldiruvchi. Gapdagi biror bo'lakning ma'nosini to'ldirib, unga boshqaruv yo'li bilan bog'langan bo'lak to'ldiruvchi deyiladi. To'ldiruvchi ko'pincha kesimga bog'lanadi: Halol mehnat insonni ulug'laydi. Yomonga yondashma, yaxshidan adashma. To'ldiruvchi ikki xil bo'ladi: 1.Vositasiz to'ldiruvchi. 2. Vositali to'ldiruvchi.

Transkripsiya - Og'zaki nutqda fonemalarning turlicha o'zgarishlarini, har xil variantlarda talaffuz etilishini aniq aks ettiradigan yozuv

Turlanish - otlarning kelishik yoki egalik qo'shimchalarini olib o'zgarishi: bolaning, dalani, kitobga, uyda, ko'chadan; ko'ylagim, bobong, onasi.

Tuslanish - fe'lning shaxs-son qo'shimchalarini olib o'zgarishi: bordim, bording, bordik, bordingiz, boraman, borasan, boray, borgin, borsin.

Ta'lim – o'quvchilarga nazariy bilimlarni berish asosida ularda amaliy ko'nikma va malakalarni shakllantirish, ularning bilish qobiliyatini o'stirish va dunyoqarashlarini tarbiyalashga yo'naltirilgan jarayon.

Ta'lim jarayoni – o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasida tashkil etiluvchi hamda ilmiy bilimlarni o'zlashtirishga yo'naltirilgan pedagogik jarayon.

Ta'lim maqsadi (o'qish, bilim olish maqsadi) – ta'limning aniq yo'nalishini belgilab beruvchi yetakchi g'oya.

Ta'lim metodlari – ta'lim jarayonida qo'llanilib, uning samarasini ta'minlovchi usullar majmui.

Ta'lim vositalari – ta'lim samaradorligini ta'minlovchi obyektiv (darslik, o'quv qo'llanmalari, o'quv qurollari, xarita, diagramma, plakat, rasm, chizma, diaproektor, magnitafon, videomagnitafon, uskuna, televizor, radio, kompyuter va

boshqalar) va subyektiv (o'qituvchining nutqi, namunasi, muayyan shaxs hayoti va faoliyatiga oid misollar va hokazolar) omillar.

Umumiy tahlil - badiiy asarlarning g'oyasi va mazmuni talqin etiladi.

Undoshlar orfoepiyasi - Undosh tovushlar talaffuzi

Undov gap fikrni kuchli his-hayajon bilan ifodalaydigan, o'ziga xos his-hayajon, ayrim undov intonatsiyasi, kuchli ohang bilan aytiladigan gapdir.

Unlilar orfoepiyasi - unli tovushlar talaffuzi.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Sh.Mirziyoyev Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. Toshkent –“O'zbekiston” -2016.56 b.

2. Sh.Mirziyoyev Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. Toshkent –“O'zbekiston” -2016.488 b.

3. Sh.Mirziyoyev Qonun ustuvorligi va inson manfaatlari ta'minlash–yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. Toshkent –“O'zbekiston” -2016.488 b.

4. Sh.Mirziyoyev Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik-har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. Toshkent –“O'zbekiston” -2017.104 b.

5. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси – Т.: Ўзбекистон, 2017. -46 б.

6. Uzviylashtirilgan Davlat ta'lim standarti va o'quv dasturi –T.: Yangiyo'l poligraf service, 2017. – 1-160. b.

7. Qosimova K., Matjonov S., G'ulomova X., Yo'ldosheva Sh., Sariyev Sh. Ona tili o'qitish metodikasi. –T.: Noshir, 2009. – 163 b.

8. Adizova N.B, Jumayev R.X., Qo'ldoshev R.A., Ismatov S.R. Ona tili o'qitish metodikasi. Buxoro. Durdona.: 2021. -292 b.

9. Adizova N.B., Adizova N.B. Ona tili o'qitish metodikasi. –Buxoro: “Durdona”, 2021. -112 b.

10. Azimova I. A. [va boshq.]. Ona tili va o'qish savodxonligi 1-qism [Matn]: 1-sinf uchun darslik. – T.: Respublika ta'lim markazi, 2021. – 104 b.

-
11. Azimova I. A. [va boshq.]. Ona tili va o‘qish savodxonligi 2-qism [Matn]: 1-sinf uchun darslik. – T.: Respublika ta’lim markazi, 2021. – 104 b.
12. Azimova I. A... Ona tili va o‘qish savodxonligi 1 Metodik qo‘llanma [Matn]: o‘qituvchilari uchun metodik qo‘llanma.–T.: Respublika ta’lim markazi, 2021. - 128 b
13. Azimova I.A... Ona tili va o‘qish savodxonligi [Matn]: 2-sinf o‘qituvchilari uchun metodik qo‘llanma. – T.: Respublika ta’lim markazi, 2021. – 128 b.
14. G‘ulomova X., Yo‘ldosheva Sh., Mamatova G., Boqiyeva H. Masharipova U., Sattorova X. Husnixat va uni o‘qitish metodikasi. –T.: TDPU, 2013. – 70 b.
15. Jumayev R.X., Ona tili o‘qitish metodikasi. Buxoro. Durdona.: 2021. - 120 b.
16. Matchonov S. Va boshq. O‘qish kitobi (4-sinf uchun darslik). –T.: Yangiyo‘l poligraf servis, 2017. – 216 b.
17. Mavlonova K. [va boshq.]. Ona tili va o‘qish savodxonligi. 1-qism [Matn]: darslik 2-sinf uchun. – T.: Respublika ta’lim markazi, 2021. – 120 b.
18. Mavlonova K. [va boshq.]. Ona tili va o‘qish savodxonligi. 2-qism [Matn]: darslik 2-sinf uchun. – T.: Respublika ta’lim markazi, 2021. – 120 b.
19. PIRLS 2021 Assessment Framework. Ina V S. Mullis, Michael O.Martin. International Association for the Yevaluation of Yeducational Achievement (IEA), TTMSS & PIRLS International Study Center, Lynch School of Yeducation. Boston Colleee. 2019. [Www.timssanddirsls.bc.edu](http://www.timssanddirsls.bc.edu).
20. Umarova M., Hakimova Sh. O‘qish kitobi (3-sinf uchun darslik). – T.: Cho‘lpon, 2019. – 283 b.

Axborot manbalari

www. tdpu. uz

www. pedagog. uz

www. Ziyonet. Uz

MUNDARIJA

KIRISH.....	
7-MODUL. BOSHLANG‘ICH SINFLARDA SINTAKSIS VA PUNKTUATSIYA ELEMENTLARINI O‘RGANISH	
15-MAVZU. BOSHLANG‘ICH SINFLARDA SINTAKTIK TUSHUNCHALAR USTIDA ISHLASH METODIKASI.....	
15.1. Boshlang‘ich sinflarda punktuatsiya elementlarini o‘rganish metodikasi..	
15.2. Orfografiyani o‘rganish metodikasi.....	
15.3. Ona tilidan bilim, ko‘nikma va malakalarni tekshirish.....	
8-MODUL. NUTQ O‘STIRISH METODIKASI.....	
16-MAVZU: KICHIK YOSHDAGI O‘QUVCHILAR NUTQINI O‘STIRISH YO‘LLARI VA VAZIFALARI.....	
16.1. Nutq va uni o‘stirish tushunchasi. O‘quvchilar nutqiga qo‘yilgan talablar	
16.2. Nutq - o‘quvchilar tafakkurini o‘stirishda muhim vosita.....	
17-MAVZU: LUG‘AT USTIDA ISHLASH.....	
17.1. Lug‘at ustida ishlashning lingvistik asosi, vazifalari. So‘z ma‘nosini tushuntirish yo‘llari	
18-MAVZU: BOG‘LANISHLI NUTQ VA UNI O‘STIRISH VAZIFALARI.....	
18.1. Bog‘lanishli nutq haqida umumiy tushuncha.....	
18.2. Bog‘lanishli nutqqa oid aniq ko‘nikmalar.....	
18.3. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining bog‘lanishli nutqini o‘stirishda inretfaol usullardan foydalanish	
19-MAVZU: BOG‘LANISHLI NUTQ. OG‘ZAKI QAYTA HIKOYA QILISH VA YOZMA BAYON.....	
19.1. Og‘zaki va yozma qayta hikoyalash qo‘yiladigan talablar.....	
20-MAVZU: BOG‘LANISHLI NUTQ. OG‘ZAKI HIKOYA VA YOZMA INSHO.....	
20.1. Og‘zaki va yozma insho turlari.....	
20.2. O‘quvchilar inshosini tahlil qilish va undan keyingi ishlar.....	
20.3. Nutqiy xatolar va ularni bartaraf etish yo‘llari.....	
Test savollari.....	
GLOSSARIY.....	
ADABIYOTLAR RO‘YXATI.....	

Qaydlar uchun

Qaydlar uchun

Qaydlar uchun

Xalilova Ruxsora Raupovna

ONA TILI O'QITISH METODIKASI

O'QUV QO'LLANMA



«Sharq-Buxoro» MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Buxoro shahar O'zbekiton Mustaqilligi ko'chasi, 70/2 uy.
Tel: 0(365) 222-46-46
